

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Geografiya kafedrası

**«SANOAT VA QISHLOQ
XO'JALIK GEOGRAFIYASI
2»**

FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

Qo'qon - 2010

Ushbu ma'ruzalar matni geografiya kafedrası 2010 yil 29 avgust 1-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Tuzuvchi: *Geografiya kafedrası o'qituvchisi
Mo'minov D.G'.*

Taqrizchilar: *Ahmaddaliyev Yu. F.D.U. iqtisodiy va
ijtimoiy geografiya kafedrası dotsenti.*

*Abdug'aniyev I. FDU tabiiy geografiya
kafedrası dotsenti*

**Mavzu: SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI
GEOGRAFIYASI FANINING PREDMETI, VAZIFALARI.
SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGINING XALQ
XO'JALIGIDA TUTGAN O'RNI.**

REJA:

1. *Fanning maqsadi, predmeti vazifalari.*
2. *Sanoatning xalq xo'jaligida tutgan o'rni va o'ziga xos hususiyatlari.*
3. *Qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligida tutgan o'rni va o'ziga xos hususiyatlari.*
4. *Sanoatning O'zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni.*
5. *Qishloq xo'jaligini O'zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni.*

1. Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi fani iqtisodiy geografiyaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, sanoat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xududiy muammolarini, joylashishi va iqtisoslashishi, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish xalq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. U jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan turli xil maxsulotlarni ishlab chiqaradi. Sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasi iqtisodiy geografik masalalarni o'rganishda yetakchi o'rinni ishg'ol etadi.

Iqtisodiy geografiya va uni hamma qismlari jamiyat haqidagi fandır. Hamma fanlardagi kabi har bir voqea va hodisalarni o'rganishda unga avvalo falsafik nuqtai nazari bilan yondashish kerak. Bu fan ham shu metodga tayanadi. Shuningdek, iqtisod nazariyasi, regional iqtisod, ekologiya, demografiya, matematika, tabiiy geografiya, tarix, siyosatshunoslik, kartografiya fanlari bilan bir qator yo'nalishlarda hamkorlik qiladi.

Ayni paytda bu «qo'shni» fanlarda ham sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga e'tibor kuchaymoqda. Shubxasiz, biz ishlab chiqarishning ijtimoiy, demografik va ekologik tomonlarini hisobga olishimiz zarur. Shuning uchun geografik dunyo qarash «xududiy» bo'limi bilan birga «dunyoviy majmualar birligidan iborat» bo'lishi kerak. Ya'ni har bir talaba dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy va iqtisodiy voqealarning mohiyatini anglab yetmog'i zarur.

Umuman, xo'jalik tarmoqlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng asosiy mavzusi hisoblanadi. Xususan bu yirik mavzu jahon moddiy ishlab chiqarishning sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlarini va

ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalqaro iqtisodiy aloqalar sohalarini qamrab oladi. Bu mavzularni o'rganish bilan, o'quvchi har bir xo'jalik tarmoqlarining jamiyat hayotida tutgan o'rnini, rivojlanish va joylashishi hususiyatlarini ularning atrof – muhitga ta'siri haqida atroflicha tushuncha oladi. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlaridan, u har qanday xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlab berish hususiyatiga ega. Jahonning barcha sanoat tarmoqlarida 350 milliondan ziyod kishi va xodimlar ishlaydi.

Hozirgi 100 yil ichida sanoat ishlab chiqarishning hajmi 50 barobardan ortiq o'sdi. Bu o'sishning 3/4 qismi 20 asrning 2 yarmiga FTI davriga to'g'ri keladi. Sanoat ishlab chiqarish bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bir biridan farq qiladi. Ularni quyidagicha sanab o'tish mumkin.

- sanoatda maxsulot ishlab chiqarish o'zluksiz davom etadi. Qishloq xo'jaligida mavsumiy xarakterga ega, chunki qishloq xo'jaligida maxsulot yetishtirish 1 navbatda joyning tuproq, iqlim sharoitiga, yil fasllariga, quyosh energiyasining turlicha to'tishi hamda ekinlar va chorva mollari biologiyasi bilan bog'liq. Texnika va mehnatdan foydalanishdagi mavsumiylik, maxsulotdan tushadigan daromadlarning bir xil bo'lmasligi va boshqa hususiyatlar ham ana shu bilan bog'liq;

- sanoat ishlab chiqarishi ma'lum bir xududni egallagan korxonalarda zavod va fabrikalarda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida esa keng maydonlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida g'oyat ko'p qishloq xo'jaligi mashinalari ishlatiladi;

- qishloq xo'jaligida yetishtirilgan yalpi maxsulotning 20 dan ortig'i (urug', ozuqa, yosh chorva mollari) takroriy ishlab chiqarishda qatnashadi va bu narsa o'z navbatida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondini tashkil etadi;

- qishloq xo'jaligining o'ziga xos hususiyati shundaki bu tarmoqda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Foydalanish davomida ishdan chiqarilgan va o'rnini boshqalari eg'allaydigan barcha ishlab chiqarish vositalaridan farq qilib, to'g'ri foydalanilgan yer ishdan chiqish uyoqda tursin balki o'zini ximik va fizik hossalarni yaxshilaydi, unumdorligini oshiradi.

Sanoat O'zbekiston milliy iqtisodiyotining moddiy ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudofa qudrati sanoatga bog'liq. Sanoat ham iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi turli joylardagi korxonalardan, zavodlar, shaxtalar, elektr stantsiyalaridan iborat. Sanoat

korxonalarining asosiy qismi davlat mulki bo'lib hozirgi kunda xususiylashtirilmoqda.

Xususiylashgan sanoat korxonalari bozor munosabatlarida xos talab va taklif bilan ishlaydi.

1990 yillarga kelib O'zbekistonda sanoatning 100 dan ortiq tarmog'iga tegishli 1700 ta korxona ishlab turdi. Shu davrda respublikada yalpi ijtimoiy maxsulotning 53% sanoatda hosil qilindi.

1993 yilda sanoatning yoqilg'i sanoat tarmog'i 60% dan ortiq, oziq-ovqat sanoati, 10% og'ir sanoat, 40% miqdorda maxsulot ishlab chiqardi.

Mamlakatimizning qonuniga ko'ra 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar mehnatga yaroqli hisoblanadi. Jumladan 25 yoshdan 49 yoshgacha bo'lganlar mehnatga eng yaroqli kishilardir.

1999 yilda O'zbekistonning mehnat resurslari 12,3 million kishini tashkil etgan. Bu umumiy aholining salkam yarmidir. Ular yiliga 200-250 ming kishiga ko'paymoqda.

Dunyoda qishloq xo'jaligida foydaladigan yerlar 4480 million bo'lib, quruqlikning 33,4% ni tashkil etadi. Shundan shudgorlab dehqonchilik qilinadigan yerlar va ko'p yillik o'simliklar, meva va uzumzorlar 1457 millionga yaylov va pichanzorlar 3005 millionni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar – qishloq xo'jalik yerlari deyiladi.

Qishloq xo'jalik hamma joyda tarqalganligi bilan birga nixoyatda xilma-xildir. Olimlar uning taxminan 50 qismini ajratganlar. Biroq, ularni 2 ta katta guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchidan bu rivojlangan tovar qishloq xo'jaligi bo'lib, u o'z navbatida intensiv dehqonchilik va chorvachilikni, bog'dorchilik hamda tomorqa xo'jaligini xalq shuningdek, entensiv dehqonchilik bilan yaylov chorvachiligini ham o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, bu an'anaviy ya'ni, ichki iste'molga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi bo'lib, u yerlar asosan plug va omochda ishlanadigan bir muncha qoloq dehqonchilikni, yaylov chorvachiligini, ko'chmanchi hamda yarim ko'chmanchi chorvachilikni o'z ichiga oladi.

Agar qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollarini sonini oshirish hisobiga ko'paysa, bunday qishloq xo'jaligi ekstensiv deyiladi. Aksincha qishloq xo'jaligi maxsulotining hajmini maydon birligida agrotexnika vositalaridan ko'proq masuldor zotlarini yaratish hisobiga oshsa, bunday qishloq xo'jaligi intensiv xo'jalik deyiladi.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim va yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, unda aholining 1/3 qismiga yaqini band.

O'zbekistonning iqlimi, yer-suvi va mehnat resurslari qishloq xo'jaligining muhim serdaromad va ko'p mehnat talab qiladigan paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavot, polizchilik, qorako'lchilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkon beradi. Bular Respublika qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridir. O'zbekistonda tabiiy va iqtisodiy omillarga ko'ra qishloq xo'jaligi obikor dehqonchilik, adir-tog' va cho'l-yaylov mintaqalariga bo'linadi. Obikor dehqonchilik mintaqasi mamlakat xududining 1/10 qismini tashkil qilgan holda, yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotining 85% ini yetkazib bermoqda. Bu mintaqada paxtachilik, sholikorlik, makkajo'xorichilik, bog'dorchilik, o'zumchilik, polizchilik, chorva ozuqalarini yetishtirishga ixtisoslashgan.

Adir-tog' mintaqasi Respublika xududining 1/5 qismini ishgor qilib baxorikor g'allachilik, mevachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Respublika yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotining 7,9% ga yaqini yetkazib beradi. Cho'l yaylov mintaqasi Respublikada 3/5 qismini ishgor qilib, chorvachilikka, asosan qorako'lchilikka ixtisoslashgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, chet el texnika va texnologiyalarini olib kirishga katta e'tibor berilmoqda.

Tayanch iboralar

Sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasi fanini tarkibi, ahamiyati, hozirgi davrdagi vazifasi, maqsadini o'rganish. Boshqa fanlar bilan shu jumladan geografiya, iqtisod nazariyasi falsafa, kartografiya bilan bog'liqligi, ekstensiv va intensiv taraqqiyot yo'li, ishlab chiqarish qurollari, ilmiy texnika taraqqiyoti, og'ir sanoat, yengil sanoat, sanoat geografiyasi, ishlab chiqarish fondlari, tovar qishloq xo'jaligi, adir tog', cho'l-yaylov mintaqasi.

NAZORAT SAVOLLAR:

1. Mamlakatlarni iqtisodiy taraqqiyotida qaysi omillar muhim rol o'ynaydi?
2. Xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarini sanab bering?
3. Qishloq xo'jaligini qanday tarmoqlari bor, sanoatdan qanday farq qiladi?

4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashish va rivojlanishiga texnika taraqqiyoti qanday ta'sir kursatadi?
5. Fan predmeti va uni iqtisodiy geografik o'rni?
6. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning xalq xo'jaligida tutgan urni va roli?
7. Bu fan qaysi fanlar bilan aloqador?
8. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi qaysi omillarga ko'ra mintaqalarga ajratiladi?
9. Qishloq xo'jalik tarmoqlari tarkibi?
10. O'zbekistonda xalq xo'jaligida sanoat, qishloq xo'jaligining tutgan o'rni?

ADABIYOTLAR:

1. Asonov G. Nabixonov M, Safarov I, «O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» Toshkent, 1995 yil
2. Saushkin Yu.G. «Ekonomicheskaya geografiya: istoriya, teorea, metod, praktika»
3. Soliev A.S, Mallaboev T, «Iqtisodiy va sanoat geografiya kursida ayrim qonuniyatlarini o'rganish metodikasi» Toshkent, 1998 yil.

Mavzu: SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING XUDUDIIY TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TABIY VA IQTISODIY-IJTIMOIIY OMILLARI

REJA:

1. *Asosiy tushuncha va atamalar*
2. *Tabiiy sharoitni xo'jalikning rivojlanishiga ta'sirini o'rganish*
3. *Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish.*
4. *Iqtisodiy-ijtimoiy omillar.*

Har qanday davlatning iqtisodiy jixatdan rivojlanishi uning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari bilan belgilanadi. Qulay tabiiy sharoit va boy tabiiy resurslar har qanday mamlakat yoki xudud qudratining asosi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu mavzuni o'qitishdan asosiy maksad quyidagilardan iborat:
— tabiiy sharoit va tabiiy resurs tushunchalarining mohiyati va mazmuni haqida bilimlar berish;

- tabiiy sharoit va tabiiy resurslari xalq xo'jaligining rivojlanishida tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berish;
- tabiiy sharoitning asosiy tarkibiy qismlari hamda ularni xalq xo'jaligi rivojlanishiga ta'sirining asosiy yunalishlarini ochib berish;
- tabiiy resurslarning asosiy turlari, ularning tarqalishi, sanoat va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'rida bilim va malakalarni shakllantirish;
- tabiiy resurslardan foydalanishning atrof muhitning ifloslanishiga ta'sirini ochib berish.

Asosiy tushuncha va atamalar.

Ushbu mavzuni o'qitish davomida juda ko'p tushuncha va atamalar mohiyati va mazmunini ochib berish lozim. Ular quyidagilardan iborat: tabiat, tabiiy sharoit, tabiiy muhit, atrof muhit, geografik muhit, tabiiy resurslar, tabiatdan foydalanish va h.k.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quvchilar kundalik hayotda gazeta, jurnal, televidenie va turli ilmiy-ommabop adabiyotlar orqali uchratib turadilar.

Tabiat tushunchasi keng tarqalgan tushunchalardan bo'lib, tabiiy va ijtimoiy fanlarning deyarli barcha sohalarida uchraydi.

Tabiat — kishilik jamiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar majmuasidir. Insonning xo'jalik faoliyati u bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson unga bevosita va bilvosita ta'sir etib turadi. Ushbu tushuncha asosan tabiat va jamiyat orasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, insonni o'rab to'rgan olamning bir qismi ham tabiat deb ataladi.

Tabiat inson tomonidan o'zlashtirish darajasiga qarab o'zgarmagan (tabiatning inson faoliyati ta'sir etmagan qismlari); birlamchi (Yerning tabiiy ekotizimlari); ikkilamchi (inson tomonidan o'zgartirilgan ekotizimlar — dala, bog' va h.k.); o'chlamchi (sun'iy tashkil qilingan tizimlar — shaharlar, qo'rg'onlar, qishloqlar va h.k.) qismlarga bo'linadi.

Tabiiy sharoit tushunchasi ham tabiat tushunchasiga yaqinrok va deyarli bir xil ma'noni beradi. Tabiiy sharoit — bu ma'lum bir paytda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi hamda jamiyatning hayoti va xo'jalik faoliyati uchun muhim bo'lgan, ammo moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydigan tabiat kuchlari, narsa va hodisalardir.

Demak, tabiiy sharoit moddiy yoki nomoddiy ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi, ammo uning rivojlanishiga muhim ta'sir etadi. Masalan, iqlim, shamol, quyosh energiyasi va h.k.

Jamiat bilan tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yangi muhit, ya'ni geografik muhit hosil bo'lgan.

Geografik muhit — bu kishilik jamiyatini o'rab to'rgan tabiatning bir qismi bo'lib, u bilan inson ayni paytda o'zining hayoti va ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'langan. Insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yangi xududlarni, tabiiy muhitning yangi tomonlarini va tarkiblarini o'zlashtirib borgan sari geografik muhitning tarkibi va hajmi kengaya boradi. Olimlarning fikricha, kelajakda geografik muhit bilan geografik qobiq qo'shilib ketishi mumkin. Demak, geografik muhit — bu tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatda va ta'sirda bo'ladigan qismidir.

Hozirgi paytda tabiiy resurslardan juda ham keng ko'lamda foydalanish natijasida tabiatda yangi antropogen tabiiy-xududiy majmualar vujudga kelib, ularning maydoni va ko'lami tobora ortib bormoqda. Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish bo'yicha ham qator tushuncha va atamalar mavjud, ularning mazmuni va mohiyatini tegishli bo'limlarda ko'rib chiqamiz.

Tabiiy resurslar — kishilik jamiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan va xo'jalikda bevosita foydalaniladigan tabiat elementlaridir (modda va quvvat turlari). Tabiiy resurslarga tuproqlar, foydali yovvoyi o'simlik va xayvonot dunyosi, mineral xom ashyo, suv va h.k.lar kiradi. Inson faoliyati jarayonida hosil bo'lgan moddiy resurslar tabiiy resurslarni qayta ishlash jarayonida vujudga keladi. Tabiiy resurslarning xududiy majmualarini rivojlanishini va ulardan foydalanish muammolarini tabiiy resurslar geografiyasi o'rganadi. Uning quyidagi tarmoqlari ajratiladi: yer, o'rmon, agroiklim, yer osti, dunyo okeani, quruqlikdagi suv resurslari. Tabiiy resurslar geografiyasi o'z muammolarini yechishda tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlari yutuqlariga tayanadi.

Demak, tabiiy resurslar tabiiy sharoitdan farq qilib, moddiy ishlab chiqarishga bevosita jalb qilinadi va uning xom ashyo bazasini tashkil qiladi.

Tabiiy resurslar kelib chiqish manbalariga va joylashishiga, qayta tiklanish darajasiga, iqtisodiy jixatdan to'ldirilishiga, almashtirish (boshqa narsalar bilan) imkoniyatiga qarab turli xil guruhlarga bo'linadi. Kelib chiqish manbalariga qarab energetika, iqlim, sun, mineral, o'simlik, tuproq, rekreatsiya resurslariga bo'linadi. Foydalanish maqsadlariga ko'ra

ko'p maqsadli (er, suv, xavo, o'rmon), sanoatda, qishloq xo'jaligida ishlashladigan resurslar ajratiladi.

Tugash darajasiga qarab tugaydigan va tugamaydigan resurslarga, tugaydigan resurslar o'z navbatida shakllanmaydigan (mineral yoqilg'i, metall rudalari va x.k.) va tiklanadigan (suv, xavo, yer, o'rmon, tuproq, xayvon, gidroenergetika) resurslarga bo'linadi. Tugamaydigan tabiiy resurslarga yadro, quyosh, geotermal, shamol, qalqish va oqim energiyalari kiradi. Boshqa narsalar bilan o'rnini almashtirish darajasiga qarab, almashtirib bo'ladigan va almashtirib bo'lmaydigan resurslarga bo'linadi. Masalan, ko'mirni suv va quyosh energiyasi bilan almashtirish mumkin. Almashtirib bo'lmaydigan (o'rnini boshqa narsa bilan qoplash) resurslarga metall resurslar kiradi.

Tabiiy sharoitni xo'jalikning rivojlanishiga ta'sirini o'rganish yuqorida aytib o'tganimizdek, tabiiy sharoit har qanday mamlakat, viloyat, mintaqa xo'jaligining rivojlanishini sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi mumkin.

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga va joylashuviga, transport kurilishiga ta'sir etib, turli joylarda xo'jalik yuritishni arzonlashtirishi yoki qimmatlashtirishi mumkin.

Rel'ef xo'jalikni balandliklar sari ixtisoslashib borishiga sabab bo'ladi. Rel'efi tekis bo'lgan joylar sanoatni, transportni va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun juda qo'lay. Qurilish ishlari uchun juda kam mablag' sarflanadi. Rel'efning past-balandligi orta borgani sari xo'jalik yuritish qiyinlashib boradi, qurilish ishlariga sarflanadigan harajatlari oshib ketadi. Botqoqlar, cho'llar, doimiy muzlab yotgan yerlar, muz bilan qoplangan joylarda xo'jalik yuritish va ularni o'zlashtirish juda katta mablag' talab qiladi.

Ma'lum bir joyning iqlim sharoiti xo'jalik yuritishga sezilarli ta'sir qiladi. Xo'jalik yuritishga (ayniqsa qishloq xo'jaligini) ta'sir etadigan iqlim elementlari quyidagilar hisoblanadi: $+10^{\circ}$ dan yuqori bo'lgan yillik harorat yig'indisi, yong'in miqdori, sovuqsiz va bulutsiz kunlar soni, shamollar va ularning doimiyligi, qor qalinligi va uning yog'ish muddati va h.k.

Musbat ($+10^{\circ}$ dan yuqori) haroratlari yig'indisi qishloq xo'jalik ekinlarining turlarini aniqlab beradi. Yog'in miqdori va bug'lanish nisbatining turli tabiat zonalarida turlicha bo'lishi qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvini belgilab beradi. Yog'in miqdori bilan bug'lanish miqdori teng bo'lgan joylar (dasht, o'rmon-dasht) qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun juda qo'lay hisoblanadi, eng hosildor, chirindiga boy tuproqlar

(qora tuproqlar) shu yerlarda tarqalgan. Bu yerlarda sugormasdan dehqonchilik qilish mumkin. Yog'in miqdori bug'lanishdan ancha kam bo'lgan mo'tadil mintaqaning janubiy qismi, subtropik va tropik mintaqalarda qishloq xo'jaligi sug'orish asosida rivojlanadi. Yog'in miqdori ham, bug'lanish miqdori ham kam bo'lgan qutb atrofi va qutbiy mintaqalarda tuproq qoplami juda ham kam, ba'zi joylarda deyarli yo'k, yer yuzasi botqoqlashgan, aksariyat joylar ko'p yillik muzliklardan iborat bo'lgani uchun qishloq xo'jaligining chorvachilik (bug'uchilik) tarmog'i yaxshi rivojlangan, yer yuzasidagi chullarda ham asosan chorvachilik rivojlangan (qo'ychilik, tuyachilik). Ekvatorial, subekvatorial va nam tropik mintaqalarda yil bo'yi bir necha bor hosil olish mumkin. Xindistonda, Xindi-Xitoy yarim orollarida, Malayya arxipelagida qishloq xo'jalik ekinlaridan (asosan sholidan) bir necha marta hosil olinadi.

Demak, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga va ixtisoslashuviga iqlim va uning hususiyatlari katta ta'sir qilgan. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi tabiat zonalari bo'yicha ixtisoslashib boradi. Shimoliy va janubiy qutbiy o'lkalarda asosan chorvachilik, o'rmon zonasida sut-go'sht chorvachiligi, o'rmon-dasht va dashtlarda dehqonchilik, chala cho'llarda va cho'llarda sug'orma dehqonchilik, cho'llarda chorvachilik, nam yetarli bo'lgan ekvatorial tropik o'lkalarda esa donchilik yaxshi rivojlangan.

Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish

Tabiiy resurslar juda xilma-xil, ularning ahamiyati va o'rni ham xalq, xo'jaligining rivojlanishida turlichadir. Tabiiy resurslarga yuqorida aytganimizdek yer, tuproq, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi, mineral, rekreatsiya resurslari kiradi. Ushbu resurslarning hammasiga ega bo'lgan davlatlar juda ham kam. Jahonda faqat to'rtta davlat, ya'ni AQSh, Xitoy, Rossiya, Kanada barcha tabiiy resurslarga ega. Qolgan davlatlar ma'lum bir resurslarga boy, ma'lum birlari esa ularda umuman yo'q. Masalan, Arab davlatlari neftga boy, ammo ularda o'rmon, suv, tuproq boyliklari kam.

Yer resurslari — bu ma'lum bir davlat, viloyat, joy, mintaqa yoki materiklar xududidagi tabiiy tarixiy hususiyatlari bilan ajralib turadigan, aniq bir xo'jalik maksadlarida muntazam foydalanib kelinayotgan yoki shu maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yerlardir.

Ma'lum bir xududdagi barcha yerlar shu davlatning (viloyatning, tumanning) yer fondi deb ataladi. Yer fondi quyidagi qismlardan iborat: qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar va maxsus maqsadlarda

foydalaniladigan yerlar (sayoxat, transport, sanoat va boshqa maqsadlarda). Ko'p davlatlarda yer fondi uch qismdan iborat: davlat ixtiyoridagi yerlar, turli tashkilotlar ixtiyoridagi yerlar va xususiy yerlar. Ma'lum bir joyning, davlatning yer resurslari tizimining tavsifi ana shu davlatning yer qadastri deb ataladi.

Xalq xo'jaligining, ayniqsa, qishloq xo'jaligining rivojlanishi ko'p jixatdan tuproq resurslariga bog'liqdir.

Tuproq resurslari — bu ma'lum bir joydagi, foydalanish shaklidan qat'iy nazar barcha tuproq qoplamidir. Hosildor tuproqlarga ega bo'lgan davlatlarda yoki xududlarda qishloq xo'jaligini, ayniqsa dehqonchilikni rivojlantirish ancha yengil va kam harajat bilan bo'ladi. Eng hosildor tuproq dasht va o'rmon-dasht zonalarida tarqalgan qora tuproqlardir. Ular tarkibida chirindi miqdori yuqori bo'ladi. Tuproqlarning muhim hususiyati — ularning hosildorligidir.

Tuproqlarning o'simliklarni hosil beradigan darajada suv va moddiy oziqlar bilan ta'minlay olish hususiyatiga hosildorlik deb ataladi. Tuproqning hosildorligi uning fizikaviy, kimyoviy va biologik hossalarga bog'liq. Hosildorlik ikki qismga: tabiiy va iqtisodiy hosildorlikka bo'linadi. Tuproqlarning iqtisodiy hosildorligi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Tuproq hosildorligini agrotexnik va agrokimyoviy chora tadbirlar bilan sun'iy oshirish mumkin, bu esa dehqonchilikni rivojlantirishning asosi bo'lib hisoblanadi.

O'simlik va xayvonot resurslari ham jamiyat rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'simlik va xayvonot resurslari birgalikda biologik resurslarni tashkil qiladi. Biologik resurslar bu — tabiat tarkibidagi inson va jamiyat uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar manbaidir (ovchilik qilinadigan joylar, madaniy o'simliklar, uy xayvonlari, manzarali landshaftlar, organik moddalarni mineral xolatgacha parchalaydigan mikroorganizmlar va h.k.). O'simlik resurslari o'z navbatida o'rmon, o'tloq, yaylov, oziq-ovqat, dorivor, manzarali va boshqa resurslarga bo'linib ketadi. Xayvonot resurslari mo'yna beradigan, teri beradigan, jun beradigan, go'sht beradigan, zahar beradigan, tuxum beradigan xayvonlarga bo'linadi.

Hozirgi paytda tabiatning tez sur'atlar bilan har tomonlama o'zlashtirishi oqibatida juda ko'p o'simlik va xayvonot turlari yo'q bo'lib ketdi, yana bir qanchasi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Shuning uchun ham o'simlik va xayvonot dunyosini qo'riqlash va qayta tiklash maqsadida buyurtmalar, qo'riqxonalar, milliy va xalq bog'lari tashkil qilingan.

Barcha tabiat majmualari tabiiy holda saqlanadigan xudud qo'riqxonalar deb ataladi. Odatda ma'lum bir geografik zona uchun xos bo'lgan xududlar qo'riqlash uchun ajratiladi. Bu xududlar muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak (o'simlik va xayvonot dunyosi, turli xil boyliklar). Qo'riqxonalar odatda ilmiy ishlar olib boriladigan joylar hisoblanadi.

Juda ham xushmanzara xududda joylashgan, inson faoliyati ta'sirida kam o'zgargan yirik kompleks qo'riqxonalar milliy bog'lar deb ataladi. Milliy bog'larda tabiiy resurslardan foydalanish chegaralangan. Bu yerlarda aholining dam olishiga va sayyohlikka ruxsat beriladi. Ayrim milliy bog'larda ilmiy-tekshirish ishlari ham olib boriladi.

Milliy bog'lardan tashqari xalq bog'lari ham bor. Xalq bog'lari — dam olish va sayyohlik uchun foydalaniladigan, ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan, tabiatning inson faoliyati kam ta'sir etgan bir qismi. Xalq bog'larining to'la qo'riqlanadigan qismi tabiiy rezervatlar deb ataladi, bundan tashqari, qisman qo'riqlanadigan va ilmiy ishlar olib boriladigan qismlarga ham bo'linadi.

O'zbekistonda Jizzax xalq bog'i bor. YUNESKO dasturi asosida qo'riqlanadigan joylar biosfera qurixxonasi deb ataladi. Masalan, Chotkol biosfera qo'riqxonasi.

Qishloq xo'jaligi va sanoatning, umuman xalq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirishda suv resurslarining miqdori katta ahamiyatga ega. Foydalanish uchun yaroqli bo'lgan dengiz, daryo, ko'l, yer osti suvlari, tuproqdagi nam, tog' va qutb muzliklari hamda atmosferadagi suvlar barchasi suv resurslari deb ataladi. Sayyoramizdagi suvlarning umumiy hajmi 1460 mln. km³ atrofi-da, ulardan 1370 mln. km³ Dunyo okeani suvlari, 90 mln. km³ quruqlik suvlari, 13 mln. km³ atmosfera suvlaridir. Daryo, tuproq va atmosferadagi suvlar eng harakatchan hisoblanadi. Dunyo okeani, yer osti va muzlik suvlari aksincha kam harakatchan bo'ladi. Xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan suv resurslarining o'lchamlari quyidagilardir: oqimning doimiyliigi, suvning minerallasish darajasi, yo'nalishi va tezligi.

Suv resurslari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: daryo, ko'l, botqoq, muz, doimiy va vaqtincha qorlar, ko'p yillik muzlik yerlar, dunyo okeani suvlari. Suv boyliklaridan foydalanish turli shakllarda (suvdan foydalanish va suv iste'mol qilish) va turli maqsadlarda (turmushda, sanoatda, qishloq xo'jaligida, energetikada, kemachilikda va h.k.larda) sodir bo'ladi. Ma'lum bir paytda yer yuzasiga tushadigan suvlar (yog'in) bilan bug'lanadigan (quruqlik va okean yuzasidan) suvlar (yog'in)

o'rtasidagi farq yerning suv balansi (muvozanati) deb ataladi. Bir yilda yer yuzasiga tushadigan suvlar (yog'inlar) miqdori 1020 mm, bug'lanish 1020 mm (okean yuzasidan 880 mm, quruqlik yuzasidan 140 mm.) - Ma'lum bir mamlakatning suv resurslari haqidagi ma'lumotlar to'plami uning suv qadastri deb ataladi. Bundan tashqari, o'qituvchi quyidagilar to'grisida ma'lumotga ega bo'lishi lozim: suv bilan ta'minlanganlik darajasi, suvdan foydalanish; suv ta'minoti, aylanma suv ta'minoti, suv ombori va h.k.

Har qanday mamlakatning suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ularga bo'lgan talab bilan shu talabni qondirish imkoniyatining bir-biriga muvofiqligidir (foizda yoki birlikda o'lchanadi). Suv resurslaridan foydalanishning tartibi suvdan foydalanish deyiladi va u quyidagi qismlardan iborat:

1) Suv xavzalaridan aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish;

2) Suvni suv xavzalaridan olmasdan, o'zidan o'tkazish asosida foydalanish (GES, tegirmon va h.k.);

3) Tabiatdan foydalanishning umumiy tizimida suv resurslaridan foydalanishning hamma shakllari (Reymers, 1977, 71-6.).

Suv xavzalaridan (tabiiy va sun'iy) yoki suv bilan ta'minlash tizimlaridan suv olish suv iste'moli deb ataladi va ikki turga bo'linadi: suvni qaytarish va qaytarmasdan iste'mol qilish. Iste'molchilarni suv bilan ta'minlash chora ta'dbirlarining yig'indisi (suvni olish, tozalash, tashish, iste'molchiga o'zatish) suv ta'minoti deb ataladi. Suv iste'moli dunyoda kishi boshiga 3—700 l/sut. Ishlatilgan suvlarni yana qaytadan suv bilan ta'minlash tizimlariga tushishi aylanma suv ta'minoti deb ataladi.

Daryo suvlaridan tejab foydalanish, daryo suvlari me'yorini tartibga solish, elektroenergiya olish, kema qatnovini yaxshilash uchun turli xil kattalikda suv omborlari quriladi. Suv omborlari daryolarning o'zanida yoki yer yuzasining botiq joylarida to'g'on qurish yo'li bilan bunyod etiladi.

Suv resurslarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri mineral va shifobaxsh suvlardir. Tarkibida ayrim kimyoviy elementlarning birikmalari va gazlar miqdori yuqori darajada bo'lgan suvlar mineral suvlar deb ataladi. Chuchuk va mineral suvlar orasidagi farq umumiy minerallashish miqdoriga qarab aniqlanadi. Minerallashish miqdori chuchuk suvlarda 1 g/l dan kam, mineral suvlarda 1 g/l dan yuqori bo'ladi, minerallashish miqdori 50 g/l dan yuqori bo'lsa, bunday suvlar qorishma deyiladi.

Yuqori haroratga ega bo'lgan yer osti suvlari termal suvlar deb ataladi. Nisbiy va mutlaktermal suvlar ajratiladi. Nisbiy termal suvlar harorati shu joyning urtacha yillik xavo haroratidan yuqori bo'ladi.

Mutlaq termal suvlarning harorati yer yuzasining eng yuqori o'rtacha yillik haroratidan yuqori bo'ladi ($>+37^{\circ}$).

Demak, suv resurslari faqat boylik bo'lib qolmasdan, balki hayotning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Tabiiy resurslarning ichida jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutadigani mineral resurslardir. Mineral resurslar xalq xo'jaligining deyarli barcha sohalarida ishlatiladi. Shuning uchun ham bu sohaga tegishli tushunchalar talaygina: mineral xom ashyo, mineral boyliklar, foydali qazilma zaxiralari, foydali qazilma konlari, ruda, shaxta, mineral xom ashyo rayoni va h.k.

Litosferaning foydalanish uchun yaroqli bo'lgan moddiy qismiga mineral resurslar deyiladi. Uni ko'p xollarda mineral xom ashyo ham deb ataladi. Iqtisodiy jixatdan ajralib olish qulay bo'lgan darajada minerallar miqdoriga ega bo'lgan rudali, norudali kazilmalar hamda ko'l, dengiz, yer osti va suv osti manbalaridagi tuzlarning tabiiy qorishmalariga mineral xom ashyo deb ataladi. Ular tabiiy resurslarning muhim qismini tashkil qiladi va xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlatiladi hamda sanoat rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy jixatdan qazib olish uchun zarur miqdordagi zaxiraga ega bo'lgan, bitta mineral yoki minerallar agregatidan iborat bo'lgan, yer po'stida foydali qazilmalarning to'planib qolgan joyiga foydali qazilma konlari deyiladi. Ma'lum bir alohida xududdagi va umumiy geologik to'zilishga ega bo'lgan konlar guruhiga xavza yoki rayon deb ataladi (Donetsk, Ko'znetsk, Karaganda, Rur, Appalachi va boshqalar).

Foydali qazilmalar, bu noorganik yoki organik yo'l bilan hosil bo'lgan yer po'stidagi tabiiy mineral birikmalar (hosilalar)dir. Ular xo'jalikni va texnikani ma'lum paytdagi rivojlanish darajasiga qarab tabiiy yoki qayta ishlangan holda xalq xo'jaligida foydalanilishi mumkin. Foydali qazilmalar fizik hossalarga qarab uch guruhga bo'linadi — qattiq, suyuq, gazsimon. Tarkibiga va foydalanish xususiyatlariga qarab quyidagi qismlarga bo'linadi:

1) Yoqilg'i foydali qazilmalari (qaustobiolitlar). Bu guruhga ko'mir, neft, tabiiy gaz, yonuvchi slanetslar, torf kiradi;

2) Metall foydali qazilmalar — Qora, rangli, kamyob, nodir va radioaktiv metall rudalari;

3) Nometall foydali kazilmalar — qurilish xom ashyosi, mineral o'g'itlar va h.k.

Geologik qidiruv ishlari natijasida aniqlangan mineral xom ashyo miqdoriga foydali qazilmalar zaxirasi deb ataladi. Foydali qazilmalar zaxiralari o'rganilish darajasiga qarab turli guruhlariga bo'linadi:

A — foydali qazilma konlari har tomonlama to'la va chukur o'rganilgan, sanoat jixatdan o'zlashtirishi mumkin;

V — foydali qazilma konining asosiy hususiyatlari o'rganilgan;

S — foydali qazilma konlarining asosiy geologik sharoiti umumiy darajada o'rganilgan.

Zaxiralarning guruhlariga bunday bo'linishi sobiq Ittifoq o'rnida tashkil topgan mustaqil davlaglarda qo'llaniladi.

Boshqa davlatlarda zaxirada uch guruhga bo'linadi:

1) Aniqlangan yoki xaqiqiy konlar (sifat va miqdor jixatdan to'la o'rganilgan);

2) To'la aniqlanmagan, extimolli konlar;

3) Taxminiy (bashorat) konlar.

Zaxiralarning hamma turlari yig'indisi umumiy yoki geologik zaxira deb ataladi. Bundan tashqari, yana potentsial (bashorat qilinayotgan) zaxiralar tushunchasi ham bor. Bu zaxiralar iqtisodiy sharoitning o'zgarishi natijasida kelajakda o'zlashtirishi mumkin.

Xo'jalikda tog'-kon sanoati va u bilan bog'liq bo'lgan qayta ishlash sanoati yetakchi o'rin tutadigan rayon mineral xom ashyo rayoni deb ataladi.

Foydali qazilma konlarining geografik tarqalishi o'ziga xos hususiyatlarga ega. Platformalashgan qalqonlarida qimmatbaho metalli foydali qazilmalar keng tarqalgan (Avstraliya, Osiyo, Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Afrika). Platformalarning botiqlarida yoqilg'i foydali qazilmalari keng tarqalgan.

Mineral xom ashyolarni qazib olish jarayonida tabiatning hamma tarkibiy qismlari u yoki bu darajada o'zgaradi. Yangi tog'-kon sanoati landshaftlari hosil bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda tog'-kon sanoati landshaftlarining asosiy qismini nokerak jinslar tashkil qiladi. Chunki rudaning tarkibidagi foydali elementlar miqdori turlicha bo'ladi. Tarkibida texnikaning hozirgi rivojlanish darajasida ajratib olish iqtisodiy jixatdan samara beradigan miqdorda foydali komponentlari bo'lgan tog' jinslari yoki mineral agregatlari ruda deb ataladi. Masalan, oltin, mis, molibden, volfram, platina, temir, qalay, polimetall, qo'rg'oshin-rux, kumush, titan

rudalari. Bu rudalarning tarkibida foydali elementlar miqdori turlicha bo'ladi.

Juda ko'p metallarning rudadagi miqdori kam bo'ladi. 1 t. mis olish uchun 100 t. ruda, 1 t. qalayi olish uchun esa 300 t.dan ortiq ruda kerak bo'ladi.

Hozirgi paytda tugaydigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslarning tobora kamayib borishi munosabati bilan noan'anaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini izlab topish bo'yicha ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ba'zi noan'anaviy resurslardan foydalanishda katta yutuqlarga erishilgan (AQSH, Islandiya, Fransiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Italiya).

Noan'anaviy tabiiy resurslarga Quyosh energiyasi, shamol kuchi, qalqish, oqim kuchi, yerning ichki issiqligi (geotermal) va boshqalar kiradi.

Hudud omili: hudud jamiyat faoliyatini amalga oshiradigan muhitning muhim omillaridan biridir. Hudud qanchalik katta bo'lsa tabiiy geografik imkoniyatlar oshib boradi.

Geografik o'rin omili: umumiy tarzda geografik o'rin biron bir joy, shahar, mamlakat, region va undan tashqari joylashganligini bildiradi, hamda qandaydir iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Taransport omili: fan – texnika inqilobi davrigacha ushbu omil ishlab chiqarishini tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. SHuning uchun FTI davrida ham transport vositalarini takomillashtirishga ahamiyat qaratildi. Bu esa o'z navbatida yo'lovchi va yuk tashishda qulayliklar yaratdi.

Fan talab omil: FTI davrida sanoat tarmoqlarining zamonaviy elektrotexnika, robotsozlik, kibernetika kabi tarmoqlari ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unlashgan va taraqqiy etgan sharoitdagina mavjud bo'ladi va rivojlanadi.

Mehnat resursi omili: ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirishda mehnat resurslariga tayaniladi. CHunki, mehnat resurslari asosiy ishlab chiqarish sub'ekti hisoblanadi. Mehnat resurslarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari inobatga olinadi.

Iste'mol bozori: ishlab chiqarilgan mahsulotlar talabni hisobga olgan holda yaratilishi va bunda iste'mol bozori hisobga olinishi kerak.

Davlatning ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlari. Mustaqillik davrida respublikamiz xo'jaligida iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda.

Ekologik omil: xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish jarayonida inson va jamiyat aloqalari yanada kuchayib boradi: tabiiy boyliklar ishlab chiqarish xom – ashyosi sifatida foydalaniladi. Xo'jalik chiqindilari esa tabiat bag'riga qaytarib tashlanadi, natijada tabiiy landshaftlar o'rnini antropogen landshaftlar egallab boradi. Rio–de–Janeyro anjumanida bu mavzuga alohida to'xtalib: "Tabiatdan inson ehtiyojlari uchun zarur bo'lgandagina foydalanish kerak" deb taqidlangan.

Tayanch tushunchalar: Tabiiy sharoit, tabiiy resurs, geografik muhit, tabiat, ixtisoslanish, rel'ef, yer fondi, hosildorlik, buyurtma, quriqxon, milliy bog', tabiiy rezervatlar, YUNESKO quriqxonasi, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar.

SAVOLLAR

1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar haqida tushuncha bering?
2. Geografik muhit deganda nimani tushunasiz?
3. Tabiiy resurslar kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Tabiiy sharoit qanday sohalarga ta'sir kursatadi?
5. Qishloq xo'jaligi qay tartibda ixtisoslashadi va u yerlarda qanday maxsulotlar yetkazib beriladi?
6. Qanday resurslar tabiiy resurslar sanaladi?
7. Jahonda qaysi materiklarda tabiiy resrslarning barchasi mavjud?
8. Yer fondi- nima? U davlatlarda qanday qismdan iborat?
9. O'simlik va xayvonot olamini saqlab qolish va qayta tiklash maqsadida qanday ishlar qilinmoqda?
10. Mineral xom ashyo rayoni-nima...?

ADABIYOTLAR:

X.Vaxobov, M. Tillaboeva «iqtisodiyot geografiya asoslari» Toshkent. «O'qituvchi» 2001 yil

Asanov G. Nabixonov M, Safarov I «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» Toshkent. 1994 yil

A.S.Soliev «Iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ro'zalar matni

Ro'ziev A «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari» Toshkent. 1990 yil

Mavzu: ISHLAB CHIQARISHNING IJTIMOIIY TASHKIL ETISH SHAKLLARI.

REJA:

- 1. Umumiy ta'rif*
- 2. Mujassamlashuv shakli*
- 3. Ixtisoslashuv*
- 4. Kooperatsiya*
- 5. Kombinatsiya*

Ishlab chiqarishni tashkil qilishining barcha shakllari mujassamlashuv (kontsentratsiya) ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va xududiy tomonlarga ega. Albatta iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun ishlab chiqarishni xududiy tomoni yetakchi rol o'ynaydi. Shunga qaramasdan bu nuqtlarni bir — birlari bilan bog'liq bo'lgan holda o'rganish taxlil qilish biridan ikkinchisiga o'ta bilish geografik fikrlashning muhim hususiyatidir.

Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishni to'planishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga tegishlidir. Ammo geografik jihatdan u eng avvalo sanoat, qishloq xo'jaligi va transport ya'ni moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa iqtisodiy geografiya fanining ob'ektini aynan shu tarmoqlarning xududiy tashqi ta'siri ularning joylashish hususiyatlarini belgilab beradi. Chunonchi sanoat uchun «nuqta» yoki tugun ko'rinishidagi xududiy tashkil etish, qishloq xo'jaligiga areal yoki mintaqaviy (zonal) transport uchun esa lentasimon yoki chizik shaklidagi joylashuv xosdir. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ma'lum darajada xuddi ana shu nuqtalar — sanoat markazlari va tugunlari areal va zonalar tomonlarini o'rganadi. Ularning joylashuvi, aloqasi va xududiy tashkil etilishi esa yuqoridagi tarmoqlar joylashuvi bilan belgilanadi. Masalan aholi va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning xududiy tizimlari sanoat, qishloq xo'jaligi va transport geografiyasi asosida amalga oshiriladi.

Mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq va sezilarli ko'rinadi. Bu borada ishlab chiqarish fondi, yalpi maxsulot yoki ishchi va xizmatchilarni turli yiriklikdagi korxonalarda yigilishi to'planishi sof holdagi ishlab chiqarish yoki korxona mujassamlashuvi ularning shaharlar va rayonlar joylashuvini esa urbanistik va xududiy mujassamlashuv sifatida ko'rsatish o'rinli.

Mujassamlashuvning bu shakllari bir —biriga o'tib turadi va turli rayon yoki mamlakatlarga har xil birikma bo'ladi. Chunonchi shaharning markazlashuv darajasi ma'lum bir bosqichi yetgandan keyin o'ziga xos vaziyat vujudga keladi ya'ni endi mazkur shaharda quo'himcha korxonalarni ko'rish imkoniyati qolmaydi. Ekologik uy — joy transport muammolari keskinlashadi ko'rish uchun yer maydoni ham yetishmaydi va ayni paytda yangi korxona bu markazdan olisda joylashuvni ham «istamaydi». Demak yirik shaharda ham emas undan o'zoqda ham emas shaharning ichki imkoniyati yo'q korxona esa undan yiroqlasha olmaydi. Natijada yangi korxona yoki ilmiy tekshirish muassasalari oliy uquv yurtlari yirik shaharning ta'sir doirasida o'rnashadi — shahar aglomeratsiyasi yoki sanoat tuguni vujudga keladi. Yuqorida keltirilgan muloxazalarga misol qilib Toshkent atrofida joylashgan go'sht kombinati (Urtaovul shaharchasi) ToshGRES Toshkent qishloq xo'jaligi universiteti (Yalangoch manzilgoxi) yadro fizikasi instituti (Ulug'bek shaharchagi) alkogolsiz ichimliklar kombinati (Kibray) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Toshkent aholisi extiyoji va xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bu korxonalarning poytaxtda qurishning iloji yo'q, lekin ular iste'molchi sanoat ilm —fan markaziga yaqin bo'lmog'i lozim. Bundan yana bir xulosa ya'ni ishlab chiqarish mujassamlashuvi bilan shahar rivojlanishi o'rtasidagi munosabat kelib chiqadi. Dastlab shaharning vujudga kelishi va ulg'ayishida ishlab chiqarishni joylashtirish (mujassamlashuv) yetakchi rol o'ynaydi keyinchalik esa shaharning o'zi ishlab chiqarishning xududiy tashkil etish omiliga aylanadi

Endi turli shakldagi mujassamlashuvga misol keltiraylik. Masalan O'zbekiston sanoat maxsulotining yarmidan ko'pini har birida 2000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar ishlab chiqaradi deb faraz qilaylik. Bu ishlab chiqarish yoki korxona darajasidagi mujassamlashuvdir. Toshkent shaxrida mavjud korxonalar O'zbekiston Respublikasi sanoat maxsulotining taxminan 20 foizini beradi —bu urbanistik mujassamlashuv bo'ladi. Agar Farg'ona vodiysini respublikamizning asosiy pilla yoki meva maskani neft maxsulotlar yoki o'simlik moyi chiqaruvchi rayoni sifatida ko'rsak u holda xududiy mujassamlashuvni nazarda tutgan bo'lamiz.

Mujassamlashuvning yuqori yoki pastligi ayni paytda ma'lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu yerda «umumiy maxraj» bo'lib shahar, viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi xissasi xizmat qiladi. Aytaylik Farg'ona vodiysida O'zbekiston respublikasi aholisining 27 foizi joylashgan. Agar u yoki bu ishlab chiqarish ko'rsatkichi shu raqamdan qancha yuqori bo'lsa u holda mazkur ishlab

chiqarish tarmog'i vodiya rivojlangan mujassamlashgan bo'ladi. Korxona, urbanistik va xududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda turlicha birikma hosil qiladi. Nisbatan past darajadagi urbanistik mujassamlashuvda korxona yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lishi ham mumkin Bunga kichiqroq shaharda masalan Xivada katta gilam- kombinatining joylashuvi misol bo'la oladi. Xuddi shunday past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori ko'rsatkichdagi xududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur xududda juda ko'p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo'ladi. Xuddi shu vaziyatii respublikaning ko'pgina viloyatlaridagi (Andijon, Buxoro, Farg'ona Qashqadaryo, Namangan, Xorazm va h.k.) to'qimachilik korxonalarining tarqoq filiallar asosida joylashganligida uchratamiz. Shu bilan birga past darajadagi xududiy mujassamlashuvi yuqori urbanistik ko'rsatkich bilan ham uyg'unlashgan holda keladi. Masalan bir vaqtlar Fransiya deganda avvalo uning poytaxti Parij, Vengriya ramzida esa Budapesht tushunilar edi. Hozir ham qo'shni Qirg'iziston Respublikasida ishlab chiqariladigan yalpi maxsulotning talaygina qismini uning poytaxti Bishkek beradi. Shunday qilib yuqori darajadagi mujassamlashuv ayniqsa o'ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy — iqtisodiy jixatdan samarali emas. Bunday xollarda tayyor maxsulotni transportda tashish harajatlari ko'payadi ishchi kuchi yetishmaydi va eng muhimi — ekologik muvozanat buziladi. Xo'sh qaysi darajadagi mujassamlashuv ma'qul degan savol tug'iladi. Axir ayni bir xajmdagi maxsulotni turli xil birlikdagi korxona shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin — ku!. Bu yerda ham bir tomonlamalik qat'iylik zararli va xatarlidir deb o'ylaymiz; Binobarin turli xil yiriklikdagi korxonalar, shaharlar bo'lgani maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Demak mujassamlashuv ob'ektiv qonuniyat biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsada uning ma'lum chegarasi ko'lami doirasi bo'lishi shart.

Mamlakatning birgina aksariyat xollarda poytaxt shahar asosida rivojlanishini Lotin Amerikasi davlatlarining yaqin o'tmishdagi taraqqiyoti yoki hozirgi Afrika mamlakatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar o'z ijtimoiy — iqtisodiy borlig'ini ularning eng yirik markazi bo'lgan poytaxt shahrida mujassamlashtiradi. Bunday xollarda ishlab chiqarishning bir tomonlama yoki nomutanosib xududiy tarkibi o'ta markazlashgan mujassamlashuvni bildiradi.

Respublikada ham faqat Toshkent yoki Toshkent viloyatini rivojlantirib qolgan mintaqalarni o'z xolicha qoldiraverish ham yaramaydi albatta. Shu bois Qoraqalpogiston Respublikasi Xorazm Surxondaryo Jizzax kabi viloyatlar ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish mustaqil davlatning ilmiy asosida ishlab chiqariladigan mintaqaviy siyosatida o'z aksini topmog'i lozim. Markazlashuv mujassamlashuvning bir ko'rinishidir. Bu yerda ishlab chiqarish korxonalari yoki boshqa tashkilotlar va sohalarni asosan birgina shaharda joylashuvi tushuniladi. Ayni paytda mamlakat yoki xo'jalik boshqaruvining bunday tizimi yakka xokimlik — monopoliyaga olib kelishi turgan gap, bu esa maqsadga nomuvofiqdir.

Yuqoridagi ma'noda mujassamlashuv tushunchasi hamma vaqt markaz tushunchasini ifodalaydi. Shubxasizki, bu markaz balandroq turishi ko'zga yaqqol va darxol tashlanishi lozim. Ammo, «markaz» deganda shaharlarni umuman sanoat yoki madaniyat markazi sifatida qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. Qolaversa, hamma shaharlar ham sanoat, madaniyat markazidir. Shuning uchun shaharning aynan qaysi sanoat tarmog'i markazi ekanligini aniqlash ma'qulroq hisoblanadi. Chunonchi, Angren umuman sanoat markazi emas, balki ko'mir sanoat markazi, Marg'ilon yoki Namangan esa tukimachilik, Asaka xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bunyod etilayotgan mashinasozlik sanoatining markazlari ekanligini ko'rsatish to'g'riroq bo'ladi.

Ixtisoslashuv ham ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, u mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarni tarkib topishi bilan chambarchas bog'liq. Uning uch bosqichi va uch turi mavjud. Ixtisoslashuvning uch bosqichi deganda korxona, shahar yoki rayon miqyosidagi ixtisoslashuvi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ularning har biriga xududiy yoki ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir maxsulotning ishlab chiqarilishi biriktiriladi. O'z navbatida, ixtisoslashuv shu korxona (u jamoa xo'jaligi bo'lishi ham mumkin), shahar rayonlarning «qiyofasini», ularning mehnat taqsimotida tutgan o'rnini belgilab beradi.

Ixtisoslashuvning uch turi —bu qism (detal), texnologik yoki yarim maxsulot (polufabrikat) va predmet (tayyor maxsulot ishlab chiqarish ixtisoslaiguvidir ixtisoslashuvning bunday ko'rinishlari bir —biri bilan uzviy bog'liq va ular turli xududiy bosqichda o'zgacha hususiyatga ega.

Ixtisoslashuv oqibatida xalq xo'jaligining tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional turlari shakllanadi. Shu bilan birga u tashkil transport iqtisodiy aloqalarini taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va maxalliy iste'moldan ortib qolgan maxsulot chetga

chiqariladi va mazkur rayonda yetishmaydigan maxsulot esa boshqa joylardan keltiriladi, ixtisoslashuvni aniqlash uchun bir necha shart va sharoitlar zurrur. Muhimi — maxsulot faqat shu joy talabini qondiribgina qolmay, balki ortiqchasi-boshqa rayonlarga —bozorga chiqarilishi yoki tovar hususiyatiga ega bo'lishi kerak. Masalan: respublikamiz paxta tolasi, pilla, tog' —kon sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Uni ip yoki ipak gazlamasi, un neft sanoatiga ixtisoslashgan deyish bir oz mushko'lrok, sababi — bu maxsulotlar O'zbekistonda Hozircha yetarlicha ishlab chiqarilmaydi va ular maxalliy talabni tula kondira olmaydi.

Ixtisoslashuv, albatta faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabxalarga ham molik hususiyatidir. Qolaversa, ayrim oliygoxlar uqituvchi, boshqalari — agronom, muxandis tabobatchi kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Chunki bu oliygoxlar aynan ana shunday xodimlarni tayyorlashga ixgisoslashgan. Ixtisoslashuvning ham mujassamlashuv kabi o'zining chegarasi bo'lishi lozim, o'ta tor ixtisoslashuv bir tomonlamalikka (ijtimoiy xayotda tor fikrlashga) yo'l harajatlarining ko'payishiga olib keladi. Ulkan korxonalarni ko'rish qanday zararli bo'lsa, xaddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkaxokimlik ham shuncha xatarlidir. Afsuski, yaqin o'tmishda mamlakatimiz qudrati, uning rivojlanganlik darajasi shu «yirik», «eng katta», «yagona» kabi tushunchalar bilan ifodalanar, «birinchi» bo'lishi esa ko'p xollarda qolgan barcha sohalarda qoloqlikni anglatar edi. Ammo bu muloxazalardan notug'ri xulosa chiqarish ham kerak emas, chunki ixtisoslashuvsiz shahar, tuman, viloyat iqtisodiy rayonlarning, kolaversa, jamiyat va kishilarning o'zini ham rivojlanganligini tasavvur kilish qiyin. Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoqlar bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkilamchi sohalar ham xech bo'lmaganda maxalliy ehtiyoj doirasida rivojlangan bo'lishi lozim. Bu yerda ixtisoslashgan tarmoqni daraxtning tanasiga daryoga, ko'shimcha tarmoqlarni esa daraxtning shox va shoxchalariga, daryolarning irmoklariga o'xshatish o'rinli. O'z —o'zidan ma'lumki, tanasiz shox ham bo'lmaydi, shoxsiz daraxt esa —bu oddiy butadir, irmoqsiz daryo ham barkamol daryo tizimini shakllantirmaydi. Demak, ixtisoslashuv kompleks, har tomonlama rivojlanish bilan uygunlashuvi kerak. Zero, ixtisoslashuvda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatini hozirgi kunda sezib turibmiz. Bu kamchiliklar ayniqsa, sobiq Ittifoqdosh respublikalarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini bo'zilishida o'z aksini topmoqda. Shu sababli e'tibor ko'proq har bir respublikaning mumkin qadar atroflicha rivojlanishiga qaratilmoqda. Albatta, bunday taraqqiyot

respublikani jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan farq kildiruvchi, uning o'rnini belgilab beruvchi ixtisoslashgan tarmoqlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Kooperatsiya pirovard natijada muayyan bir maxsulot yaratish uchun turli korxonalarning hamkorligidir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga kooperatsiyada xududiy birlik barcha ixtisoslashgan korxonalarning bir joyda o'rinlashuvi uncha sezilmaydi va aksincha, ularning tarqoq holda joylashuvi ko'zatiladi. Kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan maxsulotning murakkabligiga bog'liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog'i yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko'p extiyot qismlar, detallar kerak. Shu bois bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonaharning ulushi bor. Masalan, Moskvada yengil avtomobil yoki Lixachev nomli zavod, Tolyattidagi Volga avtomobil zavodi (Jiguli) va shunga o'xshash birlashmalar 200 va undan ortiq, korxonalar bilan hamkorlik qiladi. Madomiki asosiy yakunlovchi yoki yig'uvchi bosh korxona ko'p joydan asbob — uskunalar detall va jixozlar olar ekan u transport geografik jixatdan ko'lay nuqtada o'rinlashuvi zarur.

Kombinatsiya kombinatlash kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu yerda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning xududiy umumiyliги tushuniladi. Shu sababli kombinatsiyada kooperatsiyadan farqli o'laroq ko'proq xududiylik namoyon bo'ladi. Bu ikki yuzaki qaraganda bir —biriga o'xshash tushuncha o'rtasida boshqa farqlar ham bor. Xullas, bu shaklni kaerda «kombinat» so'zini uchrasak uni usha sohada ko'rasiz, xatto aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy xizmat kombinatlari).

Sanoatda kombinatlar bir necha texnologik jixatdan bog'liq bo'lgan zavod yoki sexlardan tashkil topgan bo'ladi. Chunonchi qora metallurgiya kombinatlari aniqrog'i to'la siklli kombinatlar cho'yan po'lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo'lmasa u holda kombinat to'liq siklga ega emas (Bekobodagi O'zbek metallurgiya kombinati xuddi shunday korxonalar dandir) To'qimachilik kombinatlari yigiruv bo'yoqlash, tayorlash sexlaridan iborat xom ashyo bitta —paxta tolasi yoki pilla maxsuloti. Go'sht kombinatida ham yagona xom ashyo asosida bir necha maxsulot go'sht konserva, kolbasa kabi boshqa maxsulotlar olinadi. Uning chiqindisidan masalan, suyak va qondan qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlagandan so'ng charm - poyafzal sanoatida ishlatiladi. O'rmon,

sement —shifer kimyo kombinatlarining tuzilishi ham xuddi shunday. Qolaversa markazlashgan issiqlik elektr stantsiyalari ham kombinat hususiyatiga ega chunki ular ayni paytda elektr energiyasi va par (bug') beradi.

Shunday qilib kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko'pchiligiga xosdir. Faqat mashinasozlikda «kombinat» so'zini uchratmaymiz, ammo moxiyatan bu yerda ham u mavjud zotan metallardan asosiy maxsulot bilan bir qatorda xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdagi Chkalov nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba'zi bir ehtiyot qismlar, bolalar aravachasi va shunga o'xshash turli xil xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqaradi. Umuman olganda ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari o'zaro bog'liq. Chunonchi, ixtisoslashgan korxonalar yoki kooperatsiya va kombinatsiya doirasidagi ishlab chiqarish buginlari ham u yoki bu ko'rinishda mujassamlashuvni anglatadi. Biroq bu yerda ularning bir joyda to'planganligi, yig'ilganlik darajasi boshqa joylarga nisbatan yuqori bo'lishi lozim, aks holda tom ma'noda mujassamlashuv bo'lmaydi.

Mujassamlashuv yoki ixtisoslashuv ayni paytda shu sohaning rivojlanganligidan dalolat beradi. Ammo bu rivojlanganlik mujassamlashuvda korxona yoki tashkilotning kattaligi, ko'lami bilan o'lchansa ixtisoslashuvda esa u o'z ifodasining yagonaligi, noyobligi va betakrorligida topadi.

Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini ham «pastdan» ham «yuqoridan» ko'rish lozim. Binobarin, xorijiy davlatlar sarmoyalari orqali yoki ular bilan hamkorlikda barpo etilayotgan sanoat korxonalari uchun ularga zarur bo'lgan texnologik qismlar, detal va dastgoxlarni o'zimizda tayyorlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zamon talabidir. Shu bilan birga mavjud imkoniyat va resurslardan to'la foydalangan xolda mamlakatimiz xududida ko'proq tayyor maxsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish va jahon bozorida faol ishtirok etishiga katta ahamiyat berish lozim.

Tayanch tushunchalar: Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, mehnat taqsimoti, mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatsiya.

SAVOLLAR:

1. Ishlab chiqarishni tashkil etishni qanday shakllari bor?
2. Mujassamlashuv nima?

3. Mujassamlashuvni qaysi sohalarda ko'rishimiz mumkin?
4. Ixtisoslashuv haqida ma'lumot bering.
5. Ixtisoslashuvning qanday turlari mavjud.
6. Ishlab chiqarishni tashkil etishning kooperativ shakli deganda nimani tushunasiz?
7. Qaysi sohalardagi kooperatsiya yaxshi samara beradi?
8. Kombinatsiya haqida umumiy ma'lumot.
9. Kombinatsiya qanday sanoat tarmoqlariga xos? Misollar keltiring.
10. Geografik mehnat taqsimoti nima?

ADABIYOTLAR

1. K.Vaxobov, M.Tillaboeva. «Iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent, 2001 y.
2. A.S.Soliyev. «Iqtisodiy geografiya asoslari» Ma'ruzalar matni.
3. A.S.Soliyev. «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari». Toshkent, 1995 y.
4. G.Assonov, M.Nabixonov, I.Safarov. «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi». Toshkent, 1994 y.
5. A.Soliev, R.Muhammadaliyev. «Iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent, «O'zbekiston» - 1995 y.

Mavzu: XO'JALIK GEOGRAFIYASI

REJA:

1. *Asosiy tushunchalar*
2. *Mehnatning geografik taqsimoti*
3. *Ilmiy texnika inqilobi va xo'jalikning rivojlanishi*

Umumiy tushunchalar

Barcha moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari xalq xo'jaligini tashkil qiladi. Iqtisodiy geografiyada jahon xo'jaligi, xalq xo'jaligi va xo'jalik tushunchalari mavjud.

Jahondagi barcha milliy xo'jaliklar yig'indisi jahon xo'jaligi deb ataladi. Xalq xo'jaligi tushunchasi ayrim mamlakatlarning, xo'jalik tushunchasi esa mamlakat doirasidagi iqtisodiy rayonlar va ma'muriy

birliklar iqtisodiy geografiyasini o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, Jahon xo'jaligi geografiyasi, O'zbekiston xalq xo'jaligi geografiyasi, Farg'ona iqtisodiy rayoni xo'jaligi va h.k.

Jahondagi barcha milliy xo'jaliklar bir-biri bilan iqtisodiy aloqalar tufayli uzviy bog'langan. Ushbu iqtisodiy aloqalar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: savdo, qarz (kredit) berish, iqtisodiy bitimlar tuzish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tuzish, iqtisodiy va texnik ma'lumotlar va mutaxassislar bilan almashinish va h.k.

Jahon xo'jaligining tarkibiy qismlari ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish darajasiga, ijtimoiy iqtisodiy formatsiya turiga, aloxida mamlakat yoki mamlakatlar guruhidagi ishlab chiqarish munosabatlari-ning turiga bog'liq.

Jahon xo'jaligi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yirik mashina industriyasi, transporti va xalqaro savdo rivojlanishi bilan tashkil topdi. Jahon xo'jaligining tashkil topishi jahon bozorining vujudga kelishi bilan bog'liq.

Jahon bozori yer yuzasidagi barcha davlatlar milliy bozorlarining yig'indisidir. Tor ma'noda jahon bozori

Bu — xalqaro mehnat taksimoti va ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishning rivojlanishi asosida vujudga kelgan muayyan davlatlar orasidagi savdo aloqalaridir.

XV—XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar jahon bozorining tashkil topishida asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Demak, jahon xo'jaligi deganda mehnatni xalqaro-geografik taqsimlanishiga asoslangan, bir-biri bilan xalqaro iqtisodiy aloqalar tufayli bog'langan, jahondagi barcha davlatlarning milliy xo'jaliklari yig'iidisi tushuniladi.

Yuqorida aytganimizdek, har qanday xo'jalik moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari yig'indisidan iboratdir.

Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan barcha ishlab chiqarish tarmoqlari kiradi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida moddiy farovonlik uchun zarur bo'lgan maxsulotlar va energiya ishlab chiqariladi. Ushbu sohaga yuk tashish, maxsulotlarni saqlash, saralash va shunga o'xshagan tarmoqlar, shuningdek zavodlar, fabrikalar, qishloq xo'jaligi korxonalari, transport korxonalari va boshqa korxonalar kiradi.

Moddiy boyliklar ishlab chiqarmaydigan soha nomoddiy ishlab chiqarish sohasi deb ataladi. Ushbu sohaga quyidagilar kiradi: aloqa, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash tashkilotlari.

Moddiy va nomoddiy sohalar o'z navbatida ayrim tarmoqlarga bo'linib ketadi.

Tarmoqlar ishlab chiqarish maqsadlari va texnologik jarayoni nisbatan bir xil bo'lgan va yaxlit boshqariladigan korxonalar guruhidir. Bundan tashqari, iqtisodiy geografiyada xalq xo'jaligi tarmog'i degan tushuncha ham bor.

Xalq xo'jaligi tarmog'i deganda bir xil maxsulot ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarish jarayonlari o'xshash (yoki dastlabki xom ashyosi bir xil) bo'lgan barcha korxonalar yoki korxonalar guruhi tushuniladi. Korxona bu ma'lum bir maxsulot ishlab chiqaradigan va uni almashtiradigan iqtisodiy-geografik va iqtisodiy ob'ektdir. Ular joylashishiga ko'ra nuqtaviy (zavod va fabrikalar), chiziqli (transport korxonalari), maydonli (qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalari) bo'ladi. Korxona tushunchasi ko'proq moddiy ishlab chiqarish sohalarida, tashkilot tushunchasi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida qo'llaniladi. Masalan, qora metallurgiya korxonalari, sog'liqni saqlash tashkilotlari va h.k.

Tarmoqlarda ma'lum bir korxonalar kombinatlarga, firmalarga va ishlab chiqarish birlashmalariga birlashtiriladi.

Kombinat — bu texnologik jarayoni va boshqarilishi bir xil bo'lgan hamda bir-biriga yaqin joylashgan korxonalar yig'indisidir. Masalan, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati, Toshkent to'qimachilik kombinati va h.k.

Firma — bu yaxlit boshqariladigan korxonalar yig'indisi. Dastlab firmalar sanoatda (keyinchalik ular ishlab chiqarish firmalari deb atala boshlandi), keyinchalik savdo sohasida ham tashkil qilina boshlandi. Masalan, Toshkentdagi «Yulduz» firmasi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, «Al-Mashriq» savdo firmasi va h.k.

A.Ye. Probst 1962 yili ishlab chiqarishni tashkil etishning to'rt shaklini ajratdi: markazlashish, ixtisoslashish, kooperativlashish va kombinatlashtirish.

Ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planishi uning markazlashuvi deyiladi.

Ishlab chiqarishning markazlashuvi natijasida zamonaviy texnikadan to'laroq foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Juda ko'p mayda korxonalarni qurgandan ko'ra bitta yirik korxonani qurish uchun mablag' kamroq sarflanadi.

Korxonalarni bir xil maxsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi yoki ixtisoslashgan korxonalar deb ataladi.

Ilgari har xil maxsulotlar (stanok, vagon, mashina) ishlab chiqaradigan korxonalar keng tarqalgan edi. Hozir bir xil maxsulot ishlab chiqaradigan, ya'ni faqat stanok, faqat avtomobil yoki traktor ishlab chiqaradigan korxonalar keng tarqalgan. Masalan, Asaka avtomobil zavodi, Andijon irrigatsiya mashinasozligi zavodi, Toshkent to'qimachilik mashinasozligi zavodi, Toshkent traktor zavodi va h.k.

Ixtisoslashgan korxona o'ziga xom-ashyo, detallar, mashina qismlari va boshqalarni yetkazib beradigan boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish aloqalari o'rnatadi.

Ishlab chiqarishning tayyor maxsulot tayyorlashda bir qancha korxona qatnashadigan tashkiliy shakli kooperativlashuv deb ataladi.

Kombinatlashtirish sanoatning texnologik jarayon jixatidan o'zaro bog'langan, ba'zan turli tarmoqlarga ta'luqli bo'lgan bir qancha ishlab chiqarish korxonalarining bir korxonaga birlashtirilishidir.

Sanoatning rivojlanishi yangi (avtomobilsozlik, samolyotsozlik, asbob-uskunasozlik) va eng yangi (elektronika, atom, mikrobiologiya) tarmoqlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu jarayon davomida tarmoqlar o'rtasidagi aloqalar kengayadi va o'zaro bog'langan hamda tarmoqlararo majmualar paydo bo'ldi. Masalan, agrosanoat majmuasi.

Demak, xalq xo'jaligi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalaridan iborat ekan.

Umuman olganda, xalq xo'jaligi uchta tarkibiy qismdan iborat: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport (va iqtisodiy aloqalar). Ushbu tarkibiy qismlarning to'zilishi va o'ziga xos xususiyatlarini tegishli bo'limlarda ko'rib chiqamiz.

Mehnatning geografik taqsimoti

Geografik (xududiy) mehnat taqsimoti xo'jalik rivojlanishida va ixtisoslashuvida muhim o'rin tutadi.

Turli mamlakatlar va rayonlar tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari mehnatning xududiy taqsimotidagi asosiy qo'laylik bo'lib hisoblanadi. Ushbu qulaylikdan foydalanish ishlab chiqarishning ijtimoiy sharoitiga bog'liq. Dastlab ibtidoiy jamoa rivojlanishining ilk bosqichlarida mehnatning eng oddiy, ya'ni tabiiy taqsimoti shakllangan. Mehnat taqsimotining ushbu shakli asosan ayollar bilan erkaklar, yoshlar, kattalar va qariyalar o'rtasida bo'lgan. Ayollar, erkaklar, yoshlar, kattalar, qariyalar ma'lum mehnat turi bilan shug'ullanishgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan oddiy yoki tabiiy mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotiga aylangan. Ijtimoiy mehnat taqsimotiga jamiyatning ichidagi mehnat taqsimoti, tarmoqlar orasidagi, korxonalar o'rtasidagi, korxona ichidagi va korxonadagi ayrim ishchilar orasidagi mehnat taqsimoti kiradi.

Mehnatni ijtimoiy taqsimlanishining asosiy tarkibiy qismi bu mehnatning geografik (xududiy) taqsimotidir.

Mehnatning geografik taqsimoti, bu ijtimoiy mehnat taqsimotining xududiy shaklidir, ya'ni mamlakat miqyosidagi rayonlar (ichki davlat) va turli mamlakatlar (xalqaro) orasidagi mehnat taqsimotidir. Bunda mamlakatlar va rayonlar ma'lum bir maxsulotni ishlab chiqarishga, uni ayirboshlashga ixtisoslashadi. Ishlab chiqarilgan maxsulotning rayonlar va davlatlar o'rtasida taqsimlanishi mehnatni xududiy taqsimlanishining asosi bo'ladi. Mehnatning xududiy taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining asosiy tushunchalaridan biridir.

Xududiy mehnat taqsimotining ancha takomilashgan shakllari kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan ayrim mamlakatlar va rayonlar doirasida yuz bera boshlagan. Ishlab chiqarishning mashinalashuvi mehnatning xududiy taqsimotini chuqurlashtirib yubordi. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin yangi yerlar ochilib, mustamlakalarning vujudga kelishi mehnat taqsimotining xududiy chegaralarini kengaytirib yubordi, natijada milliy xo'jaliklar u yoki bu darajada xalqaro bozor bilan bog'lik bo'lib qoldi.

Demak, mehnatning geografik taqsimoti deganda ayrim xududlarni ma'lum bir maxsulotlarni ishlab chiqarishga va ularni ayirboshlashga hamda ma'lum bir xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashuvi tushuniladi.

Geografik mehnat taqsimotining eng yuqori shakli bu xalqaro mehnat taqsimotidir.

Xalqaro mehnat taqsimoti ayrim mamlakatlarni muayyan maxsulot turlarini ishlab chiqarishida, muayyan xizmatlarni bajarishga ixtisoslashuvida va ularni ayirboshlashida namoyon bo'ladi.

Har qanday davlatning xo'jalik qiyofasini uning xalqaro ixtisoslashgan sohasi belgilab beradi.

Har qanday davlatda xalqaro ixtisoslashgan soha bo'lishi uchun quyidagi sharoitlar bo'lishi shart:

— mazkur mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan alohida ma'lum bir tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak;

— mazkur mamlakat ishlab chiqargan maxsulotga haridor bo'lishi kerak;

— maxsulotni xalqaro bozorga olib chiqish uchun ketgan transport harajatlari kam bo'lishi kerak.

Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi davrlarda uning ba'zi bir elementlari bo'lgan. Qadimgi Rim imperiyasi, Karfagen va Arab xalifaliklari orasida keng maxsulot ayirboshlash bo'lgan. Eramizgacha II asrdan, eramizning XV—XVI asrlarigacha Sharq bilan G'arb davlatlari o'rtasidagi maxsulot ayirboshlash «Buyuk ipak yo'li» orqali amalga oshirilgan.

Mehnat xalqaro-geografik taqsimotining yanada chuqurlashishi natijasida ayrim mamlakatlar milliy xo'jaliklarining uzviy jixatdan yaqinlashib ketishi sodir bo'ldi. Oqibatda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar vujudga keldi.

Eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (mamlakatlar guruhi) quyidagilardir:

Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati yoki «Umumiy bozor», 1957 yil 25 martda tashkil topgan. Dastlab 6 ta davlat kirgan (Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg), 1961 yilda Gretsiya, 1963 yilda Afrikaning 18 ta davlati kuzatuvchi a'zo sifatida qabul qilingan. Asosiy maqsadi — asta-sekinlik bilan bojxona to'lovlarini bekor qilish, maxsulotlarni mamlakatga olib kirish va olib chiqib ketishdagi to'siqlarni bekor qilish, boshqa davlatlarga nisbatan umumiy tashkil bojxona to'lovlarini va siyosatni joriy qilish. «Umumiy bozor» birlashgan parlamentga va byudjetga ega. Byudjet «umumiy bozor» a'zolarining to'lovlaridan iborat. Bundan tashqari, yevropada yana quyidagi tashkilotlar bor: yevropa erkin savdo assoatsiyasi (YEESA) bunga 7 ta davlat kiradi (Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsariya, Shvetsiya), 1960 yil 1 iyulda tuzilgan. Asosiy maqsadi — bojxona to'lovlarini bekor qilish. Yevropa po'lat va ko'mir birlashmasi, 1951 yilda tuzilgan. A'zolari Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Italiya.

Markaziy Amerika davlatlari tashkiloti, 1951 yilda tuzilgan.

Lotin Amerikasi davlatlari erkin savdo asosatsiyasi (Argentina, Braziliya, Venesuela, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Urugvay, Chili, Ekvador), 1960 yil 18 fevralda tashkil qilingan («Montevideo shartnomasi»).

Afrika Birligi Tashkiloti (ABT), 1963 yil may oyida Addis-Abebada (Efiopiya) tuzilgan. JARdan tashqari barcha Afrika davlatlari kiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT) AQSH taklifi bilan 1960 yil 14 dekabrda tuzilgan bo'lib, unga quyidagi davlatlar a'zo: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Islandiya,

Ispaniya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Shvetsariya, Shvetsiya, Yaponiya.

Ilmiy-texnika inqilobi va xo'jalikning rivojlanishi

Umuman kishilik jamiyatining rivojlanishida fan va texniqaning o'rnini juda muhim ahamiyatga ega. Insoniyat tarixida fan va texnikadagi kashfiyotlar sanoat inqiloblariga olib kelgan, natijada ishlab chiqarish kuchlari tez sur'atlar bilan rivojlangan.

Hozirgi davr — ilmiy-texnika inqilobi XX asrning o'rtalaridan boshlangan va sanoatda uchinchi inqilobning boshlanishiga olib kelgan.

Ilmiy-texnika inqilobi deb fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishi asosida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarida sodir bo'ladigan tub sifat o'zgarishlarga aytiladi.

Ilmiy-texnika inqilobining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ko'p qirraliligi, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning hamma sohalarini hamda turmushning barcha jabxalarini qamrab oladi;

b) ilmiy-texnik o'zgarishlarning juda tez sur'atlar bilan yuz berishi. Fan va texnikadagi kashfiyot va ixtirolarni amaliyotga tatbik qilinish davrining keskin qisqarishi ro'y beradi;

v) ishlab chiqarishda inson o'rnining tubdan o'zgarishi, ya'ni uning boshqaruvdagi rolining oshishi;

g) ilmiy-texnika inqilobi 1945 yildan keyin harbiy-texnika inqilobi asosida sodir bo'ldi.

Ilmiy-texnika inqilobi to'rtta tarkibiy qismdan iborat: fan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, boshqarish.

Hozirgi paytda fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib qoldi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi fanning rivojlanishi va yutuqlariga uzviy bog'liq bo'lib qoldi. Sanoatda fan talab sohalar paydo bo'ldi. Jahonda fan bilan shug'ullanadigan ilmiy xodimlar soni 6 mln. dan oshib ketdi.

Harbiy sanoat ishlab chiqarishi eng fan talab tarmoqqa aylanib qoldi. Hozirgi paytda jahonda 500 mingdan ortiq olim va muxandislar shu sohada ishlamoqda.

Texnika va texnologiyaning rivojlanishida evolyusion (tarixiy) va inqilobiy yo'l ajratiladi.

Evolyusion rivojlanish deganda mavjud texnika va texnologiyani yanada takomillashtirish tushuniladi. Masalan, zavod va fabrikalar,

mashina va jixozlar quvvatini oshirish. Ilgari 4,5 tonna yuk tashiydigan avtomobillar chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda 10—15 tonnagacha yuk ko'taradigan avtopoezdlar chiqarilmoqda. Ilgari samolyotlar 50—100 yo'lovchi tashigan bo'lsa, hozir 350—500 yo'lovchi tashiydigan samolyotlar ishlab chiqarilmoqda, ularning uchish tezligi ham oshmoqda. Ikki qatorli paxta teradigan mashinalar o'rniga to'rt qatorli mashinalar ishlab chiqarish. Xuddi shunday misollarni kemasozlik, mashinasozlik, metallurgiya va boshqa sohalardan ham keltirish mumkin.

Inqilobiy rivojlanish deganda ishlab chiqarishda tamoman yangi texnika va texnologiyaga o'tish tushuniladi. Masalan, elektron va boshqa yangi sohalarning rivojlanishi. Ilmiy-texnika inqilobi davrida rivojlanishning bu turi asosiy hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ilmiy-texnika inqilobi davrida bir necha yo'nalishlarda rivojlanadi, ulardan asosiylari quyidagilar:

- moddiy ishlab chiqarishni barcha tarmoqlarining elektronlashishi, ya'ni EXMlar bilan jixozlanishi. Hozirgi davrda EXMlar soni eng ko'p bo'lgan davlatlar AQSH, Germaniya, Yaponiyadir;

- kompleks avtomatlashtirish, XX asrning 70 yillaridan boshlab rivojlana boshlagan va mikroprotessorlar, robotlar, ixcham ishlab chiqarish tizimlarini vujudga kelishi bilan bog'liq. Hozirgi paytda eng ko'p sonli robotlar Yaponiya, AQSH, Germaniya, Italiya va Fransiyada;

- energetikani, asosan atom energetikasini tez sur'atlar bilan rivojlanishi. Hozirgi paytda AESlarning soni 200—250 dan oshib ketdi, ular jahonda ishlab chiqariladigan elektroenergiyaning 10—13 foizini beradi;

- yangi materiallar ishlab chiqarish. Sanoatning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi bilan yangi materiallar ishlab chiqarishga extiyoj tug'iladi. Masalan, aerokosmik sanoatning rivojlanishi bilan «XX asr metallari» hisoblangan berilliy, litiy, titan va boshqa shunga o'xshash materiallarga talab oshdi;

- biotexnologiyani tez sur'atlar bilan rivojlanishi va mikrobiologiya sanoatining vujudga kelishi (AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya);

- xo'jalikning kosmiklashishi, aviakosmik sanoatning rivojlanishi (AQSH, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Yaponiya);

- boshqarish, Hozirgi paytda oddiy (kog'ozli) ma'lumotlardan mashinali ma'lumotlarga o'tilmokda.

Ilmiy-texnika inqilobi Hozirgi paytda ishlab chiqarish tarkibiga, to'zilishiga, rivojlanish sur'atiga va joylanishiga katta ta'sir qilmoqda.

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda nomoddiy sohada band bo'lganlar soni moddiy ishlab chiqarish sohasidagilar sonidan oshib ketgan. Bu jarayon dastlab AQSHda ro'y berdi.

Sanoatda esa ishlov beruvchi tarmoqlar soni yanada oshib ketdi. Qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika inqilobi ta'sirida «Yashil inqilob» ro'y berdi. «Yashil inqilob» asosan quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- a) hosildor, tezpishar g'alla navlarini yaratish;
- b) irrigatsiya va melioratsiyani kengaytirish;
- v) yangi texnika, o'g'itlar va kimyoviy moddalarni qo'llash;
- g) zotdor chorva mollarni yaratish. Demak, «Yashil inqilob» deb qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika asosida tubdan o'zgartirishga aytiladi.

Tayanch tushunchalar:

Xalq xo'jaligi, jahon bozori, jahon xo'jaligi kombinat, firma, markazlashuv, ixtisoslashuv, kooperativlanish, kombinatlashtirish, tabiiy taqsimot, mehnatning geografik taqsimoti, xalqaro ixtisoslashgan sohalar, ilmiy texnika inqilobi, evolyusion va inqilobiy yul, elektronlashtirish, xo'jalikni kosmiklashtirish.

SAVOLLAR:

1. Xalq xo'jaligi va jahon xo'jaligi nima? Ulardagi tafovutlar
2. Jahon xo'jaligi qachon va qay tarzda tashkil topdi?
3. Ishlab chiqarishning tashkil etishning4 shaklini va uni kim tomonidan ishlab chiqilgan. Qanday turlarga bo'linadi?
4. Kooperativlanish va kombinatlashuv terminlarini izoxlang
5. Tabiiy taqsimot nima? U qanday paydo bo'lgan?
6. Geografik mehnat taqsimoti-bu ...
7. Xalqaro mehnat taksimotining shakllanish tarixi.
8. Ilmiy texnika inqilobi nima?
9. Ishlab chiqarish ilmiy-texnika inqilobi davri qanday yo'nalishlarda rivojlangan?
10. Qay sohalarda yashil inqilob ruy berdi?

ADABIYOTLAR

1. X. Vaxobov. M. Tillaboeva «iqtisodiy geografiya asoslari»
2. A.S.Soliev «Iktiosdiy geografiya asoslari». Maro'za matni

3. I.Karimov «O'zbekiston XXI asr busag'asida» Toshkent. 1997 yil
4. Assonov G, Nabixonov M, Safarov I «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi». Toshkent 1994 yil
5. Ro'ziev A « Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari». Toshkent. 1990 yil

Mavzu: SANOAT GEOGRAFIYASI

REJA:

1. *Sanoat geografiyasi – umumiy tushunchalar*
2. *Yengil sanoat*
3. *Oziq-ovqat sanoati*
4. *Binokorlik sanoati*

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning birinchi asosiy manbai hisoblanadi. Sanoat geografiyasi iqtisodiy geografiyaning bir tarmog'i bo'lib, sanoatning xududiy joylashishini, turli davlatlar va rayonlarda sanoatning joylashish qonuniyatlarini, sharoitini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Sanoat geografiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Sanoat rivojlanishiga sezilarli ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tavsiflash; sanoat rayonlari, tugunlari va markazlarining shakllanish omillarini o'rganish; ayrim sanoat tarmoqlarining xolatiga va joylashishiga ta'sir etadigan texnik-iqtisodiy sharoitni tadqiq qilish; tarmoqlararo va rayonlararo aloqalarni o'rganish; mamlakat xalq xo'jaligida va iqtisodiy rayonlar shakllanishida sanoat joylashishining ahamiyatini aniqlash.

Har qanday mamlakat sanoatining asosini industrlashtirish darajasi tashkil qiladi.

Industrlashtirish deganda ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida fan va texnikaning yutuqlaridan foydalanib, zamonaviy korxonalar qurib, rivojlangan sanoatni tashkil qilish tushuniladi. Industrlashtirish muayyan tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga va xalqaro vaziyatga bog'liq.

Dastlab industrlashtirish Buyuk Britaniyada amalga oshirildi. Bu yerda industrlashtirish to'qimachilik sanoatda qo'l mehnatini mashinalashtirishdan boshlandi, keyin og'ir sanoatni industrlashtirish

amalga oshirildi. AQSH, Germaniya va boshqa davlatlar Buyuk Britaniya tajribasidan foydalanib to'qimachilik sanoatini industrilashtirishdan tezlik bilan og'ir sanoatni mashinalashtirib, markazlashgan ishlab chiqarishni tashkil qildilar.

Sanoatni (ishlab chiqarishni) tashkil qilishning asosiy shakllari (markazlashuv, kombinatlashuv, ixtisoslashuv, hamkorlashuv) 4.3. bo'limda ko'rib chiqildi. Endi sanoatning tarkibiy qismlari va to'zilishini ko'rib chiqamiz.

Sanoat og'ir va yengil sanoatga bo'linadi. Og'ir sanoat asosan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iboratdir, ya'ni unda mehnat qurollari (mashinalar, jixozlar va h.k.) va mehnat predmetlari (xom ashyo, yoqilg'i va h.k.) ishlab chiqariladi.

Og'ir sanoat mehnat predmetlarini (foydali qazilmalar, yog'och, gidroenergiya resurslari) tabiatdan oladi. Shuning uchun uning katta qismini undiruvchi sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Uning qolgan katta qismini esa ishlov berish sanoati tarmoqlari (qora va rangdor metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, elektronika va h.k.) tashkil qiladi.

Og'ir sanoatda ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish («A» guruh) bilan birga iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi («B» guruh). Shuning uchun og'ir sanoat maxsulotlari faqat sanoatda emas, balki aholining kundalik turmushida ham ishlatiladi.

Yengil sanoat ijtimoiy ishlab chiqarishning ikkinchi bo'limiga («B» guruhi) kiruvchi keng xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan tarmoqlar guruhidan iborat. Asosiy tarmoqlari: ip-gazlama, zig'ir, jun, trikotaj, teri, poyafzal, mo'ynachilik, mebel, galanteriya va boshqalar.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, sanoat yana undiruvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga ham bo'linadi.

Undiruvchi sanoat turli xil xom ashyo va yoqilg'ini qazib oladigan hamda tayyorlaydigan tarmoqlardan iborat. Ushbu sanoatning asosiy tarmoqdari quyidagilardan iborat: tog'-kon sanoati, yog'och tayyorlash, baliqchilik, ovchilik va boshqalar. Tog'-kon sanoati foydali qazilmalarni qidirish, qazish va boyitish bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Unga quyidagilar kiradi: yoqilg'i-energetika xom ashyosi, qora va rangli, qimmatbaho, kamyob hamda radioaktiv metall rudalari, tog'-kimyo (apatitlar, fosforitlar, kaliy tuzlari, oltingugurt) xom ashyosi va qurilish materlarini qazib olish. Tog'-kon sanoati kon sanoatining tarkibiga kiradi. Kon sanoati o'z navbatida tog'-kon va qayta ishlash sanoatini o'z ichiga oladi.

Xom ashyoga ishlov beradigan yoki uni qayta ishlaydigan sanoat tarmog'i ishlov beruvchi sanoat tarmog'i deb ataladi.

Xom ashyo asosan tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi, urmon xo'jaligi, balikchilik va boshqa tarmoqlarda qazib olinadi va tayyorlanadi. Xom ashyo sintetik yo'l bilan ham olinadi.

Ishlov beruvchi sanoatga quyidagilar kiradi: mashinasozlik metalga ishlov berish, qora va rangli metallurgiya neftni qayta ishlash, kimyo, elektrotexnika elektron yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, qog'oz ishlab chiqarish, to'qimachilik, tikuvchilik poyafzal, un, qand, konserva va boshqa sanoat tarqalmoqda.

Sanoatda ishlab chiqariladigan maxsulot tan narxining asosi qismini xom ashyoga va unga ishlov berishga ketgan sarf-harajatlar tashkil qilsa, bundan sanoat ko'p mablag' (material) talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi.

Unga sanoatning quyidagi tarmoqlari kiradi: toqimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat, mashinasozlik va kimyo (fosforli va kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish) sanoatining ko'p tarmoqlari kiradi. Masalan, tikuvchilik harajatlarning 80 foizdan ortig'ini, oziq-ovqat sanoatida harajatlarning 80 foizini xom ashyo tashkil qiladi. Ayrim mablag' (materialni yoki xom ashyoni) ko'p talab qiladigan tarmoqlar xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Maxsulot tan narxida energiya sarf-harajatlari katta bo'lgan ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi. Masalan, alyuminiy ishlab chiqarish, qotishmalar ishlab chiqarish va h.k.

Sanoatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: energetika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, o'rmon, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil va maxalliy sanoat. Hozirgi paytda sanoatning elektronika va mikrobiologiya sanoati kabi eng yangi tarmoqlari ham shakllangan.

Sanoat ishlab chiqarishning joylashishiga qarab sanoat rayonlari, tugunlari va markazlariga ajratiladi.

Bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari to'plangan shahar yoki shaharcha sanoat markazi deb ataladi. Ko'p xollarda sanoat markazi ishlab chiqarishni yirikligi bilan ajralib turadi. Sanoat markazi ba'zi xollarda faqat industrial emas, balki transport vazifasini ham o'taydi.

Bir-biri bilan o'zaro bog'langan ishlab chiqarish korxonalari to'plangan xudud sanoat tuguni (o'zeli) deb ataladi.

Sanoat tuguni bitta shahar doirasida ham bo'lishi mumkin, ko'p xollarda u bir necha shaharlardan yoki ishchi shaharchalari bilan o'ralgan

shaharlar tizimidan iborat bo'ladi. Sanoat tuguniga kirgan korxonalar yagona transport tarmog'idan, energiya va suv ta'minotining umumiy manbalaridan birgalikda foydalanadi (ba'zan xom ashyo resurslari ham umumiy bo'ladi), mehnat resurslarini ishlab chiqarishga to'laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdorligini oshirishga, mablag'larni tejashga, korxonalar eg'allaydigan maydonlarni qisqartirishga olib keladi. Sanoat tugunlari — sanoat korxonalarini joylashtirishning ilg'or usulidir.

Sanoat tugunlari va markazlari to'plangan xududlar sanoat rayonlari deb ataladi. Maxsulot ishlab chiqarishda u yoki bu sanoatning salmog'iga qarab, undiruvchi sanoat yoki ishlov beruvchi sanoat rayonlari ajratiladi. Ularning katta-kichikligi har xil bo'ladi.

Mavzu: YOQILG'I-ENERGETIKA SANOATI

REJA:

- 1. Umumiy ma'lumot*
- 2. Yoqilg'i sanoati*
- 3. Ko'mir va neft sanoati*
- 4. Gaz sanoati, uran sanoati*
- 5. Elektr-energiya sanoati*

Energetika sanoati har qanday mamlakat yoki rayonning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishining asosini tashkil qiladi. Energetika sanoati xalq xo'jaligining asosiy bo'g'inlaridan bo'lib, u sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. U iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvini ko'p jixatdan aniqlab beradi.

Energetika sanoati yoqilg'i xom ashyosini qazib olish va iste'mol qilish, elektr energiya ishlab chiqarish va uni taqsimlash tarmoqlarining o'zaro va bir-biri bilan bog'langan yig'indisidir. Demak, yoqilg'i-energetika majmuasi yoqilg'i va elektroenergetika sanoatining o'zaro bir-biri bilan bog'langan tarmoqlari yig'indisidan iborat.

Mamlakat yoki xudud qancha ko'p energiya ishlab chiqarsa va iste'mol qilsa, u shuncha ko'p maxsulot ishlab chiqaradi va iqtisodiy rivojlanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Energetika sanoatining xom ashyosi bo'lib, yoqilg'i (neft, gaz, ko'mir, torf, yonuvchi slanets, yog'och, uran) va gidroresurslar (daryo va dengiz oqimi, qalqish energiyalari) hisoblanadi. Hozirgi paytda energiyani noan'anaviy usullar bilan olishning rivojlanishi tufayli quyosh energiyasi,

shamol kuchi, yerning ichki issiqligi ham energetika xom ashyosi sifatida qaralmoqda.

Yoqilg'i resurslari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun energiya ishlab chiqarishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Ammo fan va texnikaning rivojlanishi bilan u yoki bu energiya manbaining xalq xo'jaligidagi ahamiyati o'zgarib turadi.

Yoqilg'ining turli xillarini bir-biri bilan taqqoslash uchun ular shartli yoqilg'iga aylantiriladi.

Shartli yoqilg'i deb, 1 kg yoqilg'i yonganda 7 ming kkal (29 MJ/kg) energiya beradigan, issiqlik ko'effitsenti bir deb qabul qilingan yoqilg'iga aytiladi.

Yoqilg'ini shartli yoqilg'iga aylantirish uchun, yoqilg'ilar haqidagi ma'lumotlarni tegishli issiqlik ko'effitsentiga ko'paytiriladi. Hisoblashlarda 1 kg shartli yoqilg'i o'rta hisobda 2 kVt/soat elektr energiyasiga teng deb ham qabul qilinadi, lekin bunda elektr stantsiyalarining foydali ish ko'effitsenti hisobga olinadi.

Demak, jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 kg toshko'mirning issiqligi 1 kg shartli yoqilg'ining issiqligiga teng. Issiqligi kam bo'lgan yoqilg'i xom ashyolari torf, slanets, qo'ng'ir ko'mir va yog'och hisoblanadi. Shuning uchun ularni uzoq masofalarga tashib yurishning iqtisodiy foydasi yo'q. Ular maxalliy yoqilg'i bo'lib hisoblanadi. Qo'ng'ir ko'mir ham issiqlik ko'effitsenti kam bo'lganligi sababli qazib olinadigan joyida va unga yaqin bo'lgan xududlarda ishlatiladi. Masalan, O'zbekistonda Angren ko'ng'ir ko'mir koni yaqinida «Angren», Nurobod shaharchasida «Yangi Angren» GRESlari kurilgan. Ushbu GRESlarda ko'mir yoqilib, olingan elektroenergiya iste'molchilarga jo'natiladi, chunki ko'mirning kuli ko'p bo'lganligi uchun uni o'zoq masofaga tashish iqtisodiy jixatdan o'zini oqlamaydi.

Yoqilg'i resurslarining qiymati faqat ularning kaloriyasigagina bog'liq bo'lmay, balki undan foydalanish imkoniyatiga hamda qazib olish harajatlariga ham bog'liq. Eng tejamli yoqilg'i xom ashyosi neft va gazdir, chunki ularni qazib olish va quvurlar orqali iste'molchiga jo'natish arzonga tushadi.

Maxsulot birligini olish (yoki 1 t yoqilg'i qazib olish) uchun sarflangan va pulda ifodalangan barcha harajatlar maxsulot tan narxi deb ataladi.

Muayyan vaqt davomida ma'lum bir xududda (mamlakat, iqtisodiy rayon, viloyat va h.k.) yoqilg'i va energiyaning turli xillarini qazib olish, xom ashyosini qayta ishlash va iste'mol qilish umumiy hajmini va

tarkibini ifodalaydigan barcha ko'rsatkichlar yoqilg'i-energetika balansi deb ataladi.

YOQILG'I SANOATI

Yoqilg'i sanoati yoqilg'i xom ashyosini qazib olish va uni iste'molchiga yetkazib berish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Yoqilg'i sanoati ko'mir, neft, gaz, torf, yonuvchi slanets, uran rudasi qazib olish hamda yog'och tayyorlashdan iborat.

Quyosh elektr stansiyalari, yoki geliostantsiyalar AQSH, Fransiya, Ispaniya, Yaponiya va Ukrainada; geotermal elektr stantsiyalar AQSH (Geyzer stantsiyasining quvvati 1 mln/kVt), Rossiya, Filippin va Italiyada; qalqish stantsiyalari Fransiya, Kanada, Rossiya, Xitoyda; shamol elektr stantsiyalari AQSH va Daniyada qurilgan.

Elektr energiyasi jahondagi barcha mamlakatlarda ishlab chiqariladi. Ammo bir yilda 100 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradigan faqat 13 ta davlat bor (AQSH, Rossiya, Yaponiya, Kanada, Germaniya, XXR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Braziliya, Xindiston, Polsha, Norvegiya). O'zbekistonda bir yilda 50 mlrd. kVt/soatdan ortiq elektroenergiya ishlab chiqariladi.

Aholi jon boshiga elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Norvegiya (26 ming kVt/soat), Kanada (17 ming kVt/soat), Shvetsiya (14 ming kVt/soat), AQSH (11 ming kVt/soat) yetakchi.

Rossiya, Ukraina, Vengriya, Fransiya, Shveytsariya, Kanada elektr energiyasini eksport qiladi, Italiya, Niderlandiya, AQSH import qiladi.

Iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda qatnashadigan va bir-biri bilan elektr liniyalari va turlari bilan bog'langan yirik elektr stantsiyalar birlashmasi energiya tizimi deb ataladi. Energiya tizimlari quyidagi turlarga bo'linadi: lokal (shahar, rayon), zonal (rayonlararo), milliy (butun mamlakat) va xalqaro (masalan, O'rta Osiyo) energiya tizimlari.

Demak, energetika sanoati xo'jalikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanish darajasi ilmiy-texnik taraqqiyot bilan, turli mamlakatlar va xududlar aholisining turmush darajasi bilan bog'liq.

Energetika sanoatining tarkibiy qismlari chizmada ko'rsatilgan.

YOG'OCH TAYYORLASH

Yog'och insoniyat tarixida bir necha ming yillar davomida asosiy yoqilg'i manbai bo'lib keldi. Natijada juda ko'p o'rmonlar yo'q bo'lib ketdi yoki maydoni keskin qisqardi. Ko'mir, neft, gaz va boshqa yoqilg'ilarga o'tilgandan keyin yog'ochni yoqilg'i sifatida ishlatish keskin kamaydi. Ammo hozir ham baland tog' mintaqalarida, cho'llarda, ekvatorial-tropik mintaqalarda (janubiy o'rmon mintaqasi) joylashgan qoloq davlatlarda yog'och yoqilg'i sifatida hamon ishlatilmoqda. Yog'och eramizning XVI asrlarigacha asosiy yoqilg'isi bo'lib keldi.

KO'MIR SANOATI

Ko'mir sanoati ko'mirni qazib olish (ayrim xollarda boyitish, briket qilish) va iste'molchiga yetkazib berishdan iborat. Asrimizning boshlaridan boshlab ko'mir insoniyatning yoqilg'iga bo'lgan extiyojini 70 foizini qondira boshladi (Hozir 20—25 foiz).

Ko'mir hozirgi paytda jahonda 60 mamlakatda qazib olinadi, ammo faqat 10 davlat (XXR, AQSH, Rossiya, Germaniya, JAR, Xindiston, Avstraliya, Chexiya, Buyuk Britaniya, Polsha) yiliga 100 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib oladi. Jahondagi eng yirik ko'mir xavzalari bo'lib, Appalachi (AQSH), Donetsk (Ukraina), Kuznetsk (Rossiya), Yuqori Sileziya (Polsha), Rur (Germaniya), Fushun (XXR) hisoblanadi. Ko'mirning 90 foizi qazib olinadigan davlatda ishlatiladi, faqat 10 foizigina eksport qilinadi. Ko'mir eksport qiladigan davlatlar AQSH va JAR hisoblanadi.

Qazib olinadigan ko'mir sifati jixatidan xilma-xil bo'lib, u ayrim rayonlarning geologik tuzilishi va ko'mir hosil bo'lish jarayonlarining turli bosqichlari bilan bog'liq. Toshko'mir bilan qo'ng'ir ko'mir bir-biridan farq qiladi. Qo'ngir ko'mirning toshko'mirga aylanishi uglerod miqdorining ko'payishiga bog'liq. Toshko'mir kokslanadigan va kokslanmaydigan bo'ladi. Donetsk, Kuznetsk, Appalachi, Rur, Fushun, Qarag'anda va Pechora xavzalari kokslanuvchi ko'mirga boy. Qo'ngir ko'mirda nam va ho'l miqdori ko'p bo'ladi, bu esa uning issiqlik berish xususiyatini kamaytirib yuboradi. Shuning uchun ulardan energetik yoqilg'i hamda kimyo sanoatida xom ashyo sifatida foydalaniladi. Yirik qo'ng'ir ko'mir xavzalari Rossiya (Moskva ostonasi, Chelyabinsk), Germaniya va Xitoyda joylashgan. Ko'mir ochiq, yopiq (shaxta), gidravlik va yer tagida gazga aylantirish usullarida qazib olinadi.

Ko'mir qazib olishning eng ilg'or va afzal usuli uni ochiq usulda, karerlardan qazib olishdir. Bunday usulda ishlovchilar ishchi yer tagida ishlovchi ishchiga qaraganda 6 barobar ko'p miqdorda ko'mir qazib chiqaradi. Karer qancha katta bo'lsa, harajat shuncha kam bo'ladi.

Ko'mir juda ham chuqurda joylashgan va tabiiy-geografik sharoit murakkab bo'lsa, yopiq (shaxta) usulda qazib olinadi. Dastlab ko'mir asosan shu usulda qazib olingan. Hozirgi paytda ko'mirni tejamli gidravlik usulda qazib olish keng qo'llanilmoqda. Ko'p xollarda ko'mir yer tagida to'gridan-to'gri gazga aylantirish yo'li bilan ham qazib olinadi. Bunda hosil bo'lgan gaz bevosita iste'molchilarga quvurlar orqali o'zatiladi.

NEFT SANOATI

Ushbu sanoat tarmog'i XX asrning o'rtalaridan boshlab jahon energetika sanoatida yetakchi o'rinni eg'allab kelmoqda. Neft xalq xo'jaligida g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Undan yoqilg'ining turli xillari, ko'p miqdorda kimyo maxsulotlari, surkov moylari olinadi. Ichki yonish dvigatellari bug' mashinalarini siqib chiqara boshlagandan keyin, benzin, kerosin hamda boshqa neft maxsulotlari ishlab chiqarila boshlangandan keyin, shuningdek bu maxsulotlar motor va reaktiv yoqilg'i sifatida qo'llaniladigan bo'lgandan keyin neftning yoqilg'i sifatidagi ahamiyati nixoyatda ortib ketdi. Neft maxsulotlaridan kimyo sanoatining turli tarmoqlari uchun, ayniqsa organik sintez uchun foydalanish katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

Neft xom ashyo xolida ishlatilmaydi, qayta ishlash natijasida, undan turli xil yoqilg'i va yangi kimyoviy mahsulotlar olinadi. Neftni qayta ishlashdan chiqqan moy elektrostantsiyalarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neftni qazib olish ko'mirni qazib olishdan o'rta hisobda 4 barobar arzon tushadi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida neftdan foydalanish juda ko'p mablag'ni tejashga imkon beradi.

Neftning tan narxiga uning qanday chuqurlikda yotgani emas, balki konning qanchalik kattaligi, bitta burg'u qudug'idan naqadar ko'p neft olish mumkinligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Neft qazib olishning eng arzon usuli fontan usuli bo'lib, bunda neft quduqlardan neft-gazning bosimi ta'sirida otilib chiqadi. Vaqt o'tgan sari bosim asta-sekin pasaya boradi va uni turli usullar bilan oshirib turiladi. Bosim kam yoki butunlay yo'q joylarda neftni nasoslar yordamida qazib olinadi.

Neft jahondagi 80 ga yaqin davlatda qazib olinadi, ammo bir yilda 100 mln t dan ortiq neft qazib oladigan davlatlar bor-yo'gi 7 ta: Rossiya, AQSH, Saudiya Arabistoni, Meksika, Buyuk Britaniya, Eron, Xitoy. Jahonda neft qazib olish bo'yicha Rossiya, AQSH va Saudiya Arabistoni yetakchi hisoblanadi.

Jahondagi eng yirik neft xavzalari G'arbiy Sibir (Rossiya), Texas (AQSH), Meksika qo'ltig'i (AQSH, Meksika), Fors qo'ltig'i (Eron va Arab davlatlari), Shimoliy dengiz hisoblanadi. Ammo neft zaxiralarining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Bu esa neftni uzoq masofalarga tashishga olib keladi. Jahon dengiz transportida tashiladigan yuklarning asosiy qismini neft tashkil qiladi. Hozirgi paytda asosiy neft tashish yo'nalishlari quyidagilar: Fors qo'ltig'idan G'arbiy Yevropaga, Shimoliy Afrikadan Janubiy Yevropaga, Venesueladan Shimoliy Amerikaga, Rossiyadan Sharqiy Yevropaga.

1960 yilda neft qazib olish va uni sotish narxini tartibga solib turish maqsadida neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK) tuzildi. Ushbu tashkilotga 13 ta davlat a'zo bo'lib kirgan: Birlashgan Arab Amirliklari, Venesuela, Gabon, Jazoir, Indoneziya, Iroq, Qatar, Quvayt, Liviya, Nigeriya, Eron, Saudiya Arabistoni, Ekvador.

Neft sanoati faqat neft qazib olish bilan emas, balki uni qayta ishlash bilan ham shug'ullanadi. Hozirgi paytda neftni qayta ishlash korxonalari iste'molchiga yaqin qurilmoqda, chunki turli tayyor maxsulotlarni tashigandan ko'ra, neftni tashish arzonga tushadi.

GAZ SANOATI

Sanoatning bu tarmog'i asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Tabiiy gaz hozir jahonda 60 dan ortiq davlatlarda qazib olinadi. Ammo yiliga 50 mlrd m³ gaz qazib oladigan davlatlar faqat Rossiya, AQSH, Niderlandiya va Kanada hisoblanadi. Gaz sanoatining asosiy hususiyati shundan iboratki, u qazib olingan davlatda ishlatiladi, ya'ni kam eksport qilinadi.

Gaz sanoati gazni qazib olish, qayta ishlash va uni iste'molchiga yetkazish tarmoqlaridan iborat.

Gaz yoqilg'ining eng arzon turi. Gaz sanoatda ham, aholining ro'zg'orida ham ishlatiladi. Gaz tutun chiqarmaydigan yoqilg'i, u batamom yonib tugaydi va atmosferani iflos qiladigan chiqindilar ajratib chiqarmaydi. Gaz qazib olish tan narxi ko'mir tan narxidan 10—12 marta

pastdir. Ayni vaqtda, gaz arzon kimyo xom ashyosi hisoblanadi. Gaz iste'molchilarga quvurlar orqali yoki suyultirilgan holda jo'natiladi.

TORF SANOATI

Torf qazib olish, uni qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berishdan iborat. Torf o'simliklarni chala parchalanishi natijasida botqoqlarda kislorod miqdori kam bo'lgan sharoitda hosil bo'ladigan tog' jinsi. Tabiiy holda juda katta namlikka ega (88—94 foiz). Torf konlari asosan tekisliklarda ko'proq tarqalgan. Torf yoqilg'i maqsadlarida, qishloq xo'jaligida, qurilish material sifatida ishlatiladi. Kelajakda kimyo sanoatida xom ashyo sifatida ishlatish ko'zda tutilmoqda.

Jahondagi torf konlari zaxiralarining 2/3 qismi Rossiyaga to'g'ri keladi (138 mlrd tonna quruq torf) va asosan igna bargli o'rmonlar xududida tarqalgan. Torf konlari zaxirasining qolgan 1/3 qismi Skandinaviya davlatlariga, Polsha, Germaniya, Irlandiya, Kanada, Indoneziya, Estoniya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlarga to'g'ri keladi.

Torfning issiqlik berish koefitsienti 3000—4000 kaloriya. Agar torfni koksga aylantirilsa, yoki undan briketlar tayyorlansa, yoqilg'ining sifati oshadi. Uni gazga aylantirish ham mumkin. Torfdan olinadigan gaz sanoatning metallurgiya, mashinasozlik, oynasozlik va boshqa tarmoqlarida ishlatiladi. Bir tonna torfdan olingan gaz 220 kg neftga tengdir.

YONUUVCHI SLANETS SANOATI

Ushbu sanoat slanetslarni qazib olish va ularni qayta ishlash tarmoqdaridan iborat.

Slanetslar tarkibida 60—70 foiz organik moddalar bo'lgan gilli yoki oxaktoshli tog' jinslaridir. Tez o't oladi va tutab yonadi. Yonuvchi slanetslar tarkibida juda ko'p uchuvchan moddalar bor. Bu jixatdan ular qo'ng'ir ko'mir va xatto torfdan ustunlik qiladi. Shu sababdan ular gazlashtirish va kimyo sanoatida foydalanish uchun qo'laydir.

Slanetslardan zavod sharoitida xaydash yo'li bilan olinadigan smola va smolasimon suv, och rangli motor yoqilg'isi, surkov moylari, yog'ochni konservatsiya qilishda ishlatiladigan preparatlar, turli xil farmatsevtika maxsulotlari ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib hisoblanadi. Ularni quruq xaydash natijasida hosil qilinadigan slanets gazining issiqlik berish

hususiyati 3800—4000 kaloriya bo'lib, undan yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Slanetslar yonishi natijasida hosil bo'ladigan ho'l qimmatli yopishtiruvchi modda bo'lib, undan sement, binokorlik g'ishti va issiqlik izolyatsiyasi materiallari ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Yonuvchi slanetslarning yirik konlari Estoniya, Rossiya, Xitoy, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Qozog'istonda joylashgan.

Estoniya slanets sanoati mazkur davlatni gaz bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, Estoniyada yonuvchi slanetslardan qattiq yoqilg'i sifatida ham, undan suyuq yoqilg'i va gaz ishlab chiqarishda ham foydalaniladi.

URAN SANOATI

Uran rudasini qazib olish va boyitish tarmoqlaridan iborat. Uran rudasi bu iqtisodiy jixatdan ajratib olish qulay bo'lgan miqdorda tarkibida uran va uran birikmalari bo'lgan tabiiy mineral agregatlardir. Tabiatda tarkibida urani bor 150 dan ortiq mineral bor. Yirik uran rudasi konlari Rossiyada, Chexiya va Slovakiyada, XXR, AQSH, Kanada, JAR, Avstraliya, Fransiya, Gabon va Zoida joylashgan.

1 kg uran 2,5 ming tonna ko'mir yonganda beradigan miqdorda issiqlik beradi. Uran miqdori rudaning tarkibida juda kam bo'lganligi uchun uran sanoati asosan xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

ELEKTR ENYERGIYASI SANOATI

Elektr energiyasi sanoati elektr energiyasini ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga uzatish tarmoqlaridan iborat.

Ushbu tarmoq mamlakat yoki iqtisodiy rayon miqyosida sanoatni joylashtirishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikki yo'nalishda sodir bo'ladi. Birinchi yo'nalish elektr energiyani katta masofaga uzatishdan iborat. Bu esa mamlakatning barcha xududlarida sanoatni rivojlantirishga imkon beradi. Ikkinchi yo'nalish mo'l-ko'l va arzon elektr energiyasi ishlab chiqaradigan xududlarda energiyani ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlarini joylashtirishdan iborat.

Elektr energiyasini ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlariga titan, alyuminiy, magniy, sintetik tola, sintetik kauchuk, sintetik ammiak ishlab chiqarish kiradi. Bir tonna titan ishlab chiqarish uchun 60 ming kVt/soat, magniy uchun 26 ming kVt/soat, alyuminiy ishlab chiqarish uchun esa 20 ming kVt/soat elektr energiyasi sarf bo'ladi.

Demak, ishlab chiqarilgan maxsulot tan narxining asosiy qismini energetika harajatlari tashkil qilsa, bunday ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi.

Elektr energiyasini kamroq talab qiladigan tarmoqlarga qora metallurgiya (elektrometallurgiyadan tashqari), soda va qog'oz ishlab chiqarish, mashinasozlik, mebel, fanera va to'qimachilik sanoati kiradi.

Elektr energiyasi sanoatini joylashtirishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- a) yoqilg'i va gidroenergetika resurslari;
- b) ishlab chiqarishdagi va elektr energiyani uzatishdagi texnika taraqqiyoti;
- v) iste'molchining joylashishi.

Ushbu tarmoqning asosiy hususiyati shundan iboratki, elektr energiya ishlab chiqarish uni iste'mol qilish bilan bir vaqtga to'g'ri keladi.

Mamlakat xalq xo'jaligi yoki iqtisodiy rayon xo'jaligi uchun ishlab chiqarilgan energiya tannarxining past bo'lishi katta ahamiyatga ega. Elektr energiyaning tannarxi elektr stantsiyalarda ishlatiladigan yoqilg'ini qazib olish va tashib kelishga ketadigan harajatga bog'liq. Shu sababli, elektr stantsiyalarni qurish uchun joy tanlanayotganda yoqilg'ini tashib kelishga va elektr energiyani iste'molchiga yetkazib berishga ketadigan harajatlarni hisobga olinadi. Agar yoqilg'ini tashib kelish harajati elektr energiyani o'zlashtirish harajatidan ortiq bo'lsa, elektr stantsiyani yoqilg'i manbaiga yaqin, agar energiyani uzatish qimmatga tushsa, uni iste'molchiga yaqin quriladi. Ayrim xollarda, elektr energiya juda ko'p talab qilinadigan joylarda elektr stantsiyalar boshqa joydan keltiriladigan yoqilg'iga mo'ljallab quriladi.

Hozirgi paytda elektr energiyasini uzatish mumkin bo'lgan masofa yildan-yilga uzayib bormoqda. Elektr energiyani uzoq masofaga uzatish mumkinligi uni yoqilg'ining boshqa turlariga qaraganda afzalroq qilib qo'ymoqda. Bu esa quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- yoqilg'ining maxalliy turlaridan to'la va har tomonlama foydalanishga;
- yirik va qudratli elektr stantsiyalar qurishga;
- xo'jalikning hamma tarmoqlarida elektr energiyadan foydalanishga.

Elektr energiyasi issiqlik elektr stantsiyalarda (IES), gidroelektr stantsiyalarda (GES), issiqlik elektr markazlarida (IEM), atom elektr stantsiyalarida (AES) va noan'anaviy elektr energiyasi olish stantsiyalarida ishlab chiqariladi.

Jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 70 foizdan ortig'i IESlarda ishlab chiqariladi. Ular ancha tez va arzon quriladi. Ularning quvvatini 6 mln kVt dan oshirish mumkin.

IESlarni qurishda elektr resurslari, ishlab chiqarish va transport sharoitlari, qurilish harajatlari va muddatlari hamda stantsiyani ekspluatatsiya qilish nazarda tutiladi. Ko'pchilik IESlarda elektr energiya bilan birga issiqlik energiyasi ham ishlab chiqariladi. Bunday elektr stantsiyalar issiqlik elektr markazlari (IEM) deb ataladi. Ularda elektr energiya ishlab chiqarish vaqtida isigan suvni issiqxonalarni, binolarni isitishga va ishlab chiqarish ehtiyojlariga yuboriladi. Ammo isigan suvni faqat 20 km gacha bo'lgan masofaga jo'natish mumkin, shuning uchun IEMlar asosan sanoat korxonalari yaqinida va yirik shaharlarda quriladi. Bu soha bo'yicha Rossiya jahonda yetakchi hisoblanadi.

Gidroelektr stantsiyalarda (GES) energiya ishlab chiqarish to'xtovsiz oqib tushadigan suv oqimi kuchiga asoslanadi. Shuning uchun ham ularda ishlab chiqarilgan elektr energiyaning tan narxi past bo'ladi. GESlar suv oqimi energiyasini elektr energiyaga aylantirib beradigan inshootlar va jixozlar majmuidir.

Tekislik va tog' oldi daryolarida suvning to'xtovsiz oqimi asosan to'gonlar tufayli hosil qilinadi. GES binosi to'gon yonida, yoki ichida, ba'zi xollarda to'g'ondan pastda joylashadi. Tog' daryolarida ko'pincha derivation GESlar orqali hosil qilinadi. GES binosi to'g'ondan ancha pastda, ayrim xollarda yer tagida joylashtiriladi. Daryo oqimi yil bo'yi energiya olishda, to'la foydalanish maqsadida suv omborlar qurish orqali tartibga solinadi. Yirik GESlar qurilganda daryo suvlaridan transport va irrigatsiya maqsadlarida ham, suv ta'minoti uchun ham foydalaniladi. Bunday inshootlar gidrouzellar deb ataladi.

Gidrouzellar elektr energiyani ishlab chiqarish, yerlarni sug'orish, xo'jaliklar va aholini suv bilan ta'minlash, kemachilik va baliqchilikni rivojlantirish masalalarini xal qilishga imkon beradi.

Hozirgi paytda GESlarning yangi turi bo'lgan gidroakkumulyativ elektr stantsiyalar (GAES) ham qurilmoqda. Ular energiya tizimlarida elektr energiyadan notekis foydalanish sababli quriladi. GAESlar boshqa GESlar ishlab chiqargan energiyani to'playdi (akkumulyatsiya qiladi), bunda ular stantsiyadan yuqorida joylashgan xavzaga suvni nasoslar bilan ko'tarish uchun qurilgan tizimlardagi ortiqcha elektr energiyasidan foydalanadi (masalan, tunda). Elektr energiyaga ehtiyoj oshganda bu xavzadagi suv ochib yuboriladi va hosil bo'lgan oqim kuchi tufayli GAESlarda elektr energiyasi hosil qilinadi.

Bitta daryoning o'zida bir nechta elektr stantsiyalar pog'onasini (kaskad) vujudga keltirish mumkin. U suv resurslaridan ko'p marta foydalanishning eng yaxshi imkoniyatlarini yaratib beradi. Masalan, Chirchiq daryosida 19 ta, Volga daryosida esa 12 ta elektr stantsiyalar pog'onasi qurilgan.

Gidroenergetika resurslarining 65 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi, ammo ulardan foydalanish darajasi past. Gidroenergetika resurslaridan foydalanish darajasi AQSH, Rossiya va Norvegiyada juda yuqori. Norvegiyada elektr energiyaning 99,5 foizi GESlarda ishlab chiqariladi. Bu yerda GESlarning asosiy qismi (200 dan ortiqrog'i) yer tagida joylashgan.

Jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 20 foizi GESlarda ishlab chiqariladi.

Atom elektr stantsiyalarida (AES) jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 15—17 foizi ishlab chiqariladi. AESlar o'zining energetika manbai bo'lmagan va yoqilg'i qimmat, lekin elektr energiya ko'p talab qilinadigan joylarda quriladi. Uning xom ashyosi bo'lib uran hisoblanadi.

AESlar hozir 30 dan ortiq davlatlarda qurilgan. Birinchi AES Rossiyada (Obninsk AESi) qurilgan. AESlarda elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Rossiya yetakchi, Fransiyada elektr energiyani 70 foizdan ortig'i AESlarda ishlab chiqariladi.

Noan'anaviy energiya manbalari asosida ishlaydigan elektr stantsiyalarga quyosh elektr stantsiyalari (QES), shamol elektr stantsiyalari (SHES), geotermal elektr stantsiyalar (GeES), qalqish elektr stantsiyalari (QaES), dengiz oqimi elektr stantsiyalari (OES) va boshqalar kiradi.

Tayanch tushunchalar:

Sanoat geografiyasi, industriyalashtirish, ko'p mablag' va energiya talab qiladigan ishlab chiqarish, sanoat tuguni, sanoat rayoni, yengil sanoat, ip gazlama, trikotoj, poyabzal, gazlama to'qish, jut, jun, oziq-ovqat sanoati, konditer fabrikalari, binokorlik sanoati, oynasozlik, sement ishlab chiqraish, g'isht, gili va karbonatli tog' jinslari, tabiiy toshlar.

SAVOLLAR:

1. Moddiy ishlab chiqarishning qanday asosiy manbalari bor?

2. Sanoat geografiyasi nimalarni o'rganadi?
3. Industriyalashtirish deganda nimani tushunasiz.
4. Sanoat geografiyasining asosiy vazifalarini sanang.
5. Sanoat tugunlarining qanday afzallik tomonlari bor?
6. Yengil sanoat qanday tarmoqlardan iborat?
7. Gazlama to'qish jarayoni necha bosqichli buladi?
8. Tuqimachilik va trikotaj korxonalarini joylashtirishda qanday omillarga e'tibor beriladi? Nima uchun?
9. Oziq-ovqat sanoati joylashtirishda qanday omillarga e'tibor beriladi?
10. Binokorlik sanoati qanday tarmoqlarga bo'linadi?
11. Oynasozlik zavodlarini qanday omillarga e'tibor beriladi?

ADABIYOTLAR:

1. X.Vaxobov, M. Tillaboeva «Iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent 2001 yil. «O'kituvchi» nashriyoti.
2. Xrushev A.T «geografiya promqshlennosti» Moskva, 1980 yil
3. A.S.Soliev «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari». Toshkent. 1995 yil
4. «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» Nabixonov M, Safarov I, Asomov G. Toshkent 1994 yil
5. A.S. Soliev «iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ro'zalar matni.

Mavzu: KIMYO SANOATI

REJA:

1. Umumiy ma'lumot
2. Uning xalq xo'jaligidagi o'rni
3. Kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyatlari
4. Kimyo sanoati zavodlarini kurishdagi shartlari

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning joylashishi mashinasozlik sanoatining joylashini eslatadi.

Kimyo sanoati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi xususiyati, tabiiy materiallardan ustun turuvchi yangi materiallar ishlab chiqarishidir. Bu materiallar arzonligi va mustaxkamligi bilan ajralib turadi. Masalan,

kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga nisbatan 20 barobar kam mehnat sarflanadi.

Ikkinchi xususiyati, ishlab chiqarishni kombinatlashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi. Chunki, ko'mir, neft, gaz, slanets, torfdan bir vaqtning o'zida ham energiya, ham qimmatli kimyo maxsulotlari olish uchun foydalanish energetika-kimyo kombinatlarini qurishga olib keldi. Kimyo sanoatini boshqa sanoat tarmoqlari bilan kombinatlashtirish natijasida maxsus ishlab chiqarishlar — koks-kimyo, neft-kimyo, slanets-kimyo sanoat tarmoqlari vujudga keldi.

Uchinchi xususiyati, kimyo sanoatining keng xom ashyo manbalariga egaligidir. Turli xil foydali qazilmalar, yog'och, suv, havo, ishlab chiqarish chiqindilari ushbu sanoat uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Ammo uning asosiy xom ashyosi maxsus tayyorlangan xom ashyo (neftni qayta ishlash, ko'mirni kokslash chiqindilari) bo'lib hisoblanadi.

Kimyo sanoati bir qancha tarmoqlardan iborat, ularning asosiylari quyidagilar: tog' kimyosi, asosiy kimyo, polimerlar kimyosi.

Tog' kimyosi mineral xom ashyoni qazib olish bilan shug'illanadi, shuning uchun bu tarmoq korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin bo'lgan joylarda joylashtiriladi.

Asosiy kimyo tarmog'i mineral o'gitlar va turli xil kislotalar, tuzlar ishlab chiqaradi. Sulfat kislotasini tashib yurish qiyin, uni tashish uchun kislotaga chidamli materiallardan yasalgan maxsus sisternalar kerak bo'ladi. Ammo uning xom ashyosini tashish osonroq. Shu sababli sulfat kislotasi ishlab chiqaradigan zavodlar, kislotasi ishlatiladigan xududlarda, ya'ni iste'molchiga yaqin quriladi. Sulfat kislotasi metallurgiya kombinatlarida ham ishlab chiqariladi. Bularda sulfat kislotasi rangli metallarni eritganda chiqadigan oltingugurt gazidan olinadi.

Superfosfat zavodlari o'gitlar iste'mol qilinadigan joylarda qiriladi. Chunki 1 t xom ashyodan 2 t o'git tayyorlanadi, ammo o'git ishlab chiqarish uchun juda ko'p sulfat kislotasi ishlatiladi. Tarkibida fosfor ko'p bo'lgan o'gitlar ishlab chiqaruvchi yangi superfosfat zavodlari ko'proq xom ashyo manbalariga yaqin qurilmoqda, chunki xom ashyoga nisbatan tayyor maxsulotni tashish qulayroq.

Azotli va kaliyli o'gitlar zavodlari ham xom ashyo manbalariga yaqin quriladi. Azotli o'gitlar zavodlarida tabiiy va yo'ldosh gazlardan foydalaniladi. Shu sababli, bunday zavodlar neft qazib chiqariladigan rayonlarda, magistral gaz quvurlari o'tgan yerlarda, metallurgiya kombinatlari yonida quriladi.

Polimerlar kimyosida maxsulot birligini olish uchun ko'p miqdorda issiqlik va elektr energiyasi, suv va maxsus tayyorlangan xom ashyo sarflanadi. Shu sababli, polimerlar ishlab chiqarish neft maxsulotlari ishlab chiqaradigan, ko'mir kokslanadigan joylarda, arzon energiya, yoqilg'i va suv bor xududlarda barpo qilinadi. Tayyor maxsulot (plastmassa buyumlar) ishlab chiqaradigan korxonalar iste'molchini hisobga olib quriladi.

Jahonda kimyo sanoati rivojlanishi bo'yicha AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Rossiya, Xitoy yetakchi hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda yaqin vaqtlargacha tog' kimyosi yetakchi edi. 70-yillardan boshlab neft qazib olinadigan davlatlarda (Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi davlatlarida) neft kimyosi sanoati rivojlanmoqda.

Kimyo sanoati maxsulotlarini mashinasozlik (plastmassa, oyna, rezina), to'qimachilik sanoati (tola, bo'yoqlar), qishloq xo'jaligi (o'gitlar, zaharli moddalar), transport (motor yoqilg'isi, surtish moyi, sintetik yoqilg'i), qurilish (yopishqoq material, plyonka, oyna, plastik) oladi.

O'zbekistonda mineral o'gitlar, sulfat kislotalar, sun'iy tola, rezina, lok-bo'yoq, plastmassa buyumlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar rivojlangan.

Tayanch tushunchalar: Kimyo sanoati, mineral o'g'itlar, kislotalar, tuzlar ishlab chiqarish, O'zbekistonda Kimyo sanoati maxsulotlarini ishlab chiqarish.

SAVOLLAR:

1. Kimyo sanoati qanday hususiyatga ega?
2. Tog' kimyosini joylashtirishda qanday omillar hisobga olinadi?
3. Sulfat kislota zavodlari qanday joylarga kurilgani yaxshi buladi?
4. Superfosfat zavodlarichi?
5. Kimyo sanoati eng yaxshi rivojlangan mamlakat kaysilar?
6. Kimyo sanoati maxsulotlari kaysi tarmoqlarda ishlatiladi?

ADABIYOTLAR:

1. A.S.Asomov «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari» Toshkent. 1985 yil.

2. X. Vaxobov, M. Tillaboeva «iqtisodiy geografiya asoslari» Toshkent. 2001 yil
3. Xrushev A., Geografiya promeshlennosti. Moskva 1989

Mavzu: METALLURGIYA SANOATI

REJA:

1. Umumiy ma'lumot
2. Qora metallurgiya
3. Rangli metallurgiya

Metallurgiya xalq xo'jaligini konstruksion materiallar bilan ta'minlaydigan tarmoqdir. Metallurgiya sanoati ikki yirik tarmoqni o'z ichiga oladi: qora va rangli metallurgiya.

QORA METALLURGIYA

Qora metallurgiya sanoati temir rudasi qazib olish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat.

Qora metallurgiya xalq xo'jaligining o'zagi hisoblanadi va uning asosiy tarmoqlari bilan bog'langan. U mashinasozlikka va qurilish industriyasiga metall beradi, qazib chiqariladigan ko'mirning katta qismini ishlatadi. Kimyo sanoatining asosiy xom ashyo manbalaridan biri hisoblanadi (koks ishlab chiqarish chiqindilaridan olinadi), qishloq xo'jaligiga tarkibida fosfor bo'lgan shlak-o'g'it beradi, temir yo'l izlari (reklar), vagonsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik uchun metall beradi.

Metallning asosiy qismi metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqariladi. Metallurgiya sanoatida xom ashyoga ketma-ket ishlov beradigan kombinatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday kombinatlarda temir rudadan domna pechlarida cho'yan eritib olinadi, suyuq cho'yan va temir-tersakdan eritish pechlarida (konverter, marten, elektr pechlarda) po'lat eritiladi, po'latdan esa prokat (tayyor maxsulot) olinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti metallurgiya sanoatida metall eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metall olishning yangi, unumliroq usullarini joriy qilishga olib keldi, bu po'lat sifatini oshirishni va prokatning xilma-xil turlarini olishga imkon berdi. Metall olishning eng yangi usuli metallni domnadan tashqarida olishdir.

Qora metallurgiyada ishlab chiqarishning markazlashuvi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Hozirgi paytda bitta yirik domnada bir qancha zavodda eritilgan miqdorda temir eritilmoqda.

Ammo ilmiy-texnika inqilobi natijasida temir eritishning yangi usullari ixtiro qilinishi va ishlab chiqarishga joriy qilinishi munosabati bilan kichik-kichik metallurgiya zavodlari qurish keng takomillashmoqda (bu hususiyat Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar uchun xos).

Metallurgiya kombinatlari juda ko'p xom ashyo va yoqilg'i talab qiladi. Shuning uchun metallurgiya korxonalari xom ashyo va yoqilg'i manbalariga yaqin yoki ular oralig'ida joylashtiriladi.

Bir tonna cho'yan ishlab chiqarishga sarf bo'ladigan materiallar miqdori metallurgiyaning texnik darajasiga bog'liq. Xom ashyo va yoqilg'i harajatlari cho'yan tan narxining 80 foizini tashkil qiladi.

Kokslanuvchi ko'mir qora metallurgiya uchun asosiy yoqilg'i bo'lib hisoblanadi. Tarkibida karbonat kalsiy bo'lgan oxaktosh va dolomitlar flyus sifatida ishlatiladi. Metallni eritish paytida flyuslar metallmas jins va koks kuli bilan birgalashib domna chiqindisini hosil qiladi. O'tga chidamli materiallar (shamotdan yasaladigan buyumlar) metallurgiya pechlari qurish uchun kerak bo'ladi. Bir tonna po'lat eritish uchun 150 kg o'tga chidamli material sarf bo'ladi. Qora metallurgiya zavodlari suvni ham ko'p ishlatadi. Suv metallurgiya agregatlarini sovitish, gazni tozalash va boshqalar uchun kerak bo'ladi. Metallurgiya zavodining 1 tonna maxsuloti uchun 900 m³ suv ishlatiladi, agar aylanma suv ta'minotidan foydalanilsa 15—20 m³ suv sarflanadi.

Shuning uchun metallurgiya korxonalarini joylashtirishda suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta'minlash va tabiatni muxofaza qilish masalalari ham e'tiborga olinadi.

Umumiy ruda yoki yoqilg'i resurslaridan foydalanuvchi va xalq xo'jaligining metallga bo'lgan asosiy ehtiyojini ta'minlovchi bir guruh metallurgiya zavodlari asosiy metallurgiya bazasi deb ataladi.

Rossiyada Ural, Markaziy Osiyo va Sibir, Ukrainada Janubiy, AQSH va Kanadada Buyuk ko'llar atrofi, Xitoyda Shimoli-Sharq, Germaniyada Rur metallurgiya bazalari bor.

Qora metallurgiyaning asosiy xom ashyosi bo'lgan temir rudasi hozirgi paytda 50 dan ortiq mamlakatda qazib olinadi, ammo asosiy qazib oluvchi davlatlar Rossiya, Braziliya, Xitoy, Avstraliya, AQSH, Kanada hisoblanadi. Eng yirik temir rudasi xavzalari ham shu mamlakatlarda joylashgan: Krivoy Rog (Ukraina), Kursk magnit anomaliyasi — KMA (Rossiya), Itabira va Karajas (Braziliya), Ak-shan (Xitoy), Yuqori ko'l

(AQSH), Labrador (Kanada). Jahonda qazib olinadigan temir rudasining 50 foizi eksport qilinadi. Boy temir rudalari tarkibida foydali metallar miqdori 50 foizdan ortiq, qambag'al rudalarda esa 25—50 foiz bo'ladi.

Umuman ruda deb tarkibida hozirgi texnika imkoniyati doirasida ajratib olish iqtisodiy jixatdan foyda beradigan miqdorda foydali komponentlari (muhim elementlar yoki minerallar) bo'lgan tog' jinslari yoki mineral agregatlarga aytiladi.

RANGLI METALLURGIYA

Rangli metallurgiya rangli metallarni qazib chiqarish, boyitish, eritish hamda qotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Rangli metallar ilmiy-texnika inqilobi davrida mamlakatni elektrlashtirish, uning mudofaa saloxiyatini mustaxkamlash, atom texnikasi, aviatsiya, raketasozlikni rivojlantirish, qora metallurgiya va kimyo sanoati uchun muhim ahamiyatga egadir.

Rangli metallar 6 ta guruhga bo'linadi:

- 1) og'ir metallar (mis, qalayi, qo'rg'oshin, nikel, rux);
- 2) yengil metallar (alyuminiy, magniy, titan);
- 3) qimmatbaxo metallar (oltin, kumush, platina);
- 4) qiyin eruvchi metallar (volhfram, molibden);
- 5) nodir metallar (uran, germaniy va boshqalar);
- 6) legirlovchi metallar (xrom, nikel, titan, vanadiy, volhfram).

Ular qator hususiyatga ega bo'lib, ba'zilar (qalayi, qo'rg'oshin, nikel) korroziyaga chidamli, ayrimlari issiqqa chidamli (titan), elektr tokini yaxshi o'tkazadi (alyuminiy, mis, kumush). Bundan tashqari, ruda tarkibida rangli metallar miqdorining ozligi va bir vaqtda bir necha rangli metallarning uchrashi ularning muhim hususiyatlaridan biridir. Bu esa texnologik jarayonga va ishlab chiqarishni joylashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Og'ir metallar rudalari o'z tarkibida metall miqdorining kam bo'lishi bilan farq qiladi. Mis rudalari tarkibida odatda 0,5—2 foiz mis bo'ladi, 1 t mis olish uchun 100 t, 1 t qalayi olish uchun esa 300 t dan ortiq ruda kerak bo'ladi. Shuning uchun juda ko'p miqdordagi keraksiz jinslarni ishlatmaslik maqsadida ular oldindan boyitiladi.

Foydali qazilmalarni boyitish deganda rudaning keraksiz qo'shilmalarini chiqarib tashlash yoki yangi moddalar qo'shish yo'li bilan ularning foydali sifatini yaxshilash tushuniladi.

Mis rudalarini boyitish natijasida olinadigan kontsentratlar (foydali qazilmalarni boyitish natijasida hosil qilinadigan maxsulot) tarkibida metall 8 foizdan 25 foizgacha bo'ladi.

Shuning uchun og'ir metallarni boyitish va ishlab chiqarish zavodlari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Demak, energiyani ko'p talab etmasligi va boyitilgan rudada misning kam (8 foizdan 25 foizgacha) bo'lishi tufayli, mis va nikel eritish zavodlari xom ashyoga yaqin joylarda quriladi.

Og'ir rangli metall rudalarining yana bir xususiyati ularning kompleksligidir. Mis, qalayi, rux, qo'rg'oshin rudalarida o'nlab boshqa metallar, hamda oltingugurt bo'ladi, shu sababli rangli metallurgiyada xom ashyoga kompleks ishlov berish kombinatlari quriladi. Masalan, Rossiyadagi Norilsk kombinatida nikel, mis va kobaltdan tashqari yana 14 xil maxsulot olinadi.

Kontsentratlarni qaytargich pechlarida eritish natijasida boy mis rudalaridan yarim maxsulot — tarkibida 40 foizgacha sof mis bo'lgan shteyn olinadi.

Uni qayta ishlash natijasida tarkibida 98—99 foiz metall bo'lgan qora mis olinadi.

Qo'rg'oshin, rux va qalayining boyitilgan rudalari tarkibida metall ko'p bo'ladi. Shu sababli ko'p energiya talab qiladigan rux ishlab chiqarish (qo'rg'oshin ishlab chiqarishdan farq qilib) ruda qazib olish rayonlaridagina emas, balki yoqilg'i manbalari yonida ham joylashtiriladi.

Alyuminiy ishlab chiqarish ikki asosiy jarayondan iborat, ya'ni alyuminiy oksidlari (glinozyom) ishlab chiqarish va metall-alyuminiy olish. Bir tonna glinozyom olish uchun o'rta hisobda 2,4—4,0 t boksit, 2,6 t shartli yoqilg'i va 2,0—3,5 t oxaktosh kerak bo'ladi. Nefelindan glinozyom ishlab chiqarilganda bir tonna glinozyom olish uchun 1 t nefelin, 9 t oxaktosh, 3 t yoqilg'i zarur. Shuning uchun glinozyom ishlab chiqaradigan zavodlar xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Metall-alyuminiy elektroliz yo'li bilan glinozyomdan olinadi, bunda ko'p miqdorda elektr energiyasi (1 t alyuminiy olish uchun 20 ming kVt/soat) talab qilinadi. Shuning uchun yengil metall bo'lgan alyuminiy zavodlari arzon elektr energiya manbalariga yaqin quriladi. 1 t alyuminiy olish uchun 2 t glinozyom, 250 kg kriolit (glinozyomning erituvchisi, dala shpatidan olinadi), 1 t elektrod (ularni tayyorlash uchun antrait, grafit, gudron,; toshko'mir unidan foydalaniladi) kerak bo'ladi. Alyuminiy turli qotishmalar tariqasida aviatsiya va avtomobil sanoatida, binokorlikda ishlatiladi. Alyuminiydan yasalgan simlarning elektr o'tkazish xususiyati

mis simlarnikidan ancha past bo'lsa ham, ammo ular yengil bo'lganidan katta afzalliklarga ega.

Magniy alyuminiyga qaraganda ancha yengil metall, u zich qotishmalar, alyuminiy-magniy qotishmalari olishda qo'llaniladi, u yorug'lik signallari uchun material bo'lib hisoblanadi, pirotexnikada (piro—olov) ham ishlatiladi. Magniy xom ashyosi bo'lib xlorli magniy, magnezit va dolomitlar, xlormagniyli sho'r ko'llardagi rapalar (sho'r ko'llarning tuz miqdori yuqori bo'lgan suvlari) hisoblanadi. Magniy ishlab chiqarish alyuminiy ishlab chiqarishga nisbatan ko'p energiya talab qiladi (1 t magniy olish uchun 26—30 ming kVt/soat).

Nikel odatda mis, temir, kobalt bilan birgalikda uchraydi. U idish-tovoq, laboratoriya va texnika uskunalari yasashda ishlatiladi. Turli xil metall buyumlarni qoplash, pardoqlash (nikellash) uchun ham foydalaniladi.

U temir, mis, rux va boshqa metallar bilan aralashtirilib kotishmalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Nikelni po'latga aralashtirganda po'latning pishiqligi ortadi. Yuqori sifatli po'lat va maxsus qotishmalar ishlab chiqarish (tanga, qurollar ishlab chiqarish, kemalarning qoplamalarini tayyorlash) munosabati bilan XIX asr oxirida nikel xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan bo'ldi.

Qalayi rudalari boyitilishi natijasida tarkibida 65 foiz qalayi bo'lgan kontsentratlar olinadi. Boyitish korxonalari xom ashyo manbalariga, qalayi eritish esa iste'molchiga yaqin yerlarda joylashtiriladi.

Texnikaning rivojlanishi bilan yangi-yangi materiallarga talab oshdi. Bunday materiallarga turli xil qiyin eriydigan va nodir metallar (titan, niobiy, berilliy, tantal, kadmiy, germaniy, orkoniy, uran va h.k.) kiradi.

Titan metali, titan kotishmalari aviatsiya texnikasida qo'llaniladi. germaniy yarim o'tkazgich material sifatida keng miqyosida ishlatiladi. Bu materiallar radio-texnikada, elektr texnikasida, elektrvakum sanoatida juda katta va tubdan o'zgarishlar yasamoqda. Germaniy toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir tarkidan ajratib olinadi (miqdori 0,001—0,002 foiz).

Qimmatbaho metallarni (oltin, kumush, platina) boyitish fabrikalari ham, eritish zavodlari ham xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Rangli metallurgiya juda ham murakkab va xilma-xildir. Uning har bir tarmog'i o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu esa ushbu tarmoq korxonalarini joylashtirishda muhim o'rin tutadi.

Rangli metallurgiyaning boyitish korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. Kontsentrat tarkibida metall miqdori kam bo'lganligi metall erituvchi zavodlarni ham xom ashyo manbalariga

yaqin qurishni taqozo qiladi. Rux va nikel zavodlarini joylashtirishda yoqilg'i omili ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Elektr energiyasini juda ko'p sarflashni talab qiladigan alyuminiy, magniy va titan zavodlarini joylashtirishda arzon elektr energiya manbalari ahamiyatga ega.

Og'ir metallar turli maqsadlarda ishlatiladi. Misdan sof xolida ham, qalayi bilan (bronza), nikel bilan (melxior), alyuminiy bilan (duralyuminiy), rux bilan (latun) qotishma xolida ham elektrotexnikada va mashinasozlikda keng foydalaniladi. Qo'rg'oshin akkumulyatorlar, elektr kabellari ishlab chiqarishda va atom sanoatida ishlatiladi. Nikelning 80 foizdan ortig'i qora metallurgiyada ishlatiladi. Temir buyumlar zanglamasligi uchun rux bilan sirlanadi. Qalaydan oq tunuka va podshipniklar yasashda foydalaniladi.

Jahonda quyidagi mamlakatlarda rangli metallurgiya yaxshi rivojlangan: Rossiya, XXR, AQSH, Kanada, Avstraliya, Braziliya, Yaponiya va Yevropa davlatlarida.

Jahonda mis eritish bo'yicha AQSH, Yaponiya, Rossiya, Chili, Zambiya, Kanada, Belhgiya, Germaniya, Polsha; ko'rgoshin va rux eritish bo'yicha AQSH, Yaponiya, Belhgiya, Frantsiya; qalayi eritish bo'yicha Malayziya, Indoneziya, Braziliya; alyuminiy eritish bo'yicha Rossiya, AQSH, Avstraliya, Frantsiya, Vengriya, Braziliya yetakchi. Yaponiya, Kanada, Norvegiyada alyuminiy sanoati chetdan keltirilgan xom ashyo asosida ishlaydi, asosiy boksit eksport qiladigan davlatlar — Avstraliya, Gvineya, Yamayka, So'rinam.

Demak, rangli metallurgiya sanoati ham asosan rivojlangan davlatlarda yaxshi rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlarda esa asosan qazib olish va boyitish korxonalari joylashgan.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Metallurgiya, rangli va qora metallurgiya, domna va Martin jarayoni, foydali qazilmalarni boyitish, rangli metallar guruhlari

SAVOLLAR:

1. Metallurgiya qanday tarmoqlarga bo'linadi?
2. Qora metallurgiya sanoati deb nimaga aytiladi?
3. Metallurgiya kambinatlarini qurishda qanday omillarga e'tibor beriladi?
4. Metallurgiya bazasi deb nimaga aytiladi?

5. metallurgiya bazalari kayerlarda joylashgani ma'qul?
6. Hozirda nechta mamlakat qora metallurgiya qazib oladi? Eng asosiy qazib oluvchi mamlakatlar qaysilar?
7. Rangli metallurgiya deb nimaga aytiladi?
8. Rangli metallar turlari?
9. Foydali qazilmalarni boyitish deganda nimani tushunasiz?
10. Jahonda mis, qalay eritish buyicha qaysi mamalkatlar oldingi o'rinda turadi?

ADABIYOTLAR:

1. X.Vaxobov, M.Tillaboeva «iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent. 2001 «Oqituvchi» nashriyoti»
2. A.S.Soliev «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb muammolari»
3. A.G. Xrushev «geografiya promqshlennosti». Moskva 1989. yil
4. «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» Assonov G, Nabixonov M, Safarov I. Toshkent 1984 yil
5. A.S.Soliev «iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ro'zalar matni.

Mavzu: MASHINASOZLIK SANOATI

REJA:

1. Umumiy ma'lumot.
2. Mashinasozlikning xalq xo'jaligida tutgan o'rni.
3. Mashinasozlik tarmoqlarini ommalashtirish shartlar.i

Mashinasozlik xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun jixozlar ishlab chiqaradigan o'zaro bog'langan sanoat korxonalarining murakkab tizimidan iborat. Shuning uchun har bir tarmoqni joylashtirish o'ziga xos shart-sharoitlar bo'lishini taqozo qiladi.

Mashinasozlik sanoatini joylashtirishda juda ko'p omillar va sharoitlar hisobga olinadi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchi navbatda mashinasozlik zavodlarining ixtisoslashuvi va hamkorlashuvi (kooperativlashuvi), chunki ixtisoslashuv ularni joylashtirishga va maxsulot chiqaradigan rayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi paytda zamonaviy mashinalar ishlab chiqarish uchun juda ko'p miqdorda metall, plastmassa, bo'yoqlar, rezina, gazlama, yog'och-

taxta kerak bo'ladi. Bitta mashinani tayyorlash uchun bir necha ming qismlar (detallar) kerak bo'ladi. Masalan, bitta samolyot 120 ming detaldan iborat. Bu qismlarning hammasini bitta korxonada ishlab chiqarish iqtisodiy jixatdan noqulaydir. Shuning uchun mashinasozlikda ixtisoslashishga katta e'tibor beriladi. Mashinasozlikda ixtisoslashishning uch turi ajratiladi:

a) ayrim qismlarni (detallarni) ishlab chiqarishga ixtisoslashish. Masalan, g'ildiraklar, rezina-texnika buyumlari, porshenlar, podshivniklar va boshqa detallar ishlab chiqaradigan zavodlar;

b) ma'lum bir maxsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashish. Masalan, avtomobil, traktor, stanok va boshqa xil mashinalar ishlab chiqaradigan zavodlar;

v) ayrim texnologik jarayonni bajarishga ixtisoslashish (turli xil sexlar).

Xom ashyoning xilma-xilligi va mashinalar tuzilishining hususiyatlari ayrim qismlarni ishlab chiqaruvchi bir qancha mashinasozlik korxonalarining bir-biri bilan, shuningdek boshqa tarmoqlarning metall, plastmassa, rezina va xokazolarni yetkazib beruvchi korxonalari bilan hamkorlashuvini (kooperativlashuvini) talab qiladi.

Bunday korxonalar bilan muntazam hamkorlik qilish uchun transport rivojlangan bo'lishi kerak.

Shuning uchun qulay transport magistrallarining bo'lishi mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda albatta hisobga olinadi.

Zamonaviy mashina ishlab chiqarish texnologik jarayonlarning murakkabligi bilan ajralib turadi. Murakkab texnologik jarayonlarni faqat yuqori malakali ishchilarni ilmiy-texnik xodimlar bajarishi mumkin. Shuning uchun ham mashinalarning tan narxi shu mashina yasaladigan materiallar tan narxidan yuzlab marta ortiq bo'ladi. Chunki mashina tan narxining kattagina qismini ishchilar maoshi tashkil qiladi.

Shu sababli mashinasozlikni joylashtirishda malakali ishchi va ilmiy-texnik xodimlar sonining yetarli bo'lishi ham hisobga olinadi.

Bunday tarmoqlarga energetika, elektrotexnika, avtomobil, aviatsiya mashinasozligi va stanoksozlikning ko'p mehnat va fan talab qiladigan sohalari kiradi.

Mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste'molchi yoki rayonning ixtisoslashuvi ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ba'zi bir rayonlarga bug'doy o'radigan kombaynlar, ba'zilariga paxta teradigan mashinalar, ba'zilariga to'qimachilik dastgoxlari kerak va h.k. Shuning uchun paxta terish mashinalari ishlab chiqarish korxonalari paxtachilik

rayonlarida, kombaynlar ishlab chiqarish donchilik rayonlarida, to'qimachilik mashinasozligi to'qimachilik rivojlangan rayonlarda joylashtiriladi.

Demak, mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar ham hisobga olinishi kerak.

Mashinasozlikning turli tarmoqlari turli miqdorda metall sarflaydi. Ba'zilar juda ko'p metall talab qiladi. Bir dona mashina ishlab chiqarish uchun ko'p miqdorda metall kerak bo'lsa, bunday mashinasozlikni ko'p metall (material) talab qiluvchi mashinasozlik deb ataladi. Bunday korxonalarni joylashtirishda metallurgiya bazasi ham hisobga olinadi. Ushbu tarmoqlarga shaxta va metallurgiya asbob uskunalari ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

Demak, ayrim mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda metallurgiya bazasi ham hisobga olinishi zarur. Mashinasozlikning ayrim tarmoqlarini joylashtirish uchun yuqoridagi omillarni bittasi kifoya qilsa, ayrimlarini joylashtirish uchun esa, bir necha omilni hisobga olishga to'g'ri keladi. Masalan, traktorsozlik metallurgiya bazasiga ham, iste'molchiga ham yaqin bo'lishi kerak.

Shunday qilib, mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda transport sharoitlari, malakali ishchilar, iste'molchilar va yirik metallurgiya korxonalarining mavjudligi hisobga olinadi.

Mashinasozlik quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: energetika, transport, qishloq xo'jaligi, stanoksozlik, sanoatning turli tarmoqlari uchun jixozlar ishlab chiqarish, binokorlik va yo'l mashinalari, priborlar ishlab chiqarish va h.k.

Energetika mashinasozligi bug' qozonlari, bug' turbinalari, gidroturbinalar, ichki yonish dvigatellari, generatorlar, elektromotorlar, transformatorlar, yuqori voltli apparatlar, kabel va xokazolar ishlab chiqaradi.

Transport mashinasozligiga lokomotivsozlik (teplovoz va elektrovozlar ishlab chiqarish), vagonsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik va aviasozlik kiradi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi traktorsozlikni, kombaynlar, yerga ishlov beruvchi, qishloq xo'jalik ekinlarini ekadigan mashinalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Stanoksozlik tarmog'ida turli xil stanoklar ishlab chiqariladi.

Bulardan tashqari, ushbu sanoatga to'qimachilik mashinasozligi, kimyo sanoati mashinasozligi, binokorlik, irrigatsiya mashinasozligi,

kundalik turmushda ishlatiladigan mashinalar ishlab chiqarish va boshqalar kiradi (soat, televizor va h.k.).

Mashinasozlik sanoati ishlab chiqaradigan maxsulotning hajmi va unda band bo'lgan ishchilar soni bo'yicha ham sanoatning boshqa tarmoqlari orasida birinchi o'rinda turadi. Ammo jahon bo'yicha bu tarmoqning joylanishi juda ham notekisligi bilan ajralib turadi. Mashinasozlikning rivojlanish darajasi jixatidan jahonda AQSH, Yaponiya, G'arbiy yevropa davlatlari, Rossiya, Xitoy ajralib turadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda mashinasozlikning ayrim tarmoqlari rivojlangan, ayrimlarida esa umuman yo'q. Ba'zilarida (Xindiston, Braziliya, Argentina) yaxshi rivojlangan. Indoneziyada, Eronda, Misrda, Jazoir, Venesuelada, Kolumbiya va Peruda ham bu tarmoq rivojlanmoqda.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik mashinasozligi, to'qimachilik mashinasozligi, irrigatsiya mashinasozligi yaxshi rivojlangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin avtomobilsozlik sanoati barpo qilindi (1996 yilda Asaka avtomobil zavodi ishga tushirildi).

Tayanch tushunchalar: mashinasozlik sanoati, mashinasozlikda ixtisoslanish, O'zbekistonda mashinasozlikning rivojlanishi.

SAVOLLAR:

1. Mashinasozlik sanoati joylashtirishda qanday omillarga e'tibor beriladi?
2. Bu sanoatning qanday tarmoqlari bor?
3. Mashinasozlik ixtisoslashtirishning qanday turlari mavjud?
4. Transport mashinasozligida nimalar ishlab chiqiladi?
5. Mashinasozlikning rivojlanish jixatidan jahonda qanday mamlakatlar ajrab turadi?
6. O'zbekistonda mashinasozlikning qanday turlari bor?
7. Mashinasozlikning endigina rivojlanayotgan mamalakatlarga kaysilarni kiritish mumkin?

ADABIYOTLAR:

1. X.Vaxobov, M.Tillaboeva «Iqtisodiy geografiya asoslari» Toshkent. 2001 yil
2. A.S.Soliev «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari» Toshkent. 1995 yil

3. Xrushev A.G. «Geografiya promishlennosti» Moskva. 1989 yil
4. A.S.Soliev «Iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ro'zalar matni

Mavzu: O'RMON SANOATI, BINOKORLIK SANOATI.

REJA:

1. Umumiy ma'lumot.
2. O'rmon sanoati haqida.
4. Binokorlik sanoati.

O'rmon sanoati quyidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi: daraxt kesish, yog'ochsozlik (taxta tilish, mebel, gugurt ishlab chiqarish va h.k.) sanoati, sellyuloza-qogoz va o'rmon-kimyó sanoati.

O'rmon sanoati korxonalari bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ya'ni birining maxsuloti ikkinchisi uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Yog'och tayyorlash korxonalari taxta tilish zavodlariga yog'och beradi, taxta esa mebel sanoati uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Yog'och tayyorlash korxonalari chiqindilari (shox-shabba) va yog'ochsozlik chigitlari (qipiq, po'stloq, qirindi) o'rmon sanoatida spirt, moy va bo'yoklar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Shu sababli ham, o'rmon-kimyó kombinatlari ko'rish keng tarqalgan.

O'rmon sanoatining bir-biriga yaqin joylashgan va xom ashyo, energiya, transportdan birgalikda foydalanishga hamda chiqindilarni to'lik kayta ishlashga asoslangan mustaxkam ishlab chiqarish aloqalariga ega bo'lgan korxonalar o'rmon sanoati majmuasi deb ataladi.

O'rmonlar vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: sanitariya o'rmonlari (shaharlar atrofida); tuproqni, dalalarni, suvni muxofaza qiluvchi o'rmonlar (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar bo'yida); qo'riqxonalar o'rmonlari. Bunday o'rmonlarda daraxtlarni sanoat maqsadlarida kesish man qilinadi. Shu sababli, o'rmon resurslariga xo'jalik jixatdan baho berganda o'rmon bilan qoplangan butun maydon hisobiga olinmaydi, balki o'rmonning sanoat uchun kesishga ruxsat etilgan maydoni hisobga olinadi. Bundan tashqari, xududni o'rmon bilan qoplanganlik darajasi (o'rmon bilan oplangan butun maydonning shu xududning butun maydoniga nisbati) degan iqtisodiy ko'rsatkichdan foydalaniladi.

O'rmon sanoatining ayrim tarmoqlari xom ashyo manbalari yaqiniga, dengiz, daryo, temir yo'l bilan yaxshi ta'minlangan joylarga, ayrim tarmoqlari esa iste'molchiga yaqin xududlarda joylashtiriladi.

Yog'och tayyorlash o'rmon sanoati ishlab chiqarishining 75 foizini tashkil qiladi.

O'rmon sanoati ishlab chiqarishi bir-biri bilan bog'langan quyidagi bosqichlardan iborat:

a) yog'och tayyorlash (daraxt kesish, uni transport magistrallariga olib chiqish, qayta ishlash markazlariga yetkazib berish). Bu tarmoq asosan xom ashyo manbalari yaqinida joylashtiriladi;

b) yog'ochga mexanik ishlov berish: taxta tilish, fanera, gugurt, mebel, idish ishlab chiqarish. Taxta tilish sanoati ham xom ashyo manbalariga yaqinroq joylashtiriladi.

Fanera asosan oq qayin va olxa daraxtidan tayyorlanadi, shu sababli fanera ishlab chiqarish korxonalari ko'proq aralash va keng bargli o'rmonlar tarqalgan joylarda. Hozir igna bargli daraxtlardan ham fanera ishlab chiqarilmoqda. Gugurt ishlab chiqarish sanoatida xom ashyo tok terakdan foydalaniladi. Shuning uchun gugurt korxonalari asosan shu daraxtlar tarqalgan joylarda quriladi. Mebel sanoati ko'prok iste'mol rayonlarida quriladi;

v) yog'ochga kimyoviy ishlov berish (o'rmon-kimyo): sellyuloza, qog'oz, karton, skipidar, kanifol va boshqa narsalar ishlab chiqaradi. Sellyuloza-qog'oz sanoati qog'oz, karton, qog'oz qoplar tayyorlash uchun yarim fabrikalar bo'lib xizmat qiladigan yog'och massasi va sellyuloza ishlab chiqaradi. Sellyulozadan sun'iy tola, plastmassalar, kino plyonkalar ishlanadi. Qog'oz massasi mexanik usul bilan, ya'ni suvda yaxshilab iritilgan yog'ochni maydalab kukun qilish yo'li bilan olinadi. Sellyuloza yog'ochni termik usul bilan ishlash natijasida hosil qilinadi. Sellyuloza ishlab chiqarish ko'p miqdorda suv talab qiladi va qog'oz olish uchun ko'p elektr energiya sarf bo'ladi.

Jahonda yog'och tayyorlash bo'yicha AQSH, Rossiya, Kanada, Shvetsiya, Finlyandiya, Braziliya, Tropik Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari yetakchi hisoblanadi.

Binokorlik sanoati

Binokorlik sanoati qurilish uchun turli xil materiallar ishlab chiqaradi va quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: gisht, sement, beton, tabiiy toshlar, oyna, shifer va boshqa materiallar ishlab chiqarish.

G'isht ishlab chiqarish juda keng tarqalgan. Oddiy, ichi g'ovak g'ishtlar hamda shlakobloklar ishlab chiqariladi. G'ishtni tuproq va oxakni bir-biriga qo'shib tayyorlanadi sovuqqa chidamli bo'ladi. Qurilishda qizil g'isht bilan bir qatorda pishirilmagan silikatli g'ishtlar ham ishlatiladi. Bunday g'ishtlar oxak va qumni bir-biriga aralashtirib qo'yilib, keyin qozonlarda yuqori bosim ostida bug'latib tayyorlanadi.

Sement qurilishda keng ishlatiladigan material. Sement xom ashyosi bo'lib karbonatli (oxaktosh, bo'r, mergel) va gilli (gil, soz tuproq, gilli slanets) tog' jinslari hamda sement ishlab chiqarish uchun yaroqli bo'lgan qator ishlab chiqarish tarmoqlarining chiqindilari (domna ko'llari, nefelin maydalari va boshqalar) hisoblanadi. Sement ishlab chiqarishda ishlatiladigan karbonat tog' jinslarining tarkibi quyidagicha bo'lishi kerak: SaO — 43,5 foizdan yuqori; MgO — 2,5 foizgacha; gilli tog' jinslarining tarkibi: — SiO_2 — 50—60 foiz; Al_2O_3 — 15—20 foiz; Fe_2O_3 — 6—10 foiz.

Jahonda sement ishlab chiqarish bo'yicha AQSH va Rossiya yetakchi. Sement zavodlari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Beton ishlab chiqarish hozirda juda keng rivojlangan. Bunda temirbeton buyumlari ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Temirbeton asosan temir armaturasi va betondan iborat. Beton xom ashyosi bo'lib qum, shag'al va sement hisoblanadi.

Oyna ishlab chiqarish. Oyna tayyorlash uchun kvartslı qum, soda (ishkor) va oxak ishlatiladi. Soda o'rniga glauber to'zini ishlatish mumkin. Oyna materiallarining eng keng tarqalgan turi deraza oynasidir. Bundan tashqari shisha idishlar, turli xil texnik qurilish detallari, shisha bloklar, quvurlar va plitalar tayyorlanadi.

Oynasozlik zavodlarini joylashtirishda xom ashyo va yoqilg'i resurslari hisobga olinadi. Bir tonna oyna (shisha) olish uchun 1 tonna qum va 1 tonna yoqilg'i sarflanadi.

Tabiiy toshlar ham qurilishda keng qo'llaniladi. Ular marmar, granit, kvartslı porfir, oxaktosh, qumtosh, sienit, diorit, gabbro, bazaltdan iborat.

Bulardan tashqari, binokorlik materiallari sanoatiga shifer, ruberoid, tayyor uy bloklari ishlab chiqarish ham kiradi.

Tayanch iboralar: yengil sanoat, trikotaj, ko'n, poyabzal, muyna, jut, ip-gazlama, yog, pishloq, go'sht tayyorlash, gisht, sement, beton, tabiiy tosh, oyna, shifer kabi materiallar ishlab chiqarish, shifer, ruberoid, tayyor uy bloklarini ishlab chiqarish

SAVOLLAR:

1. O'rmon sanoati qanday tarmoqlarga bo'linadi?
2. O'rmon sanoati majmuasi deb nimaga aytiladi?
3. O'rmonlar vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. O'rmonlar sanoat ishlab chiqarishning qanday boskichlarida mavjud?
5. Jahonda yogoch tayyorlashda kaysi mamlakatlar yetakchi o'rinda turadi?
6. Yogochda kimyoviy ishlov berishda nimalar ishlab chiqariladi?
7. Binokorlik sanoati qanday tarmoqdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. A.S. Soliev «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning deolzarb masalalari»
2. A.G. Xrushev «Geografiyapromishlennosti» Moskva. 1989 yil.
3. X.Vaxobov, M.Tillaboeva «Iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent. «Ukituvchi» nashriyoti. 2001 yil

Mavzu: YENGIL SANOAT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

R E J A:

1. *Yengil sanoat tarmoqlari.*
2. *Oziq-ovqat sanoati.*

Yengil sanoatda keng iste'mol mollari ishlab chiqariladi va u quyidagi tarmoqlardan iborat: ip-gazlama, jut, jun, trikotaj, ko'n, poyabzal, mo'yna va boshqalar.

Yengil sanoatga xom ashyoni asosan qishloq xo'jaligi yetkazib beradi (paxta, zigir tolasi, jun, ko'n (teri, mo'yna), Hozirgi paytda kimyo sanoati maxsulotlari ham yengil sanoat xom ashyosi bo'lib hisoblanadi (sun'iy tola).

Ip-gazlama, jun gazlama, shoyi va zigir tolasidan gazlama ishlab chiqarish to'qimachilik sanoatini tashkil qiladi.

Gazlama to'qish jarayoni bir necha boskichlardan iborat:

— xom ashyoga dastlabki ishlov berish bosqichi, paxta tozalash, zigir tolasiga ishlov berish, jun yuvish (pillachilik korxonalarida amalga oshiriladi);

— ip yigirish bosqichi (ip yigiradigan korxonalarda amalga oshiriladi);

— gazlama to'qish bosqichi (to'qimachilik korxonalarida amalga oshiriladi);

— pardozlash bosqichi (bo'yash va gul bosish sexlarida amalga oshiriladi).

Ushbu barcha bosqichlar aloxida-aloxida joylashgan yigirish, to'qish yoki pardozlash fabrikalarida amalga oshirilishi mumkin, ammo transport harajatlari (har bir fabrikadan yuklarni olib ketish va tushirish) maxsulot tannarxini oshirib yuboradi. Demak, to'qimachilik ishlab chiqarishini bir korxonada — kombinatda to'plash foydaliroq bo'ladi.

Xom ashyoga dastlabki ishlov berish korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. To'qimachilik korxonalarida ko'proq ayollar ishlaydi, shuning uchun ushbu sanoatni aholi ko'p to'plangan shaharlarda va og'ir sanoat rivojlangan xududlarda joylashtiriladi.

Trikotaj va tikuvchilik sanoati korxonalarini joylashtirishda ular maxsulotlaridan foydalanadigan xududlar hisobga olinadi. Chunki bu sanoat uchun kerak bo'lgan kalavalarni tashish tayyor maxsulotni tashishdan qo'layroq va arzonroq.

Demak, to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar, mehnat resurslari va xom ashyo manbalari hisobga olinadi.

Yengil sanoatning eng muhim tarmoqlaridan biri ko'n-poyabzal sanoatidir. Tabiiy ko'n (teri) bu sanoat tarmog'i uchun xom ashyo bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, sun'iy teri, rezina, parusina (kanopdan to'qilgan dag'al qalin mato), jun (piyma uchun) ham xom ashyo sifatida ishlatiladi. Chorvachilikning turli xududlarda ixtisoslashuviga qarab, ushbu sanoatning xom ashyosi xilma-xil bo'ladi. Ko'n sanoatini joylashtirishda xom ashyo manbai muhim o'rin tutadi. Ammo go'sht kombinatlarining chiqindisi hisoblangan terilar ham bu sanoatni joylashishiga ta'sir ko'rsatadi. Poaybzal sanoati iste'molchiga yaqin joylarda barpo etiladi.

Oziq-ovqat sanoati

Ushbu tarmoq aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlaydigan 30 dan ortiq ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan bo'lib, qishloq xo'jaligi

bilan chambarchas bog'langan. Oziq-ovqat sanoati joylashishida xom ashyo va iste'molchi omili muhim o'rin tutadi.

Oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarishda harajatning ko'p qismi qishloq xo'jalik xom ashyosiga sarf bo'ladi. Shakar ishlab chiqarishda xom ashyo harajati 65 foiz; yog', pishloq va go'sht tayyorlashda 90 foizgacha boradi. Bir tonna shakar olish uchun 5—6 tonna qand lavlagi talab qilinadi. Shuning uchun oziq-ovqat sanoatining bir guruh korxonalari (kand, shakar, vino va h.k.lar ishlab chiqarish) xom ashyo manbalar yaqin joylarda barpo etiladi.

Demak, qand-shakar ishlab chiqarish qand lavlagi yetishtiradigan joylarda, vino zavodlari uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, rivojlangan joylarda, sut maxsulotlari ishlab chiqarish sut chorvachiligi rayonlarida barpo etiladi, yog' sanoati paxta, kungaboqar, zig'ir, soya va boshqa moyli ekinlar ekiladigan rayonlarda barpo etiladi.

Go'sht kombinatlari chorvachilik rivojlangan joylarda barpo qilinadi, ammo keyingi paytlarda yirik shaharlar atrofida ham go'sht kombinatlari, parrandachilik fabrikalari qurilmoqda. Baliq sanoati asosan baliq ovlanadigan xududlarda rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoatining boshqa bir guruhi iste'molchiga yaqin joylashtiriladi. Bunday tarmoqlarga non zavodlari, makaron, konditer fabrikalari kiradi.

SAVOLLAR:

1. Yengil sanoat qanday tarmoqlarga bo'linadi?
2. Gazlama tuqish jarayoni necha boskichli bo'ladi?
3. Engil sanoat tarmoqlarini joylashtirishda qanday omillar muhim rol o'ynaydi?
4. Oziq-ovqat sanoati joylashtirishda nimalarga e'tibor beriladi?
5. Oziq – ovqat sanoati tarmoqlarini izohlab bering?

ADABIYOTLAR:

4. A.S. Soliev «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning deolzarb masalalari»
5. A.G. Xrushev «Geografiyapromishlennosti» Moskva. 1989 yil.
6. X.Vaxobov, M.Tillaboeva «Iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent. «Ukituvchi» nashriyoti. 2001 yil.

Mavzu: QISHLOQ XO'JALIK GEOGRAFIYASI

REJA:

1. *Umumiy tushunchalar.*
2. *Dehqonchilik.*
3. *Chorvachilik.*
4. *Qishloq xo'jaligini xududiy tashkil etilishi va tabiiy zonalari buyicha ixtisoslashuvi.*

Qishloq xo'jalik geografiyasi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi joylashuvining xududiy muammolari va asosiy qonuniyatlari bilan shug'ullanadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi inson xo'jalik faoliyatining ilk va eng qadimgi shakllaridan biri hisoblanadi.

Sanoatdan farq qilib, qishloq xo'jaligi bir kancha o'ziga xos hususiyatlarga ega. Birinchidan, u rel'ef, iqlim va qo'proq sharoiti turlicha bo'lgan maydonlarda olib boriladi. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mavsumiydir. Uchinchidan, tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining rivojlanishiga, joylashishiga va ixtisoslashuviga juda katta ta'sir qiladi.

Qutbiy mintaqalarda juda ko'p joylar qor bilan qoplanib yotganligi uchun hozircha xo'jalikda foydalanilmaydi. Bu o'lkalarning janubida va shimolida bug'uchilik rivojlangan. Mo'tadil mintaqaning igna bargli o'rmonlari ham qishloq xo'jaligini yuritish chegaralangan. Faqat ushbu o'rmonlarning janubiy qismining ochiq yerlarida bir oz dehqonchilik qilinadi, ammo yoz (issiq) mavsumining qisqaligi dehqonchilikni rivojlantirishni cheklab qo'yadi. Umuman, o'rmon zonasining (tayga, aralash va keng bargli) asosiy hususiyati yog'ingarchilikning ko'pligi, yozgi haroratning nisbatan pastligidir. Shu sababli, bu yerlarda dehqonchilikning ayrim tarmoqlari rivojlangan (zig'irchilik, kartoshkachilik, oziq o'simliklari va pichanbop o'simliklar yetishtirish). Ammo tuproqlari unumdor, o'simliklar asosiy oziqni tuproqdan oladi.

Jahon bo'yicha o'rmon-dasht, dasht, chala cho'l va cho'l (voxalarda) zonalari asosiy ekin ekiladigan yerlar hisoblanadi. O'rmon-dasht va dasht zonasida eng hosildor bo'lgan qora tuproqlar tarqalgan, shuning uchun ushbu zona yuqori o'zlashtirilgan xudud hisoblanadi. Chala cho'l va cho'l zonalarida sugorma dehqonchilik rivojlangan. Bu yerlarda musbat haroratlar yigindisi yuqori bo'lgani uchun issiqsevar ekinlar qo'proq yetishtiriladi.

Tabiiy sharoit qanday bo'lishidan qat'i nazar, qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi sarf qilingan mehnatning miqdori va sifatiga, texnika va o'g'itlardan foydalanish darajasiga bog'liq. Ushbu ko'rsatkichga qarab, qishloq xo'jaligi ekstensiv va intensiv xo'jalikka bo'linadi.

Qishloq xo'jalik maxsulotlarini ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollari sonini oshirish hisobiga yetishtirish ekstensiv xo'jalik deb ataladi.

Insoniyat tarixining juda katta davri mobaynida qishloq xo'jaligi asosan ekstensiv yo'l bilan rivojlandi. Yangi yerlar ko'pincha o'rmonlar hisobiga kengaytirilgan. Hozirgi davrda ham juda ko'p rivojlanayotgan, kam rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan rivojlanmoqda.

Maydon birligida (1 ga ekin maydonidan) agrotexnika vositalaridan qo'proq foydalanish yoki chorva mollarining qo'proq maxsuldor zotlarini yaratish hisobiga qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish intensiv xo'jalik deb ataladi.

Intensiv xo'jalik rivojlangan davlatlar uchun xos bo'lib, qishloq xo'jaligida sodir bo'lgan «Yashil inqilob» ga asoslanadi. Ushbu davlatlarda asosan tovar qishloq xo'jaligi rivojlangan. Chunki bu davlatlarda qishloq xo'jaligida barcha ko'l mehnatini asosan mashinalar bajaradi. Yuqori sifatli mineral o'g'itlardan foydalaniladi, zararkunandalarga qarshi zaharli kimyoviy dorilardan, chorva mollari kasalliklariga qarshi kurash vositalaridan keng foydalaniladi.

Mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish va kimyolashtirish qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va jadallashtirishning asosiy yo'lidir.

Yer qishloq xo'jaligida mehnat majmui va ayni paytda mehnat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun yerdan to'g'ri foydalanish va uning hosildorligini saqlash qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biridir.

Intensiv xo'jalikni barpo qilish uchun yerlarni melioratsiya qilish, ya'ni yer xolatini yaxshilash ishlarini (sugorish, zax va botkoklarni kuritish, tuproqqa oxak solish, daraxt o'tkizish va h.k.) olib borish kerak. Bunda kompleks melioratsiya tadbirlari yaxshi natija beradi (shamol va suv eroziyasiga karshi ko'rash, gumrok hosildorligini oshirish).

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar qishloq xo'jalik yerlari deb ataladi.

Qishloq xo'jalik yerlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: xaydaladigan yerlar (sug'oriladigan va lalmikor yerlar); bog' va

uzumzorlar; pichanzorlar; yaylovlar; bug'u yaylovlari; o'rmonlar, butazorlar va h.k.

Jahonda sug'oriladigan yerlar xaydaladigan (shudgor qilinadigan) yerlarning 15 foizi (230 mln ga)ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Xitoyda 30 foiz, Xindistonda 28 (foiz, AQSHda 15 foiz, Pokistonda 70 foizni) tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi ikkita katta tarmoqdan iborat: dehqonchilik va chorvachilik. Qishloq xo'jaligi xodimlarining asosiy vazifasi xo'jalik yuritishni jadallashtirish yo'li bilan ekinlar hosildorligini va chorvachilik maxsuldorligini oshirishdir.

Qishloq xo'jaligini xududiy tashkil etilishi va tabiat zonalari bo'yicha ixtisoslashuvi

Tabiiy sharoit va aholi ehtiyojlari turlicha bo'lganligi sababli, qishloq xo'jaligi hamma joyda bir xil emas. Shuning uchun ham tabiiy sharoitga qarab, ma'lum bir joyning qishloq xo'jaligi muayyan maxsulot yetishtirishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashishga tabiiy sharoitning zonalar bo'yicha o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Har bir tabiat zonasida qishloq xo'jaligining muayyan bir tarmog'i yetakchi hisoblanadi va boshqalaridan keskin farq qiladi.

1. Arktika va Antarktikaning muz cho'llari zonasi. Bu yerlarda hozircha qishloq xo'jaligining xech qanday tarmog'i rivojlanmagan.

2. Subarktika mintaqasining tundra va o'rmon-tundra zonasida qishloq xo'jaligi asosan bug'uchilikka ixtisoslashgan. Bug'uchilik bilan birga ovchilik qilinadi va baliq tutiladi, Iqlim sharoiti murakkab hamda noqulay, tuproq qoplami yupqa, botqoqlashgan, o'rtacha yillik harorat past bo'lganligi sababli bu yerlar dehqonchilik uchun yaroqsiz. Subantarktika mintaqasi deyarli okean suv yuzasidan iborat bo'lganligi uchun (Antarktika yarim orolining shimoliy qismidan tashqari) asosan mavsumiy baliqchilik rivojlangan.

3. Shimoliy mo'tadil mintaqaning o'rmon zonasida chorvachilik, daryo vodiylarida va ochiq joylarda hamda kesilgan o'rmonlar o'rnida dehqonchilik rivojlangan. Shimoliy Amerikaning igna bargli o'rmonlarida asosan yirik shoxli qoramolchilik rivojlangan. Markaziy tekislikdagi aralash va keng bargli o'rmonlarning o'rnida hozirgi paytda dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. O'rmonlar faqat Appalachi tog'larida va Ogayo daryosining yuqori oqimida saqlanib qolgan. Aralash va keng bargli o'rmonlarning shimoliy qismida bog'dorchilik, markaziy va janubiy

qismlarida esa makkajo'xori yetishtiriladi. Dehqonchilik bilan birga qoramolchilik va cho'chqachilik yaxshi rivojlangan. G'arbiy yevropaning igna bargli o'rmonlar zonasining (Skandinaviya yarim oroli) shimolida bug'uchilik, janubida qo'ychilik va qoramolchilik rivojlangan. Ayrim yerlarda orol ko'rinishida dehqonchilik rayonlari joylashgan. Bu rayonlarda yaylov va o'tloqlar bo'lgani uchun qoramolchilik ham yaxshi rivojlangan. G'arbiy yevropada aralash va keng bargli o'rmonlar o'tgan asrdayoq kesib tashlanib o'rnida dehqonchilik (bug'doy), qand lavlagi yetishtirish, bog'dorchilik yaxshi rivojlandi. Chorvachilikning qoramolchilik va cho'chqachilik tarmog'i yetakchi.

Sharqiy yevropada igna bargli o'rmonlarning janubiy qismida va aralash o'rmonlardi (Boltiqbo'yidan Uralgacha) zig'ir, o't va yem-xashak ekinlari yetishtiriladi, shuning asosida bu yerlarda sut chorvachiligi rivojlangan. Sanoat shaharlari atrofida, shuningdek, aralash o'rmonlar zonasining Belorussiya qismida kartoshka yetishtiriladi. Sut va kartoshkani qayta ishlash chiqindilari asosida cho'chqachilik rivojlangan.

Osiyo igna bargli o'rmonlarining g'arbiy qismining (G'arbiy Sibir) janubida katta maydonlarda donli ekinlar yetishtiriladi, yem-xashak ekinlari kam, shuning uchun chorva mollari tabiiy yaylovlarda va pichanzorlarda boqiladi. Sut chorvachiligi yaxshi rivojlangan, Osiyoning sharqiy qismida (Markaziy Yoqutiston), igna bargli o'rmonlar zonasida chorvachilik bilan dehqonchilik yaxlit xududda olib boriladi

Mo'tadil mintaqaning o'rmon-dasht va dasht zonasida asosan eng hosildor qora tuproqlar tarqalganligi uchun bu zona xududi hamma materiklarda deyarli o'zlashtirilgan hamda asosiy dehqonchilik rayoni hisoblanadi. Ushbu xududlarda (Shimoliy Amerikada — Buyuk tekisliklar) asosan bug'doy va makkajo'xori yetishtiriladi. Chorvachilikning qoramolchilik va cho'chqachilik tarmog'i keng miqyosda rivojlangan. Bu rayon Shimoliy Amerikada bug'doy mintaqasi deb ataladi. yevrosiyaning o'rmon-dasht zonasida donli ekinlar bilan almashlab ildiz mevali yem-xashak ekinlar, dukkakli don ekinlari, kartoshka yetishtiriladi. Kartoshka va g'alla chiqindilari asosida qoramolchilik, cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan. O'rmon-dasht zonasining iliq va sernam janubi-garbiy qismida qand lavlagi yetishtiriladi va unga almashlab kuzgi bug'doy hamda makkajo'xori ekiladi. Bog'dorchilik yaxshi rivojlangan Sharqiy yevropa tekisligining dasht zonasida bug'doy va makkajo'xori ekiladigan yerlar katta maydonlarni eg'allaydi. Makkajo'xori asosida go'sht-sut chorvachiligi va parrandachilik yaxshi rivojlangan. Moyli ekinlardan kungabokar ko'p

ekiladi G'arbiy Sibir va Kozog'iston dashtlarida asosan bahorgi bug'doy ekiladi. Qoramollar tabiiy yaylovlarda, qurg'oqchil janubii qismida esa quy boqiladi. G'arbiy Sibirning suv bosadigan o'tloqlarida sut-go'sht qoramolchiligi rivojlangan Uzoq Sharqda esa donchilik, soyachilik va sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan.

Mo'tadil mintaqaning cho'l va chala cho'llarida go'shg-jun va teri yetishtiriladigan quychilik rivojlangan. Quylar bahorgi cho'l yaylovlaridan tog' yaylovlariga xaydab boqiladi, kuzda yana cho'lga qaytarib kelinadi. Turkiston cho'llarida qorako'lchilik bilan shug'ullaniladi.

4. Turkistonning (O'rta Osiyoning) cho'llari va tog' hamda tog' oralig'idagi yirik daryo vodiylarida (Farg'ona, Zarafshon, Mirzacho'l, Surxon, Sherobod, Xorazm, Chu va boshqa vodiylar va voxalar), Kavkazning sharqiy qismida sug'orma dehqonchilik rivojlangan Janubiy mo'tadil mintaqaning juda katta qismi okean suvlaridan iborat. Ushbu mintaqada janubiy baliqchilik zonasi joylashgan. Orollar asosan o'rmonlardan iborat, Janubiy Amerikaning mo'tadil mintaqasi qismida asosan quy boqiladigan yaylovlar va ayrim joylarda shudgor qilinadigan yerlar uchray turadi (sharqiy qismi Patagoniyada). G'arbiy qismi o'rmon bilan qoplangan.

Shimoliy subtropik mintaqaning dasht va mavsumiy nam hamda musson o'rmonlari zonasida don ekinlari, paxta, janubiy qismlarida araxis yetishtiriladi (Shimoliy Amerikada). Janubiy yarim sharning subtropik dashtlarida makkajo'xori, bug'doy yetishtiriladi, ular asosida qoramolchilik rivojlangan (Argentina pampalarida). G'arbiy yevropaning sernam subtropik mintaqasida bog'dorchilik, uzumchilik, sitrus ekinlari yetishtirish rivojlangan. Chorvachilikning qo'ychilik tarmog'i yaxshi rivojlangan. Osiyo cho'llarida qo'ychilik va tuyachchilik yaxshi rivojlangan. Afrikaning shimolida sitrus ekinlari yetishtiriladi, janubida esa makkajo'xori ko'proq ekiladi. Avstraliyaning subtropik mintaqasida bog'dorchilik maxsulotlari yetishtiriladi.

5. Tropik mintaqaning shimoliy va janubiy yarim sharning qismlarida cho'l, chala cho'l va savannalar ko'proq tarqalgan. Dengiz bo'ylarida esa nam tropik o'rmonlari tarqalgan. Markaziy Amerikaning tropik qismida shakarqamish, banan, sholi, kofe, tamaki, makkajo'xori yetishtiriladi. Qirgoqlar o'rmon bilan qoplangan. Janubiy Amerikada esa paxta, shakarqamish, banan yetishtiriladi. Afrikaning tropik cho'llarida asosan cho'l yaylovlari keng tarqalgan. Voxalarda xurmo daraxti, daryo vodiylarida paxta yetishtiriladi, Osiyodagi tropik cho'llarda qo'ychilik, tuyachchilik rivojlangan. Voxalarda xurmo yetishtiriladi. Avstraliyaning tropik cho'llarida qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Shimoliy va shimoli-

sharqiy qismida ko'ychilik bilan birga qoramolchilik ham rivojlangan. Avstraliyaning sharqiy qirgoqlarida nam tropik o'rmonlar tarqalgan, bu yerlarda shakarqamish, tamaki, bug'doy, ananas yetishtiriladi.

6. Subekvatorial iqlim mintaqasida savanna va siyrak o'rmonlar hamda mavsumiy nam o'rmonlar zonasi joylashgan. Janubiy Amerikaning savanna va siyrak o'rmonlarida tabiiy kauchuk, kakao, paxta, kofe va banan yetishtiriladi. Chorvachilikning qoramolchilik tarmog'i rivojlangan. Shimoliy subekvatorial mintaqada banan, shakarqamish va kofe yetishtiriladi. Qirgoqbo'yi rayonlarida baliqchilik rivojlangan. Afrikaning subekvatorial mintaqasida ham dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Bu yerlarda paxta, kofe, banan, kakao, araxis yetishtiriladi. Osiyoda ham asosan dehqonchilik yaxshi rivojlangan (Xindiston va Xindixitoy yarim orollari). Bu yerlarda asosan shakarqamish (Shimoliy Xindistonda), sholi, suli, tabiiy kauchuk, choy, paxta yetishtiriladi.

7. Ekvatorial mintaqaning doimiy yashil nam o'rmonlar zonasida asosan tabiiy kauchuk yetishtiriladi (Amazoniya, Kongo xavzasi, Sumatra, Kalimantan, Sulavesi orollari).

8. Tog'li rayonlarning katta qismida chorvachilik, o'rmonlarning ochiq, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli, sernam va issiq yetarli joylarida qisman dehqonchilik rivojlangan. Xitoyda tog' oldi va qiyaligi, uncha katta bo'lmagan tog'larda asosan sholi ekiladi.

9. Yirik shaharlar atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi tarkib topgan. Dehqonchilikning sabzavot va polizchilik, chorvachilikning ko'proq parrandachilik tarmog'i yaxshi rivojlangan.

SAVOLLAR:

1. Qishloq xo'jaligining asosiy o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ekstensiv va intensiv xo'jalik degnada nimani tushunasiz?
3. Qishloq xo'jaligi xodimlarini asosiy vazifalari nima?
4. Dehqonchilikning qanday tarmoqlari mavjud?
5. Bugdoy jahonda nechta mamalakatda teishtiriladi va bugdoyni eng ko'p yetishtiradigan davlatlar kaysilar?
6. Chorvachilikni qanday tarmoqlari bor va shu tarmoqlar qanday maxsulotlar yetishtirali
7. Qoramolchilik va kuychilik kaysi mamlakatlarda rivojlangan? Nima uchun?
8. Subarktika mintaqasida asosan qishloq xo'jaligini nimaga ixtisoslashgan?

9. Asosiy dehqonchilik rayoni kaysi intaka hisoblanadi? U yerda nimalar yetishtiriladi.
10. Tog'li rayonlar ixtisos tarmog'i nima?

ADABIYOTLAR:

1. Ro'ziev A « Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari» Toshkent. 1990 yil
2. A.S.Soliev «Iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ruza matni
3. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Assonov G, Nabixonov M, Safarov I. Toshkent 1994 yil
4. X.Vaxobov, M. Tillaboeva «iqtisodiy geografiya asoslari» Toshkent, 2001 yil

Mavzu: AGROSANOAT MAJMU'I. AGROBIZNES.

R E J A:

1. *Agrosanoat to'g'risida tushuncha.*
2. *Agrar munosabatlar.*
3. *Renta va uning turlari.*
4. *Agrobiznes va uning tarkibi.*

Agrosanoat qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sanoat tarmoqlarining o'zaro aloqadorligi natijasida yuzaga keladi. Agrosanoat majmui quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Qishloq xo'jaligi.
2. Qishloq xo'jaligi uchun texnikalar, mineral o'g'itlar, urug'lar, kimyoviy moddalar va boshqa shu kabi maxsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari.
3. Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari (paxta tozalash zavodi, oziq-ovqat korxonalari, to'qimachilik korxonalari va boshqalar).

Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma jabhalarini, jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi. Mazkur tizimda agrar munosabatlar alohida o'rin tutadi. Yer bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi. Bu munosabatlarning ob'ekti yer bo'lsa, uning sub'ektlari yer egalari, yerda xo'jalik yurituvchilar,

nihojat, yerga mehnat to'kuvchi kishilar hisoblanadi. Agrar munosabatlar o'ta ko'hna, iqtisodiy munosabatlarning eng qadimiy shakli, chunki insonning iqtisodiy faoliyati yerni ishlashdan boshlangan.

Bozor tizimi agrar munosabatlarga yangicha mazmun beradi. Yerning tovarga aylanish, yerga xilma-xil mulkchilikning paydo bo'lishi, yerning tadbirkorlik ob'ekti bo'lishi, yerning garovga qo'yilishi, nihojat yer uchun pul shaklida renta undirilishi, agrobiznesning maxsus faoliyat turiga aylanishi bozor tizimi bilan bog'liq. Agrar munosabatlarning ob'ekti bo'lmish yer maxsus resurs bo'lganidan uning xususida ham o'zigagina xos bo'lgan iqtisodiy aloqalar kelib chiqadi. Yer har qanday ishlab chiqarishning umumiy sharti. Yerdan tashqarida ishlab chiqarishning bo'lishi mumkin emas. Insoniyat hali koinot makonida ishlab chiqarishni uyushtirganicha yo'q. Yerda qishloq xo'jaligi yuritiladi, sanoat, qurilish korxonalari joylashadi, yer ustidan va ostidan yo'llar o'tadi, yer qa'rida qazilma boyliklar joylashgan, yerda o'rmon xo'jaligi yuritiladi, turar-joy va madaniy-maishiy binolar qad ko'taradi va hokazo. Shu sababli har qanday iqtisodiy faoliyat ma'lum darajada yer bilan bog'langan deb aytamiz.

Qishloq xo'jaligi uchun yer asosiy shilab chiqarish omili vazifasini o'taydi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish ikki yoqlama xarakterga ega: birinchidan, iqtisodiy jarayon bo'lsa, ya'ni inson mehnati natijasida yuz bersa, ikkinchidan tabiiy-biologik jarayon bo'lib, mahsulot yetishtirish tabiiy omillarga, masalan, o'simlik yoki hayvonlarda kechadigan biologik o'zgarishlarga, iqlim sharoitiga, ob-havoning qanday kelishiga, tuproqning tabiiy hossalarga bog'liq. Qishloq xo'jaligi insonning tabiati bo'lgan munosabati bilan kishilarning o'zaro munosabatlari yaxlitlikda borishini talab qiladi va iqtisodiyotning agrar sektorini tashkil etadi. Bu sohada asosiy resurs yer bo'lib, u hech bir tengi yo'q, tanho o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ammo yer eng cheklangan resurs, uni mehnat bilan yaratib bo'lmaydi. Ko'pgina resurslar bir-birining o'rnini bosa oladi. Masalan, mehnat resursini mashina bilan almashtirish mumkin. yerniig o'rnini esa hech bir resurs bosa olmaydi, shu jihatdan u o'ta noyob va asosiy resurs hisoblanadi. Uning asosiyliigi shundaki, yer boshqa resurslarga qo'shimcha sifatida amal qilmaydi. Masalan, sanoatda stanoklarga qo'shimcha resurs sifatida kompyuter va uning programmalari qo'llanadi. yerni boshqa resurs bilan almashtirib ham bo'lmaydi, ammo uning muqobil ishlatish usullari g'oyat ko'p bo'ladi. Shu sababli yerga talab muttasil oshib boradi. Bu talab yer bilan bog'liq

bo'lgan ishlab chiqarishning kengayishi va yerning unumdorligiga qarab o'zgaradi.

Yer cheklangan, uni ishlab chiqarib bo'lmaydi, ammo foydalaniladigan yerlarni ularga investitsiya sarflab ko'paytirish mumkin. Masalan, qo'riq yerlarni sug'orish va botqoq hamda zax yerlarni qurutish orqali ekin maydoni tabiatan cheklangan bo'lsada, shu doiradan chiqmagan holda yaroqsiz yerlar hisobidan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni ko'paytirish mumkin. Yer resursi cheklalganligidan yerning taklifi noelastik, ya'ni o'zgarmaydigan bo'ladi. Bu bilan yer boshqa resurslardan jiddiy farqlanadi. Ma'lumki, agar talab oshsa, bunga javoban taklif ham ko'payadi, lekin yer bu qoidadan istisno etiladi, chunki yer tabiat mevasi bo'lganidan uni mehnat bilan ko'paytirib bo'lmaydi. Yer hammabop resurs. Unda dehqonchilik qilish, undirma sanoat yurgizish, qurilish qilish mumkin. Undan har xil maqsadda va har xil yo'l bilan foydalanish mumkin. Yer tabiat mahsuli bo'lganidan uning sifati jiddiy tabaqalashadi, yer uchastkalari turli tabiiy-iqlim mintaqalarida joylashadi, tuproqning tarkibi har xil bo'ladi. Shu sababdan yerlarning tabiiy hosildorligi keskin farqlashdi. O'ta yaxshi, yaxshi, o'rtacha, yomon va nihoyat o'ta yomon yerlar mavjud. Qishloq xo'jaligida yerning sifati mehnat unumdorligining muhim omili hisoblanadi.

Yerga ikki xil monopoliya mavjud bo'ladi. Birinchidan, yer qadri-qiymati baland resurs sifatida mulk monopoliyasida turadi, ya'ni egasi yo'q yer bo'lmaydi. Yer cheklangan miqdorda bo'lganidan uni mulk sifatida ko'paytirib ham bo'lmaydi. Bunday hodisa yerga mablag' sarflashni uning egasiga bog'liq qilib qo'yadi. yer egasining mulkdor sifatida manfaati bor, ya'ni u o'z yeridan naf ko'rishi kerak. Shu sababli yer ishlatish uchun tekinga berilmaydi, egasiga undan foydalanish haqini to'lash zarur. Ikkinchidan, yer xo'jalik yuritish ob'ekti sifatida egallab olinadi, ya'ni yerda turli xo'jaliklar tashkil topadi, yaroqli yer bo'sh turmaydi. Xullas, yaroqli yerlar doim band bo'ladi. Yer resurs sifatida egalari qo'lida bo'lar ekan, ular boshqa resurs egalari singari uy xo'jaliklari tarkibiga kiradi. Binobarin, uy xo'jaliklari o'rtasida munosabat yer xususida ham bo'ladi. Yer mulk bo'lganidan mulkdorning rozilgisiz uni ishlatib bo'lmaydi. Undan foydalashi uchun uning egasiga haq to'lash kerak. Yer o'z egasining mulki bo'lib qolgani holda vaqtincha boshqa mulk sohibi, xususan tadbirkor tomonidan ishlatilishi mumkin.

Yerdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddatda foydalanish yuzasidai kelib chiqqan iqtisodiy aloqalar ijara munosabatlari deyiladi. Yer egasi ijaraga beruvchi, yerni ishlatuvchi esa ijaraga oluvchi

bo'ladi. Ularning munosabati ijara bitimi bilan qonunlashtiriladi. Ijara mulk egasini o'zgartirmaydi, ammo ijarachi yerining mulkdori bo'lmasa-da, mutasqil xo'jalik yurita oladi, ijara muddati davomida yerdan foydalanish uning ixtiyorida bo'ladi. Yerdan qanday foydalanish, nimani va qancha yetishtirish, kimga sotish, kimdan qarz olish, resurslarni qaerdan topish - bular ijarachining o'z ishi hisoblanadi. Uning vazifasi yer egasi bilan aloqasi vaqtida ijara haqini to'lab turishdan iborat bo'ladi. Ijaraga ko'lidan kelganicha boylik orttirishi mumkin, tushgan daromadni mustaqil taqsimlaydi va ishlatadi, boshqa iqtisodiy sub'ektlar bilan aloqa qiladi. Ijarachi erkin xo'jalik yurituvchi bo'lganidan ish yuzasidan bo'lgan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi, o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qiladi. Ijarachi yerga mablag' soladi, yerda tadbirkorlik yuritib, foyda ko'radi, o'z manfaatiga erishadi. Yer egasi ham ijara haqi olib manfaatini yuzaga chiqaradi, ya'ni mulki unga daromad keltiradi. yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to'lanadigan haq **renta** deyiladi. Renta mohiyatan qishloq xo'jaligidagi qo'shimcha mahsulotning yer egasiga tekkan qismidir. Yerda ishlovchilar mehnati ham qo'shimcha mahsulot yaratadi, uning qiymati mahsulotning bozor narxiga kiradi. Mahsulot sotilganda xaridorlar shu mahsulot ekvivalentini (unga teng pulni) to'laydilar, binobarin, uning qiymati pul shakliga kiradi va shu hisobdan renta to'lanadi.

2. Renta turlari

Renta yerga bo'lgan mulkning iqtisodiy realizatsiyasi, ya'ni amalga oshirishidir. Yer egasi manfaati yuzaga chiqishi uchun u o'z uchastkasini ishga solib, pul topishi kerak bo'ladi. U o'z yerida dehqonchilik qiladi, korxona yoki har xil xo'jalik, turar-joy binolarini quradi, yerni ijaraga beradi, uni sotadi yoki garovga qo'yib, pul oladi va shu pulni ishlatadi. Yerni ishlatishning bir-biridan farq qiladigan muqobil usullari ko'p. Bu usullardan qay birini tanlash yer egasining ishi. Albatta, mulkdor o'z manfaatidan kelib chiqqan holda, o'zi uchun eng qulay usulni tanlaydi. Bozor iqtisodiyoti tizimida yerni ishlatishdagi (keng tarqalgan usul uni ijaraga berib, renta olishdir.

Renta turlari ko'p, jumladan, absolyut (mutlaq), differensial, monopol renta, qurulish uchastkalaridan va undirma sanoatda olinadigan renta kabilar uning ko'rinishlaridir. Ularning hammasi yerga kapital ko'yilib, mehnat sarflanishi natijasida keladigan va yer egasiga tegadigan daromaddir.

Absolyut renta yer uchastkalarining sifatidan qat'i nazar yer mulk bo'lgani uchun uning egalari oladigan renta. Mazkur renta hamma yerlardan olinadi, lekin miqdoran yomon va hatto eng yomon yerlardan olingan rentaga teng bo'ladi.

Differensial (tabaqalashgan) renta yerning sifatiga qarab olinadigan va rentaning absolyut rentadan ortiqcha bo'lgan qismidir. Yer sifatining har xil bo'lishi, ya'ni tuproqning unumdorligidagi farqlar uni yaratadigan omildir. Tuproq hosildorligi ikki xil bo'ladi: tabiiy va iqtisodiy. Tabiiy hosildorlik tuproqning ximiyaviy va fizikaviy xossalari bo'lib, uni tabiat in'om etgan. Xalq tilida oriqliq yer, semiz yer degan tushuncha qo'llanishi bejiz emas, albatta. Yerning hosildorligi tabiatan har xil bo'lganidan, yerga sarflangan bir miqdordagi resurslar turlicha natija beradi. Yerning sifatiga qarab, muayyan miqdordagi moddiy va mehnat resurslari sarflangan holda, turlicha yalpi hosil olinadi. Masalan, 100 birlikka teng resurs sarflangan holda «A» uchastkasidan har gektariga 40 sentnerdan, «V» uchastkasida 30 sentnerdan bug'doy olinadi. Hosildorlikdagi farqqa qarab renta ham tafovutlashadi.

Tuproqning iqtisodiy hosildorligi yerga qo'shimcha resurs sarflash, ishlov berish orqali, uning sifatini oshiradi, unumdorligini ko'tarishni bildiradi. Iqtisodiy hosildorlikni tabiat emas, balki fan-texnika yutuqlari va mehnat in'om etadi. Iqtisodiy hosildorlikni oshirib borish cheksiz emas, albatta. Yerga sarflangan qo'shimcha resurs hosildorlikni ma'lum chegaraga qadar oshira oladi.

Shu doirada renta ham farqlanadi. Gap shundaki, qo'shimcha resurs sarfiga nisbatan hosildorlik ma'lum darajada o'sadi, keyinchalik u o'smaydi. Differensial rentaning (dif. renta) o'zi differensial renta I va differensial renta II dan iborat bo'ladi. Differensial renta I tuproqning tabiiy hosildorligiga va yer uchastkasining joylashuviga qarab olinadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozor narxi bir xil, ammo o'rtacha xarajatlar esa yerga qarab, har xil bo'lganligi sababli, bozor narxiga asos bo'lgan yomon yerdagi xarajatlar bilan boshqa sifatliroq yerdagi xarajatlar o'rtasidagi farq dif. renta I ni paydo qiladi.

Differensial renta II – tuproqning iqtisodiy hosildorligi natijasidir. Yerga qo'shimcha mablag' sarflab, unga ishlov berish orqali hosildorlikni oshirish natijasida olinadigan renta dif. renta II bo'ladi. Tuproqning tabiiy imkoniyatlari doirasida yerga mablag' sarflash hosildorlikni ma'lum me'yor darajasida oshiradi, o'rtacha xarajatlarni kamaytiradi. Mablag' sarfini samarali ishlatishiga qarab, turli xo'jaliklarning individual xarajatlari tabaqalashadi. Bozor narxi bir xil bo'lib, xarajatlarning har xil

bo'lishi yerga yaxshi ishlov bergan xo'jaliklarda dif. renta II ni hosil etadi. Bunda tuproqning tabiiy emas, balki iqtisodiy hosildorligidagi tafovutlar rentani yuzaga kelitiradi.

Dif. renta II mohiyatan qo'shimcha sarflar keltirgan **qo'shimcha iqtisodiy foyda**, lekin u yer egasiga o'tgandagina rentaga aylanadi. Yerga uning egasi yoki ijarachi ilgari qo'ygan kapital uning sifatini yaxshilaydi. Yerga sarflangan mablag'lar yerga singadi va uning unumdorligini belgilangan me'yorda oshiradi. Sifati oshgan yer qaytadan ijaraga berilganda uning egasi dif. renta II ni ham ijara haqi tarkibida oladi.

Monopol renta alohida tabiiy-iqlim sharoitiga ega bo'lgan, o'ta noyob mahsulot yetishtiriladigan yer uchun uning egasiga to'lanadigan rentadir. Faqat ana shunday yerlarda kamyob mahsulotlar (masalan, choy, kofe, sitrus o'simliklari mevasi, maxsus yog'och - qizil yog'och) yetishtiriladi. Ularga talab katta bo'lgani holda taklif oz bo'ladi, chunki ularni ishlab chiqarish maxsus, kam uchraydigan yer iqlim sharoitini talab qiladi. Mazkur tovarlar taklifi o'zgaruvchan (elastik) bo'lmaydi, chunki narxning o'zgarishi ularni oz yoki ko'p ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi. Shu boisdan kamyob mahsulotlar monopol narxda sotiladiki, bu narx ularni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlardan ancha yuqori bo'ladi, natijada yer egalari monopol renta olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday renta sharoiti nayob yerlar uchun boshqalarga qaraganda yuqori ijara haqi belgilanishida ifoda etiladi. Mazkur renta yo'qolishi ham mumkin, chunki fan-texnika taraqqiyoti tufayli ayrim yerlar o'zining noyob xususiyatini yo'qotadi, bunday yerlarda yetishtiriladigan mahsulotlarni boshqa yerlarda ham yetishtirish imkoniyati paydo bo'ladi, bunga mos navlar yaratiladi, sun'iy iqlim sharoiti yaratiladi va hokazo.

Ilgarilari limon faqat maxsus iliq dengizlar qirg'og'idagi yerlarda yetishtirilgan. Shu boisdan mazkur yerlar monopol renta bergan. Fan-texnika rivoji tufayli limon O'zbekistonda ham yetishtirila boshlandi, binobarin, bu bilan maxsus dengiz bo'yi yerlarining monopol holati tugatildi. Avval hurmo faqat Surxondaryoda yetishtirilgan edi.

Uning boshqa yerlarda ham o'sadigan navlarining paydo bo'lishi Surxon vohasining shu sohadagi monopoliyasini cheklab qo'ydi.

Yer undirma sanoat uchun ham eng (muhim resurs hisoblanadi. Yer qo'ridagi boyliklar uning qadrini oshiradi, chunki yer osti boyliklari bo'lmasa, undirma sanoat ishlay olmaidi. Yerning mulk bo'lishi va boylikka egaligi undirma sanoatda ham renta bo'lishini taqozo etadi. yerda boylik bo'lganidan yer egalarga renta to'lashadi, aks holda bu boylik ishlanmaydi. Qazilma boylikni yerdan ajratib bo'lmaydi, uning

ustidagi va ostidagi boylik yer bilan birgalikda mulk bo'lada. Mulk egasiga, undan foydalanganlik uchun tadbirkorlar renta to'laydilar. Undirma sanoatdagi renta tuproq hosildorligiga emas, balki yer qa'ridagi qazilma boyliklarga, ularning sifatiga, qazib olish xarajatlariga bog'liq bo'ladi. Shubhasiz, sayoz joylashgan, tarkibi boy, geologik sharoiti yaxshi, tashib olish oson boyliklar mavjud yerdan katta renta olinadi, chunki boyliklarni undirib, qayta ishlash kam xarajat talab etadi.

Qurilish uchastkalari uchun ham renta to'lanadi. Bino-inshootlar muallaq turmay, yer ustida qad ko'taradilar. Qurilish dehqonchilik va sanoatga nisbatan yerni ishlatishning muqobil usulidir. Qurilish uchun to'lanadigan renta yerni boshqa usulda ishlatishdan keladigan rentadan ko'p bo'lgan taqdirdagina yer qurilish uchun ijaraga beriladi. Qurilish uchastkasidan undiriladigan renta miqdori faqat tuproq sifatiga emas, balki yerning joylashuv o'rniga ham bog'liq. Agar, yer qanchalik shahar markazida, ekologik sharoiti yaxshi bo'lsa, yoxud u kommunikatsiyalar (transport, aloqa vositalari, yo'llar, suv va issiqlik quvurlari va h. k.) bilan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, renta shunchalik yuqori bo'ladi, chunki bular qurilish xarajatlari va qurilgan bino-inshootlarni ishlatib turish sarfini qisqartiradi.

Renta o'z turlaridan qat'iy nazar uni to'lovchilar uchun xarajat bo'lsa, yer egalari uchun daromad bo'ladi. U bir jihatdan doimiy xarajatlarni shakllantirsa, ikkinchi jihatdan odat'iy belgilangan daromadni tashkil etadi.

Yerga talab uning taklifidan har doim ko'p bo'ladi. Uni nafaqat dehqonchilik, balki sanoat, transport, uy-joy, madaniy-maishiy qurilish ham yuzaga keltiradi. Yerni qishloq xo'jaligi yuritishdan boshqacha, muqobil ishlatish doirasining kengayishi, unga bo'lgan talabni muttasil oshirib boradi.

3. Agrobiznes va uning tarkibi

Agrobiznes deganda qishloq xo'jaligi sohasidagi biznes tushuniladi va u bozor tizimining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Keng ma'noda, bunga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan, biznes turlari kiradi. Agrobiznes rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos. Tarkiban unga qishloq xo'jaligining o'zidagi, shu soha mahsulotini qayta ishlash va iste'molga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatlari kiradi. Agrobiznesning maqsadi bozorni kerakli mahsulotlar bilan kanda qilmay va to'la-to'kis ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznes ishtirokchilari – bu tadbirkor fermerlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi sanoat tadbirkorlari va nihoyat, shu mahsulotni sotish bilan shug'ullanuvchi tijoratchilardir. Bulardan tashqari agrobiznes doirasiga banklar, sug'urta va moliya kompaniyalar ham tortiladi. Agrobiznes ilgarilari qishloq xo'jaligi bilan cheklansa, keyinchalik u agrosanoat integratsiyasi natijasida agrosanoat kompleksini qamrab oladi. Agar differentsiatsiya sanoatning qishloq xo'jaligidan ajralishi bo'lsa, integratsiya ularni bir-biriga chirmashib ketishi yoki ularning sintezidir. Bunday hodisa qishloq xo'jaligi hamda mashinalashgan ishlab chiqarish asosiga ko'chgan, qishloqda ham texnika revolyutsiyasi quloq yozgan sharoitda yuz beradi.

Fermer xo'jaligi qishloqdagi asosiy tovar ishlab chiqaruvchi, u agrosanoat integratsiyasida ishtirok etadi.

Fermer xo'jaligidan tashqari agrobiznes turlari ham bor. Ulardan biri agrofirma. Agrofirma muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib beradigan korxonadir. Bu korxona iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Masalan, chorvachilikda sutni yetishtirish, ushi qayta ishlab, iste'molga tayyor holga keltirish bilan shug'ullanadi. Agrofirmalarda integratsiya ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga taalluqli bo'ladi, har ikki sohaga xos resurslar ishlatiladi, hodimlar malakasi keng bo'lib, ular sanoat mehnati bilan ham shug'ullana oladilar. Agrofirmalar kichik oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topadi. Bu yerda kichik xo'jalik kichik zavod bilan birikadi.

Agrobiznesni yiriklashgan turi – bu agrosanoat birlashmalaridir. Bunday birlashma bir necha xo'jalik va korxonalar faoliyatini integratsiyalashtiradi. Bu yerda ishlab chiqarishning bir necha o'zaro bog'langan turlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar birlashadi.

Tayanch tushunchalar: Agrosanoat, agrobiznes, yer resurslari, renta, agrofirma, agrar munosabatlar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Agrosanoat deganda nimani tushunasiz?
2. Agrosanoatning tarkibiy qismlarini aytib bering.
3. Agrobiznes nima?

4. Agrobiznesning turlarini izohlang.
5. Agrar munosabatlarni tushuntiring.
6. Renta nima?
7. Renta turlarini ayting.
8. Agrofirma deganda nimani tushunasiz?
9. O'zbekistonda agrosanoat majmui qaysi tarmoqlarga asoslangan.
Nima uchun?
10. O'zbekiston agrosanoat tarmoqlarining kelajagini qanday izohlaysiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Ulmasov, M.Sharifxo'jaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, 1995 yil.
2. Ro'ziev A « Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari» Toshkent. 1990
3. A.S.Soliev «Iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ruza matni
4. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Assonov G, Nabixonov M, Safarov I. Toshkent 1994 yil
5. X.Vaxobov, M. Tillaboeva «iqtisodiy geografiya asoslari» Toshkent, 2001 yil

Mavzu: DEHQONCHILIK TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

REJA:

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Donli ekinlar.
3. Texnika ekinlari.
4. Bog'dorchilik.
5. Sabzovotchilik va polizchilik.

Dehqonchilikka don xo'jaligi, texnik ekinlar va kartoshka yetishtirish, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik kiradi.

Don xo'jaligi

Don xo'jaligi aholini don bilan, chorvachilikni esa ozuqa bilan ta'minlaydi. Don ekinlariga bug'doy, javdar, makkajo'xori, sulini, arpa, grechka, sholi va dukkakli don ekinlari kiradi.

Bug'doy jahon aholisining deyarli yarmi uchun asosiy oziq manbai bo'lib hisoblanadi va don ekinlarining 28 foizini tashkil qiladi. Bug'doy

pastroq haroratda o'sa boshlaydi, «qora» sovuqqa birmuncha chidamli, o'sish davri qisqa. Qurg'oqchilikka chidamli emas, ammo erta o'sa boshlagani va yetilish davri qisqa bo'lgani uchun yoz quruq va issiq bo'ladigan rayonlarda ham yetishtiriladi.

Bug'doy 70 dan ortiq mamlakatda yetishtiriladi, ammo uning 80 foizi faqat to'rtta davlatda yetishtiriladi: Xitoy, AQSH, Kanada, Argentina, Avstraliya, Xindistoi, Rossiya. Eng yirik bug'doy ekiladigan mintaqalar AQSH va Kanada dashtlaridadir.

Makkajo'xori ham don, ham oziq sifatida yetishtiriladi. Ertapishar o'simlik, 10—12° haroratda o'sa boshlaydi, sovuqqa chidamsiz, sug'orilsa juda yuqori hosil beradi. Jahonda yetishtiriladigan donli ekinlarning 25 foizini tashkil qiladi. Makkajo'xori yetishtirish bo'yicha AQSH dunyoda birinchi o'rinda turadi. Jahon bozoriga yetishtirilgan maxsulotning 10—15 foizi chiqariladi. Makkajo'xori eksport qiladigan davlatlar AQSH, Kanada, Argentina, Avstraliya, Frantsiya; import qiladigan davlatlar G'arbiy yevropa davlatlari, Yaponiya, Rossiya.

Sholi ham insoniyatning yarmi uchun asosiy oziq manbai bo'lib hisoblanadi va jahonda yetishtiriladigan don ekinlarida uning salmog'i 25 foizni tashkil qiladi. Suvni ko'p talab qiladi, 12—15° haroratda o'sa boshlaydi, tropik kengliklarda ko'proq ekiladi. Shu sababli, sholining 90 foizi Janubiy va Janubi-Sharqiy hamda Sharqiy Osiyo davlatlarida yetishtiriladi. Jahonda yetishtiriladigan sholining 38 foizi Xitoyda, 20 foizi Xindistonda ekiladi. Bundan tashqari, Yaponiya, Indoneziya, Bangladesh, Tailand, Filippin davlatlarida ham asosiy don ekini hisoblanadi.

Javdar hozirgi paytda kamroq ekiladi, u sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli, past haroratda o'sa boshlaydi, tez pishadi. Shimoliy o'lkalarda ko'proq ekiladi.

Suli va arpa erta pishadi. Arpa past haroratda o'sa boshlaydi, «qora» sovuqqa chidamli, tez pishadi. Suli ham past haroratda rivojlana boshlaydi, ammo o'sish davri uzoqroq, qurg'oqchilikka chidamsiz. Nordon tuproqlarda ham o'sa beradi. Shimoliy o'lkalarda arpa sulidan ko'proq ekiladi, chunki «qora» sovuqqa chidamli va tezpishar bo'lganligi uchun qisqa yoz sharoitida pishib yetiladi. Arpa shuningdek tog'larda ham ko'p ekiladi.

Tariq birmuncha yuqori haroratda rivojlana boshlaydi, sovuqqa chidamsiz, qurg'oqchilikka chidamli. Quruq dasht, mo'l va chala cho'llarda ko'proq ekiladi.

Grechixaning o'sish davri qisqaroq, (70—85 kun), rivojlanish harorati 8°. Shuning uchun kech ekiladi. Asosan o'rmon zonasining janubiy qismida ekiladi.

Dukkakli don ekinlariga no'xat, mosh, loviya, yasmiq kiradi.

Texnika ekinlari

Sanoatda xom ashyo sifatida ishlatiladigan qishloq xo'jalik ekinlari texnik ekinlar deb ataladi.

Texnik ekinlar sanoatni turli tarmoqlariga: to'qimachilik (tolali ekinlar), yog' sanoatiga (moyli ekinlar), kand sanoatiga (shakar moddasi bor ekinlari), oziq-ovqat sanoatining boshqa ba'zi bir tarmoqlariga (choy,), tamaki va farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo beradi.

Tolali ekinlar, asosan to'qimachilik sanoati uchun xom ashyo beradi va unga paxta, zigir hamda kanop kiradi.

Paxtachilik. Paxta to'qimachilik sanoati uchun asosiy xom ashyo hisoblanadi. Chigit birmuncha yuqori haroratda (15°) unib chiqadi, o'zoq rivojlanadi, shonalaydi, gullaydi va ko'sak tugadi. G'o'za 25—30° haroratda yaxshi rivojlanadi. 17—20° haroratda rivojlanishi susayadi. Shuning uchun u issiqsevar va yorug'sevar o'simlik hisoblanadi. Paxta mo'tadil mintaqaning janubiy qismlarida, tropik va subtropik mintaqalarning sug'oriladigan yerlarida etishtiriladi. Jahonda yiliga 15—17 mln.t. paxta tolasi yetishtiriladi. Asosiy paxta yetishtiradigan davlatlar quyidagilar: Xitoy, AQSH, Xindiston, O'zbekiston.

Zig'irchilik. Zig'ir pastroq haroratda o'sa boshlaydi, shuning uchun ham erta ekiladi, o'sish (rivojlanish) davri qisqa. Shu hossalari bilan zig'ir qurg'oqchil xududlarda yaxshi moslashgan bo'lib, tuproq qatlamidagi baxorda to'plangan namdan foydalanib, quruqroq mavsum boshlanguncha o'z taraqqiyotini tugallay oladi. Ammo ushbu hossalari uni shimoliy rayonlarda ham keng tarqalishiga imkon beradi. Yoz salqin, yomg'irli va bulutli bo'ladigan rayonlardagina zig'ir yaxshi sifatli tola beradi va hosili yuqori bo'ladi. Bunday rayonlarda zig'irning poyasi uzun va shoxlamaydigan navlari ekiladi. Dasht zonasining yoz quruq va issiq keladigan joylarida esa zig'irning poyasi kalta va sershox navlari ekiladi, bu navlardan asosan moy olinadi.

O'rmon zonasida, ya'ni namgarchilik yuqori bo'lgan shimol va g'arbda zig'ir juda yuqori hosil beradi. Eng shimoldagi rayonlarda zig'irdan yuqori sifatli tola olinadi. Zig'ir asosan qumoq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi.

Kanopchilik. Kanop tolasidan arqon, kanop, dag'al gazlama tayyorlanadi. Ushbu o'simlikning geografik tarqalishi juda keng. Zig'ir kabi kanop ham turli iqlim mintaqalarida yetishtiriladi. Kanopning shimoliy va janubiy navlari bor. Shimoliy navlari o'rmon dasht zonasida ko'proq ekiladi. Ushbu joylarda yog'in nisbatan ko'p va kanop o'simligi sevadigan qumoq tuproqlar ko'proq tarqalgan (Masalan, O'rta Rossiya va Volga bo'yi qirlari). Kanopning janubiy navi mo'tadil mintaqaning janubida va subtropik mintaqada keng tarqalgan (O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlarida va h.k.)

Kauchuk (kau — daraxt, uchu — oqish; tupi tilida) tanasidan juda ko'p tabiiy kauchuk olinadigan sharbati (lateks) bor daraxtdir (geveya, gvayula va h.k.)- Tabiiy kauchukning asosiy qismi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida (Malayziya, Indoneziya, Tailand) yetishtiriladi.

Moyli ekinlar. Moyli ekinlarga paxta, zig'ir, kungaboqar, serept gorchisasi, soya, rijik, kunjut, tung va zaytun daraxti, araxis kiradi. Bir qancha ekinlar faqat moy olish uchun ekiladi. Ekinlarning moyi turli maqsadlarda ishlatiladi. Moyli o'ruklarning chiqindisi (kunjarasi) chorva mollari uchun to'yimli oziqa bo'lib hisoblanadi.

Kungaboqar Rossiya va Ukrainada ko'proq ekiladi. Bir oz issiqsevar, qurg'oqchilikka chidamli, yog'ingarchilik kamroq bo'ladigan rayonlarda yetishtirsa bo'ladi. Jahonda kungaboqar yetishtirish bo'yicha Rossiya yetakchi o'rinda.

Soya yetishtirish bo'yicha jaxonda AQSH birinchi o'rinda turadi, asosan moy olish uchun ekiladi. Araxis yetishtirish bo'yicha Xindiston yetakchi bo'lib, asosan moy olish uchun ekiladi, shuning uchun bu davlat araxis moyi ishlab chiqarish bo'yicha ham jahonda yetakchi. Zaytun daraxtidan yog' olish bo'yicha Italiya birinchi o'rinda. Kunjut issiqtalab bo'lib, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarida ko'proq ekiladi. Ovqatbop yuqori sifatli moy beradi.

Shakar olinadigan o'simliklar. Bunday o'simliklarga shakarqamish va qand lavlagi kiradi. Shakarqamish tropik mintaqada ko'proq yetishtiriladi (Markaziy Amerika, Janubiy Osiyo). Jahonda shakarqamish yetishtirish bo'yicha Braziliya (250 mln t), Xindiston (170 mln t), Kuba (70 mln t), Xitoy (50 mln t) va Meksika (40 mln t) yetakchi o'rinlarda turadi.

Qand lavlagi asosan shimoliy mo'tadil mintaqada yetishtiriladi (Shimoliy Amerika, Yevropa). Qand lavlagi yetishtirish bo'yicha quyidagi davlatlar yetakchi: Ukraina (45 mln t), Rossiya (30 mln t), Frantsiya (30 mln. t), Polsha (26 mln. t), AQSH (23 mln. t).

Tamakichilik mo'tadil mintaqaning janubiy qismi va tropik mintaqalarda rivojlangan (Lotin Amerikasi, Markaziy Osiyo, Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari). Choy subtropik va tropik mintaqalarda yetishtiriladi (Xindiston, Xitoy, Shri-Lanka, Indoneziya va h.k.).

Kartoshka yetishtirish. Kartoshka asosan mo'tadil mintaqada yetishtiriladi (Shimoliy Amerika va yevropa davlatlari). Kartoshka yetishtirish bo'yicha Rossiya, Polsha, Xitoy yetakchi o'rinlarda turadi.

Bog'dorchilik va uzumchilik

Bog'dorchilik mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarda ko'proq tarqalgan va tabiiy sharoitga qarab turli xil mevalar yetishtiriladi. Uzum yetishtirishda Italiya, banan, apelsin va limon yetishtirishda Braziliya, apelsin va limon yetishtirishda AQSH, mandarin yetishtirishda Yaponiya birinchi o'rinda turadi.

Sabzavotchilik va polizchilik

Sabzavot ekinlariga sabzi, piyoz, turp, sholg'om, pomidor, qalampir va boshqalar kiradi. Barcha davlatlarda shahar atrofida yaxshi rivojlangan.

Poliz ekinlariga qovun, tarvuz, xandalak, qovoq, bodring kiradi. Bularning hammasi (bodringdan tashqari) issiqsevar ekin hisoblanadi va asosan mo'tadil mintaqaning janubiy qismida, subtropik va tropik mintaqalarda yetishtiriladi. Afrikaning janubiy tropik mintaqalarida yovvoyi tarvuzlar yetishtiriladi.

Demak, dehqonchilikda tuproq iqlim sharoiti juda muhim omil bo'lib hisoblanar ekan. Ekinlarning rivojlanishiga, hosildorligiga yorug'lik, issiqlik va namlikning yetarli bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi. O'simliklarning har bir turi $+10^{\circ}$ haroratdan yuqori bo'lgan o'rtacha sutkalik haroratning ma'lum miqdorini va kerakli namlik olishi kerak.

Tayanch iboralar: Qishloq xo'jaligi, ekstensiv va intensiv xo'jalik, mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish, dehqonchilik, texnika ekinlari, chorvachilik, qoramolchilik, qo'ychilik va boshqa tarmoqlar, xududiy tashkil etish, ixtisoslash, tabiat zonalari, ekvator, tropik, mo'tadil yon guruhlarda qishloq xo'jaligi.

SAVOLLAR:

11. Qishloq xo'jaligining asosiy o'ziga xos hususiyatlari.
12. Ekstensiv va intensiv xo'jalik degnada nimani tushunasiz?
13. Qishloq xo'jaligi xodimlarini asosiy vazifalari nima?
14. Dehqonchilikning qanday tarmoqlari mavjud?
15. Bug'doy jahonda nechta mamalakatda teishtiriladi va bugdoyni eng ko'p yetishtiradigan davlatlar kaysilar?
16. Chorvachilikni qanday tarmoqlari bor va shu tarmoqlar qanday maxsulotlar yetishtirali
17. Qoramolchilik va kuychilik kaysi mamlakatlarda rivojlangan? Nima uchun?
18. Subarktika mintaqasida asosan qishloq xo'jaligini nimaga ixtisoslashgan?
19. Asosiy dehqonchilik rayoni kaysi intaka hisoblanadi? U yerda nimalar yetishtiraladi.
20. Tog'li rayonlar ixtisos tarmog'i nima?

ADABIYOTLAR:

5. Ro'ziev A « Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari» Toshkent. 1990 yil
6. A.S.Soliev «Iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ruza matni
7. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Assonov G, Nabixonov M, Safarov I. Toshkent 1994 yil
8. X.Vaxobov, M. Tillaboeva «Iqtisodiy geografiya asoslari» Toshkent, 2001 yil

Mavzu: CHORVACHILIK TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

R E J A:

1. *Qoramolchilik.*
2. *Qo'ychilik va echkichilik.*
3. *Parrandachilik.*
4. *Mo'ynali hayvonlar boqish.*

Chorvachilikning asosiy maxsuloti go'sht, sut, tuxum, jun, teri va mo'ynadir. Chorvachilik quyidagi tarmoqlardan iborat: qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik, baliqchilik va darrandachilik.

Qoramolchilik. O'rmon va o'rmon-dasht zonalarida sersut qoramol boqiladi, chunki bu yerlarda yem-xashak ko'p. Dasht va pampalarda sut-go'sht qoramolchiligi rivojlangan. Bu yerlarda mollar tabiiy yaylovlarda boqiladi, yaylovlarda utlar qurib qolgandan keyin molxonalarda boqiladi. Quruk dasht, chala cho'l va cho'llarda go'sht beradigan mollar boqiladi.

Jahonda qoramollarning soni 1,3 mlrd ga yaqin bo'lib, ularning soni bo'yicha jahonda Xindiston (182 mln bosh), AQSH, Rossiya va Braziliya yetakchi. AQSHda, Argentinada va Avstraliyada qoramolchilikka ixtisoslashgan xududlar vujudga kelgan. Ushbu xududlarda eksport qilinadigan go'shtlar yetishtiriladi (masalan, Argentinada Pampa rayoni).

Qo'ychilik dasht, chala cho'l, cho'l va tog'larda rivojlangan. Shimoliy rayonlarda qo'ylar teri va go'sht yetishtirish uchun, janubiy rayonlarda mayin jun olish uchun, cho'l va chala cho'llarda dag'al jun va qorako'l teri olish uchun boqiladi. Subtropik va tropik qumli cho'llarda (O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Afgoniston va boshqalar) qorako'l qo'ylari boqiladi.

Avstraliya qo'ylar soni bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi (140 mln bosh). Bu mamlakatda yirik qo'ychilik stantsiyalari («Shipsteysnz») tashkil qilingan. Ular 10 ming va xatto 100 minglab ga maydonni eg'allaydi va bu stantsiyalarning har birida 50—100 ming boshgacha mayin junli «Merinos» qo'ylari boqiladi. Jahondagi qo'ylar sonining yarmi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi (Turkiya, Eron, Tokiston, Afgoniston, Efiopiya, Sudan va boshqalar).

Cho'chqachilik eng maxsuldor va tez ko'payadigan tarmoq o'lib, bu sohada Xitoy jahonda yetakchi o'rinda turadi.

Yilqichilik va tuyachilik. Cho'l, chala cho'l va tog'larda rivojlangan. Otlardan juda uzoqdavr mobaynida asosiy transport vositasi sifatida foydalanib kelindi. Hozirgi davrda esa sport maqsadlarida hamda go'shti va suti (qimiz) uchun boqiladi. Tuyachilik asosan cho'l rayonlarida (Afrika va Osiyo cho'llari) rivojlangan. Hozirgi paytda ular asosan go'shti, suti va juni uchun boqiladi.

Bug'uchilik asosan shimoliy o'lkalarda rivojlangan. Go'sht va terisi uchun boqiladi, transport maqsadlarida ham foydalaniladi. Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning qutbiy o'lkalarida tarqalgan.

Parrandachilik cho'chqachilikka o'xshab chorvachilikning sermaxsul tarmog'i hisoblanadi. Asosan go'sht va tuxum yetashtirib beradi. Yirik shaharlar atrofida rivojlantiriladi.

Darrandachilik deganda yovvoyi xayvonlarni go'shti, terisi, shoxi va mo'ynasi uchun ko'paytirish tushuniladi. Hozirgi paytda kumush rangli

qora tulki (shimoliy rayonlarda), xavo rangli shimol tulkisi, nutriya va norka ko'paytirilmoqda.

Ipakchilik (pillachilik). Shoyi beradigan ipak qurti boqishga asoslangan. O'rta Osiyo davlatlarida tut bargini iste'mol qiladigan, Osiyo davlatlarida (Xitoy) esa eman; daraxti bargini iste'mol qiladigan ipak qurti boqiladi.

Asalarichilik, o'rmon, o'rmon-dashtlarda va tog'larda rivojlangan. O'tloq, dasht o'tlari, bargli daraxtlar (tol, zarang, terak, tokterak, lipa) asalarichilik uchun oziqa manbai bo'lib hisoblanadi.

Baliqchilik. Dengiz, daryo, ko'l va sun'iy suv xavzalari baliqchiligi ajratiladi. Yiliga okeanlardan 100 mln tonnadan ortiqroq baliq tutiladi. Dunyo okeanida uchta baliq ovlash zonasi ajratiladi:

- a) shimoliy (30° sh.k. dan shimolda),
- b) tropik (30° sh.k.— 30° j.k.),
- v) janubiy (30° j.k. janubda).

Asosiy maxsulotni shimoliy zona beradi.

Okeanlar bo'yicha baliq ovlash miqdori quyidagicha: Tinch okean (56 foiz), Atlantika (38 foiz), Xind (6 foiz). Jahonda baliq ovlash bo'yicha Yaponiya, Rossiya, Xitoy, AQSH yetakchi o'rinlarda.

ADABIYOTLAR:

9. Ro'ziev A « Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish asoslari» Toshkent. 1990 yil
10. A.S.Soliev «Iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ruza matni
11. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Assonov G, Nabixonov M, Safarov I. Toshkent 1994 yil
12. X.Vaxobov, M. Tillaboeva «iqtisodiy geografiya asoslari» Toshkent, 2001 yil

Mavzu: TRANSPORT GEOGRAFIYASI

REJA:

1. Umumiy tushuncha.
2. Quruqlik transporti.
3. Suv transporti.
4. Xavo transporti.
5. Quvur transporti.
6. Elektron transport.

Transport (lotincha transporto — tashiyman degan ma'noni anglatadi) moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchilar tashishni

amalga oshiradigan eng muhim tarmoqlaridan biri, sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi uchinchi asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Transportning taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining umumiy darajasiga va ilmiy-texnik taraqqiyotga bog'liq. Ilmiy-texnika inqilobi transport quvvati va tezligi o'sib ketishiga, katta miqdordagi yuklarni hamda juda ko'p sonli yo'lovchilar tashishga imkon yaratdi.

Hozirgi paytda tovushdan tez uchadigan va 300—500 yo'lovchi oladigan samolyotlar, 500 ming tonnagacha yuk ko'taradigan kemalar, avtopoezdlar moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida ishlab turibdi. Transport ishlab chiqarishi to'xtovsiz takomillashib bormoqda.

Transportdagi ilmiy-texnika inqilobi transport vositalari quvvati, tezligi, yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatlarining o'sishida va uning yangi-yangi turlarining yaratilishida namoyon bo'lmoqda.

Transportning takomillashish darajasi qancha yuqori bo'lsa, ayrim mamlakatlar va jahon xo'jaligi miqyosida mehnatning xududiy taqsimotida muhim o'rin tutadi.

Transport ishlab chiqarishining boshqa tarmoqlardan farq qiladigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan yo'l va yo'l qurilishi uchun asos hamda xom ashyo sifatida foydalanadi;

b) transport ishlab chiqarishi asosan cho'ziqsimon (chiziqli) joylanishga ega;

v) moddiy ishlab chiqarish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi;

g) transport ishlab chiqarishi tarmoqlarga emas, balki turlarga bo'linadi;

d) transport ishlab chiqarishining xom ashyosi yo'q, asosiy vazifasi yuk va yo'lovchi tashishdir.

Transport quruqlik, suv, havo, quvur va elektron turlarga bo'linadi. Transport harakatga keltiruvchi kuchlarga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: oqim (og'irlik kuchi), yelkan, otulov, bug', issiq, elektr, nasos, atom va h.k. Bundan tashqari, ommaviy, maxsus va ichki ishlab chiqarish turlari ham ajratiladi. Ichki ishlab chiqarish transportiga korxona yoki kombinat doirasidagi konveyerlar, transportyorlar, ko'tarma kran va boshqa ko'tarma qurilmalar, rels yo'llari, avtomobil yo'llari, osma va sim yo'llar kiradi. Transport geografiyasining keng tarqalgan umumiy tushunchalari quyidagilardan iborat: magistral, shosse, yuk o'tkazish

sur'ati, yuk oboroti, yo'lovchi kilometr, yo'lovchi oboroti, yo'lovchi oqimi zichligi va h.k.

Texnik jixatdan yaxshi jixozlangan, juda katta yo'lovchi va yuk oqimiga ega bo'lgan yo'l-transport magistrali deb ataladi.

Transport magistrali eng muhim yo'nalishlarda xo'jalik aloqalarining markazlashuvi oqibatida vujudga keladi. Bunday yo'nalishlarda yuk va yo'lovchi tashish arzonga tushadi. Masalan, Transsibir temir yo'l magistrali, Transevropa temir yo'l magistrali, Transamerika magistrali va h.k.

Yuqorida aytganimizdek, transportning asosiy vazifasi yuk va yo'lovchi tashishdir. Quruqlik va suv yo'llaridan foydalanish darajasini belgilovchi ko'rsatkichi uning yuk o'tkazish sur'atidir.

Yuk o'tkazish sur'ati deganda ma'lum bir yo'lning yoki suv yo'lining muayyan joyidan ma'lum bir vaqtda har bir yo'nalish bo'yicha o'tadigan yuk oqimining tonnalarida ifodalangan miqdori tushuniladi.

Yuk ko'tarish quvvati — ma'lum bir transport vositasida tashishga mo'ljallangan yuk hajmi. To'rt o'qli temir yo'l vagonining yuk ko'tarish quvvati 62—65 t, daryo kemalariniki 7 ming t, konlarda ishlashga mo'ljallangan avtomobillarniki esa 120 t dir. Dengiz supertankerlarining yuk ko'tarish quvvati 150—500 ming t.

Yo'lovchi oqimi sur'ati deganda esa, vaqt birligida ma'lum bir transport yo'lida tashilgan yo'lovchilar soni tushuniladi. Yo'lovchi oqimi sur'ati shaharlararo yo'llardan, shahar ichida va shahar atrofida ancha yuqori bo'ladi.

Yo'lovchi oqimi kunning ma'lum vaqtlariga (shahar va shahar atrofida), haftaning kunlariga (shahar atrofi) va yil fasllariga qarab o'zgarib turadi.

Shahar ichida va shahar atrofida, qisman shaharlararo masofada yuk va yo'lovchi tashiydigan transport turi shahar transporti deb ataladi. Uning tarkibiga ommaviy transport turlari bo'lgan tramvay, trolleybus, avtobus, metropoliten, yengil avtotransport va boshqalar kiradi.

Transport ishining asosiy ko'rsatkichi yuk oborotidir. Yuk oboroti ma'lum masofaga tashilgan yuk miqdori yoki yo'lovchilar sonidir (yo'lovchi oboroti). Yuk oboroti t/km da ifodalanadi.

Yo'lovchilar, yuklar va yuk tashish vositalarining jo'nash va kelish joylari orasidagi barcha bekatlar, yo'llar hamda davlatlar tranzit deb ataladi.

Bir necha transport turi yo'llari tarmoqlanib ketgan joyda transport tuguni vujudga keladi.

Yo'llarning o'tkazish imkoniyati deganda ma'lum bir yo'l turidan (dengiz, xavo, temir yo'l, Avtomobil yo'li) bir sutkada o'tishi mumkin bo'lgan transport vositalari miqdori (poezd, kema, samolyot, avtomobil) tushuniladi. Masalan, ikki yo'lli temir yo'llarda o'tkazish imkoniyati sutkasiga 150 juft poezdga, bir yo'lli temir yo'llarda esa 30 juft poezdga yetishi mumkin. Bunga avtoblokirovka ham yordam beradi. Avtoblokirovka — stantsiyalar o'rtasidagi yo'llarning avtomatik svetofoirlari bo'lgan blok uchastkalarga bo'lingan qismlaridir. Bu usul ushbu yo'ldan bir vaqtning o'zida bir necha poezdni o'tkazish imkoniyatini beradi.

Yuk va yo'lovchi oqimi zich bo'lgan, tabiiy to'siqlar bor joylarda yo'llar tunnellar orqali o'tkaziladi. Tunnel deganda transport, piyodalar, suv o'tkazish va boshqa maqsadlarda qurilgan yer osti inshoti tushuniladi. Jahondagi eng o'zun tunnel Alh tog'idagi Simplon (19,7 km) tunneli hisoblanadi.

Quruqlik transporti

Quruqlik transportiga temir yo'l, Avtomobil va ot-ulov transporti kiradi.

Temir yo'l transporti

U transportning yuk va yo'lovchilarni parovoz, teplovoz va elektrovozlar bilan temir yo'lda tashuvchi turidir.

Birinchi temir yo'l transporti (parovoz) Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1890 yildan boshlandi, 1899 yili Samarqand—Andijon, 1906 yilda Orenburg—Toshkent temir yo'li qurib bitkazildi.

Temir yo'l transportining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: teplovozlar, elektrovozlar va vagonlar deposi; vokzallar; temir yo'llar.

Temir yo'l transporti — iqlim sharoitlari va yil fasllariga bog'liq bo'lmay, hamma vaqt faoliyat ko'rsata beradi. Uning tezligi katta, yuk tashish tannarxi past. Ilmiy- texnika taraqqiyoti temir yo'l transportiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Frantsiyada poezdlar tezligi bo'yicha rekordlar o'rnatilgan. Bu yerda poed tezligini 1955 yilda — 331 km/soatga, 1981 yilda 380 km/soatga, 80-yillarning oxirida esa 515 km/soatga yetkazilgan. Oddiy tezyurar poezdlarning tezligi soatiga 200—300 km. Parij—Bordo temir yo'lida qatnaydigan eng tezyurar poezdning tezligi 350 km/soat.

Jahonda temir yo'llarning umumiy uzunligi taxminan 1,2 mln. km, ammo uning 50 foizi oltita maydoni katta davlatlarga to'g'ri keladi (AQSH, Rossiya, Kanada, Xindiston, Xitoy, Avstraliya). AQSH temir yo'llarning umumiy o'zunligi bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

Temir yo'llarning zichligi bo'yicha G'arbiy yevropa davlatlari va AQSH yetakchi. Temir yo'llarning zichligi deganda 100 km² maydonga to'g'ri keluvchi temir yo'l uzunligi tushuniladi. Bu ko'rsatkich G'arbiy yevropada 10 km ga teng.

Rivojlangan davlatlarda temir yollarning deyarli hammasi elektrlashtirilgan va ular ikki yo'lli.

Avtomobil transporti

Avtomobil (grekcha autos — o'zi, lotincha mobilis — harakatlanadigan, yuradigan) transporti yuk va yo'lovchi tashishda muhim ahamiyatga ega.

Avtomobil transporti quyidagilarni o'z ichiga oladi: harakatdagi avtomobillar; avtomobil yo'llari; yoqilg'i bilan ta'minlash korxonalari; ta'mirlash korxonalari; avtovokzallar va h.k.

Hozirgi paytda avtomobillarning turli xillari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida va turmushda ishlatiladi. Moddiy ishlab chiqarishda og'ir yuk ko'taradigan avtomobillar, avtopoezdlar, yo'lovchi tashishda esa avtobuslar, yengil mashinalar ishlatilmoqda. Bundan tashqari, maxsus avtomobil transporti ham bor (medicina, oziq-ovqat, harbiy, ilmiy va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan).

Yo'llar Avtomobil transportining asosiy tarkibiy qismidir. Yo'llar qattiq qoplamli va gruntli bo'ladi. Ikki tomonlama avtomobil harakati uchun yaroqli bo'lgan keng yo'l avtostrada deb ataladi. Bunday yo'llarning muayyan bir joylarida yon ko'chalardan ko'shiladigan kirish va chiqish joylari bo'ladi. Ko'ndalang o'tish joylari viaduklarda yoki tunnellarda bo'ladi va avtostrada bilan kesishmaydi. Juda katta masofaga cho'zilgan avtostrada trakt deb ataladi. Masalan, Katta O'zbekiston trakti Toshkentni Termiz bilan bog'laydi. Kattik qoplamli yo'llarni ko'pincha shosse deb ataladi, tor texnik ma'noda shosse tosh yo'lni anglatadi. Qattiq qoplami bo'lmagan, avtomobil va otarava yurishi uchun yaroqli bo'lgan yo'llar grunt yo'llari deb ataladi. Iqlim sharoitiga qarab ular mavsumiy bo'lishi mumkin.

Ular tabiiy (qishloq, o'rmon yo'llari, karvon yo'llari, tog' yo'llari) va yaxshilangan yo'llarga bo'linadi.

Avtomobil transporti yuk oborotining deyarli yarmi sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari xissasiga to'g'ri keladi. Avtomobil transportining yuk oboroti bo'yicha jahonda AQSH birinchi o'rinda, rivojlangan mamlakatlar avtoparkining 50 foizi AQSHga to'g'ri keladi.

Avtomobil transportining afzalliklari quyidagilardan iborat:

a) sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magistral transport yo'llari va vositalari bilan bog'laydi;

b) shaharlardagi va shahar atrofidagi yuklarning asosiy qismini tashiydi;

v) qisqa (100 km) va uzoq masofalarga yuk tashishda qulay;

g) yuklarni yo'llarda tushirib ortmay, bevosita iste'molchiga yetkazib bera oladi.

Xayvonlar kuchiga asoslangan transport

Transportning eng qadimgi turi hisoblanadi. Juda uzoq davrlar mobaynida insoniyat ushbu transport turidan turli maqsadlarda foydalanib kelgan. Hozir ham kam rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlarda, baland tog'larda, cho'llarda, shimoliy (qutbiy) o'lkalarda ushbu transport turidan foydalaniladi.

Bu transport turi ikkiga bo'linadi:

— ot-arava transporti, ya'ni xayvonlar kuchiga asoslangan transport turi (ot, bug'u, it, qo'tos, xo'kiz va boshqa xayvonlar kuchiga asoslangan);

— ulov transporti, bunda yuklar asosan xayvonlarda tashiladi (otlarda, xachirlarda, eshaklarda, tuyalarda, xo'kizlarda va h.k.).

Suv transporti

Tabiiy (daryo, ko'l, dengiz, okean) va sun'iy (kanal, suv ombori) suv yo'llari orqali yuk va yo'lovchi tashiydigan transport turi. Suv transporti temir yo'l transportidan farq qilib, jixozlanishi uchun ko'p mablag' talab qilmaydigan suv yo'llaridan foydalaniladi. Ko'p yoqilg'i sarflanmaydi, yuk va yo'lovchilarni tashish tannarxi pastroq bo'ladi, ammo tezligi past, yuk tashish mavsumii, suv oqimining yo'nalishi doimo kema yo'nalishiga to'g'ri kelavermaydi.

Ilmiy-texnika inqilobi natijasida kemalarning tezligi va quvvati oshdi, natijada ularning harakati iqlimga va oqim yo'nalishiga bog'liq bo'lmay qoldi. Muzyorar kemalar yaratildi. Dengiz yo'llarini qisqartirish va ulardan unumli foydalanish maqsadida kanallar qurilgan va qurilmoqda.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi.

Dengiz transporti

Transportning eng qadimgi turlaridan biri, yuklar va yo'lovchilarni tashish uchun eng arzon suv yo'lidan foydalanadi (okeanlar, dengizlar va dengiz kanallari).

Dengiz transporti quyidagi hususiyatlarga ega:

- a) yuk va yo'lovchi tashish harajatlarining kamligi;
- b) kemalarni juda katta xajmda va og'irlikda yuk ko'tara olishi;
- v) dengiz yo'llarining kemalarni cheksiz o'tkazish hususiyati.

Dengiz yo'llari quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) xalqaro okean yo'llari;
- b) xalqaro dengiz yo'llari;
- v) mintaqaviy dengiz yo'llari;
- g) kabotaj dengiz yo'llari.

Xalqaro okean yo'llariga Tinch, Atlantika, Xind va Shimoliy muz okeani kiradi. Yuk oboroti bo'yicha Atlantika okeani birinchi, Tinch okeani ikkinchi va Xind okeani uchinchi o'rinda turadi.

Xalqaro dengiz yo'llariga bir necha davlat o'rtasida joylashgan xalqaro yuk tashish yo'llaridagi dengizlar kiradi.

Mintaqaviy dengiz yullariga bir yoki bir necha davlat foydalana oladigan dengiz yo'llari kiradi.

Bir mamlakatning ikki bandargoxi orasida yuk tashish kabotaj yuk tashish deb ataladi, va ikkiga bo'linadi tashki va ichki kabotaj yuk tashish.

Bir mamlakatning ikki bandargoxi orasidagi yuk tashish boshqa davlat qirgoklari orqali amalga oshirilsa, tashqi kabotaj yuk tashish deyiladi.

Agar mamlakat doirasidagi ikki bandargox orasida yuk tashilsa, unga ichki kabotaj yuk tashish deyiladi. Agar ikki bandargox orasidagi yuk tashish bir necha dengizlar orqali amalga oshirilsa, katta kabotaj yuk tashish deb ataladi.

Dengiz transportida tabiiy va sun'iy kanallarni ahamiyati juda katta. Tabiiy kanallarga tor dengiz bo'gozlari kiradi.

Kanal — bu suvni bir joydan (daryodan, ko'ldan va h.k.) iste'molchiga yetkazib beradigan suv xavzasi. Kanallar va bo'gozlar dengiz transportida muhim o'rin tutib, ular dengiz va okeanlarni eng qisqa yo'llar bilan birlashtiradi. Eng mashxur bo'gozlar Qora dengizdagi Bosfor, Dardanell, Boltiq dengizidagi bo'gozlar, Duvr (Pa-de-Kale), Laperuza, Sangar va Koreys bo'gozlaridir.

Bosfor, Dardanell bo'gozlari Qora dengizni va uning atrofidagi davlatlarni O'rtayer dengizi bilan bog'laydigan yagona suv yo'li hisoblanadi. Boltiq dengizi bo'gozlari (Katta va Kichik Belt, Zund) orqali juda ko'p kemalar suzib o'tadi. Duvr (Pa-de-Kale) bo'gozi Buyuk Britaniya va Frantsiyaning orasida joylashgan bo'lib, u orqali yiliga 400 mingta kema o'tadi.

Suvaysh kanali 1869 yilda qurib bitkazilgan, jahonning eng muhim kema katnaydigan kanali hisoblanadi. Kanal Suvaysh bo'yni orqali o'tgan, shlyuzlari yo'q. O'zunligi 161 km, umumiy o'zunligi 173 km, kengligi suv yuzasi bo'yicha 120—150 m, chuqurligi 10 m, farvater bo'yicha 12—13 m. O'tkazish imkoniyati sutkasiga 60 ta kema, 150 ming tonna yuk ko'tara oladigan kemalar o'tishi mumkin, yillik yuk oboroti 340 mln tonna. Kemalar kanalni 15 soatda suzib o'tadilar. Suvaysh kanali yevropadan Osiyoga boradigan yo'lni 9 ming kilometr ga qisqartirdi. Panama kanali 1914 yilda ishga tushirilgan. Atlantika va Tinch okeanlarini bir-biri bilan bog'laydi. San-Fransisko va Nyu-York shaharlari orasidagi masofani 16 ming kilometr ga qisqartirdi. Umumiy o'zunligi 82 km, yuk oboroti yiliga 100 mln tonna. O'tkazish imkoniyati yiliga 15 mingta kema.

G'arbiy yevropada Kil kanali katta ahamiyatga ega. U Boltiq dengizidan Shimoliy dengizgacha bo'lgan yo'lni 430 km ga qisqartirdi, uzunligi 95 km, kengligi (suv yuzasi bo'yicha) 102 m, chuqurligi 11 m, yillik yuk oboroti 50 mln tonna.

Dengiz transportining asosiy tarkibiy qismi bandargox hisoblanadi.

Bandargox — bu kemalar turishini, yuklarni tushirish-ortishni va kemalarga xizmat kilishni ta'minlaydigan inshootlari, qurilmalari va jixozlari bo'lgan okean, dengiz va ichki suv xavzalaridagi joy.

Bandargoxlar to'rt qismdan iborat bo'ladi:

- akvatoriya (reydlar, gavanlar va ularga olib boriladigan yo'llar);
- kemalar to'xtaydigan joy, bu yerda yuk ortadigan-tushiradigan jixozlar, omborlar va vokzal joylashadi;
- bandargoxning temir va avtomobil yo'llari;
- ichkari qism, bu yerda uzoq saklanadigan yuk omborlari, yordamchi va ma'muriy binolar joylashadi.

Bundan tashqari, bandargoxlar yana dengiz va daryo bandargoxlariga bo'linadi. Dengiz bandargoxlari geografik joylashishiga qarab tashki va ichki bandargoxlarga bo'linadi. Tashqi bandargoxlar o'z navbatida ochiq dengizda joylashgan (Odessa, Marsel), to'lqinlardan to'silgan tabiiy buxtalarda joylashgan (Novorossiysk, Vladivostok), laguna va qirg'oqlardagi ko'llarda hamda orollarda joylashgan (Daniya, Shvetsiya, bandargox-shaharlari), daryolarning quyilish joylarida (Sankt-Peterburg, Nyu-York) joylashgan bandargoxlarga bo'linadi.

Daryo bandargoxlari daryoning quyilish joyida, daryo qo'ltig'ida yoki sun'iy suv xavzalarida joylashadi. Ularga yana shlyuzli daryolardagi, kanallardagi, suv omborlaridagi bandargoxlar ham kiradi. Vazifasiga ko'ra savdo, baliqchilik va harbiy bandargoxlar ajratiladi.

Bandargoxlarda kema qatnovi uchun farvater bo'ladi. Farvater tushunchasi ikki ma'noda ishlatiladi:

a) suv usti va osti to'siqlari orasidan kemalarni xavfsiz suzishi uchun mo'ljallangan suv yo'li;

b) sayoz joyda sun'iy chuqurlashtirilgan joy (kema katnovi uchun).

Bundan tashqari, pristan va porto-franko tushunchalari ham bor. Pristan - kema to'xtovi, yuktushirish ortish, yo'lovchilarni tushirish-chiqarish uchun jixozlangan inshoot. Pristan yo'lovchi (passajir), yuk, yuk-yo'lovchi, baliqchilik va boshqa turlarga bo'linadi. Porto-franko deganda dengiz portlarining bojxona chegarasi bilan chegaralangan qismi tushuniladi. Ushbu qismda mollarni olib kirish va olib ketish uchun boj to'lanmaydi.

Bandargoxlarni kema o'tkazish imkoniyati turlicha bo'ladi. Kanal, bandargox, pristandan ma'lum vaqtda (bir yilda) o'tgan kemalar soni yoki olib o'tilgan yuklarning umumiy hajmi (og'irligi) kema oboroti deb ataladi.

Jahonda 2 mingdan ortiq dengiz bandargoxlari bor, ularning 20 tasida yuk oboroti yiliga 50 mln tonnadan ortiq. Jahondagi bandargoxlarning 60 foizi Atlantika okeani qirgoqlarida joylashgan. Eng yirik bandargoxlar: Rotterdam (yuk oboroti 225 mln t), Nyu-York (160 mln t).

Tinch okeanda Yaponiya va Singapur bandargoxlari eng yirik hisoblanadi. Xind okeanining Fors qo'ltig'ida yirik ixtisoslashgan neft bandargoxlari mavjud.

Kemalardan olinadigan turli xil to'lovlarni hisoblash, harakatdagi kemalarni yagona hisobda olib borish maqsadida jahondagi hamma davlatlar tomonidan registr-tonna birligi qabul qilingan.

Registr-tonna - 2,83 m³ (yoki 100 kub/fut) ga teng bo'lgan shartli xajm birligidir.

Suv yo'llarida tashilgan yuk uchun to'lanadigan xaq fraxt deb ataladi.

To'lovlar yukning og'irligi yoki xajm birligida hisoblanadi. Ba'zida reyslar yig'indisidan, ba'zida vaqt hisobidan xaq olinadi.

Dengizda yuklar asosan savdo flotida tashiladi. Savdo floti dengiz transportining tarkibiy qismi bo'lib, xalqaro va ichki dengiz yo'llarida yuk va yo'lovchi tashiydigan transport hamda texnik va yordamchi suzish vositalarini o'z ichiga oladi.

Jahon savdo floti quyidagilarni o'z ichiga oladi: quruq yuk tashiydigan (general yuklar, ya'ni donalab tashiladigan yuklar uchun), ommaviy (ruda, ko'mir, yog'och) yuklar tashiydigan, suyuq yuklar tashiydigan, yuk va yo'lovchi tashiydigan, refrijeratorlar va paromlar.

Paromlarda poezdlarni yuki bilan suv orqali o'tkaziladi. Eng yirik paromlar: Boku (Ozarbayjon) — Krasnovodsk (Turkmaniston), Kaspiy dengizida (300 km); Pusan (Koreya) — Simonoseki (Yaponiya), Koreya bo'gozida (222 km); Gavr (Frantsiya) — Sautgepton (Buyuk Britaniya), La-Mansh bug'ozida (194 km); Svinouyo'a (Polsha) — Trelle-borg (Shvetsiya), Boltiq dengizida (180 km).

Turli davlatlar bandargoxlari orasida rejasiz suzadigan quruq yuk tashiydigan kemalar tramp floti deb ataladi. Ular ham savdo flotining bir qismi hisoblanadi.

Tramp floti XIX asr oxirida muntazam qatnaydigan kemalar tomonidan surib chiqarildi. Hozir jahonda uch mingta shunday kema bor, ularning deyarli yarmi Gretsiya, Norvegiya va Buyuk Britaniyaga tegishli.

Dengizlarda suyuq yuk tashiydigan kemalar tankerlar deb ataladi, ularning yuk sig'imi (korpusi) sisternalarga bo'lingan bo'ladi. Ularda asosan neft, neft maxsulotlari, ba'zida vino, o'simlik moyi, kit moyi va meva sharbatlari tashiladi.

Baliqlar mexanizatsiya (trall) usuli bilan bir palubali kemalarda tutiladi. Bunday kemalar trauler deb ataladi.

Jahondagi yuklarning 60 foizi dengiz transportida tashiladi. Yaponiya, AQSH va Rossiya dengiz transporti yuk oborotining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Jahon savdo flotining umumiy yuk sigimi 420 mln t, Eng yirik savdo floti Liberiya, Panama, Yaponiya, Gretsiya, AQSH, Rossiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Frantsiyada, 120 Liberiya va Panama davlatlari savdo flotining kattaligiga asosiy sabab, ularning

bayrogi ostida boshqa davlatlarning, jumladan AQSH, Gretsiya, Yaponiya, Norvegiya kemalarining so'zishidir.

Ichki suv transporti

Yo'lovchilar va yuklarni ichki tabiiy (daryo, ko'l) va sun'iy (kanal, suv ombori, daryolarning shlyuzlangan qismlari) suv yo'llarida tashiydigan transport turi, ba'zida ular ochiq dengizga chiqib, qirgoq bo'ylab ham suzishadi. Ichki suv transportiga daryo, ko'l va sun'iy suv xavzalari transporti kiradi.

Daryo transporti

Daryo transporti, umuman ichki suv transporti rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitlar, ya'ni kema qatnoviga yaraydigan daryolar mavjud bo'lishi kerak. Amazonka, Panama, Misisipi, Ob, Yenisey, Yanszi, Kongo va boshqa bir qator yirik daryolarning transport imkoniyati eng yirik temir yo'l magistrallari imkoniyatidan ham kattadir. Lekin bu imkoniyatdan foydalanish davlatlarning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Shimolda joylashgan davlatlarda kema qatnovi mavsumiy bo'ladi, quyi kengliklarda (ekvatorial-tropik mintaqalarda) yirik daryolarda kema qatnovi yil bo'yi davom etadi.

Daryo kemalari temir yo'lga nisbatan ko'p yuk ko'taradi va tashiladigan yuk birligiga quvvatni deyarli 6 marotaba kam sarflaydi. Shu sababli daryolarda hajmi katta, miqdori ko'p va tez olib borish talab etilmaydigan yuklar: yog'och-taxta, neft, g'alla, binokorlik materiallari tashish qo'lay.

Daryo transportida magistral daryo yo'llari aloxida ajralib turadi (bunga bir necha davlat tashki savdosiga xizmat qiladigan xalqaro yo'llar ham kiradi).

Daryo transportining rivojlanishi bo'yicha AQSH, GFR, Niderlandiya, Rossiya, Frantsiya, Kanada ajralib turadi. Rivojlanayotgan davlatlarda daryo transporti yetarli darajada taraqqiy etmagan.

Ichki suv transportining taxminan 10 foizi, sun'iy suv xavzalariga to'g'ri keladi. Ulardan eng yiriklari yevropada (Volga-Boltiq; Oq dengiz-Boltiq dengiz), (O'rta Dunay, Reyn-Mayn-Dunay) va AQSHda (qirgoq kanali) joylashgan.

Ko'l transporti

Bu ham ichki suv transportining bir turi. Yuk va yo'lovchilarni tabiiy (ko'l) va sun'iy suv yo'llari bilan tashiydi. Daryo kemalariga nisbatan to'lqinga chidamli kemalar ishlatiladi.

Jahonda ko'l transporti eng rivojlangan rayon AQSH va Kanada xududida joylashgan Buyuk ko'llardir. Buyuk ko'llar Atlantika okeani bilan chuqur Avliyo Lavrentiy daryosi orqali bog'langan. Afrikada ko'l transporti Nyasa, Tanganika, Viktoriya va Albert ko'llarida, yevrosiyoda Kaspiy, Balxash, Baykal, Onega, Ladoga ko'llarida rivojlangan. Orol dengizining qurishi munosabati bilan u yerda hozir ko'l transporti yo'q. Bundan tashqari, yirik suv omborlarida ham ko'l transporti rivojlangan.

Xavo transporti

Aloqa (pochta, yuk va yo'lovchilarni havo yo'li orqali samolyotlarda tashiydigan, XX asrda tashkil topgan eng yosh transport turi. Asosiy tarkibiy qismlari: aeroport, samolyot va havo yo'llari, aeroport bu yo'lovchi va transport aviatsiyasining muntazam ishlashini: ta'minlash uchun qurilgan va havo yo'llarida joylashgan doimiy aerodrom. Aeroportlar: xalqaro (turli mamlakatlar samolyotlarini qabul qilishga, ularga xizmat ko'rsatishga va jo'natishga mo'ljallangan); asosiy, ya'ni samolyotlarni doimiy turishiga mo'ljallangan; boshlang'ich (reyslar boshlanadigan); oraliq; oxirgi va extiyoj (majburiy qo'nish uchun) guruhlariga bo'linadi.

Bu transport turi eng qimmatliligi, tezligi va relefga kam bog'liqligi bilan ajralib turadi. Yo'lovchi tashishda uning ahamiyati nixoyatda katta. Unda tashiladigan yuklarning ancha qismi shoshilinch va qimmatbaxo bo'ladi.

Aviatsiya transporti qishloq va o'rmon xo'jaligida ham qo'llaniladi. U dengiz va okeanlarda baliqchi kemalarda baliq ovlash rayonlarini qidirishda yordam beradi.

Aviatsiya transporti jahonning asosiy transport turlaridan biriga aylanib qoldi. Chunki uning eng muhim afzalligi tezligidir. Hozirgi paytda eski porshenli samolyotlar o'rniga turbovintli samolyotlar ko'proq ishlab chiqarilmoqda. Oxirgi paytlarda ko'p yo'lovchi tashiydigai (500 yo'lovchiga mo'ljallangan) «Boing-747» (AQSH), «Il-86» (Rossiya), «A-310» (GFR—Frantsiya—Buyuk Britaniya), tovushdan tez uchadigan «Konkord» (Frantsiya—Buyuk Britaniya) samolyotlari ishlab

chiqarilmoqda. O'zbekistonda o'rta masofalarga uchuvchi «Il-114» magistral samolyoti, Il-76 TD yuk tashishga mo'ljallangan samolyotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Jahon aviatsiya transportining 50 foizi AQSHga to'g'ri keladi.

Quvur transporti

Quvurlar bosim ostida suyuq, gaz va qattiq (maydalangan) yuklarni tashiydigan transport turi. Vazifasiga va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra ular quyidagi guruhlariga bo'linadi: magistral (bunga xalqaro quvur yo'llari ham kiradi); maxalliy (undiruvchi, yiguvchi, taqsimlovchi); ichki, korxonalar miqyosida (neftni kayta ishlash zavodlari, neft omborlari).

Quvurlar trassasi rel'efga bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun eng qisqa masofadan o'tkaziladi.

Ushbu transport turidan yoqilg'i tashishda keng foydalaniladi (neft, neft maxsulotlari, gaz, qisman ko'mir), undan tashqari, unda suv (vodoprovod) va sut ham tashiladi.

Avstriya va Shvetsiyada baland tog' yaylovlaridan sut (o'z oqimi bilan) quvurlarda tashiladi. Quvur transporti AQSH, Rossiya, Kanada, Yaqin va O'rta Sharq hamda yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Eng o'zun neft va gaz tashiydigan quvurlar AQSH, Kanada va Rossiyada.

Elektron transport

Elektron transport, transport geografiyasining eng yangi tarmog'i hisoblanadi. Unda asosan elektroenergiya, tovush, tasvir va turli xil belgilar (telegraf) tashiladi.

Elektron transportining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: elektr liniyalari, yuqori voltli elektr liniyalari, kabellar, antennalar, tovush, tasvir va belgi tarqatuvchi va qabul qiluvchi stantsiyalar.

Ushbu transport to'rining rivojlanish darajasi ham davlatlarning umumiy rivojlanish darajasiga bog'liq.

Tayanch tushunchalar:

Transport, transport magistarli, yuk utkazish sur'ati, yulovchi oqimi, tranzit, transport tuguni, quruqlik transporti, temir yo'l transporti, avtostrada, trakt, shosse, grunt yo'llari, ot-arava, ulov transporti, suv transporti, kabotaj yuk tashish, bandargox, farvater, pristanh, porto-franko,

kema oboroti, regist-tonna, fraxt, tramp floti, tankerlar, trauler, yul transporti, aeroport, elektron transport.

SAVOLLAR:

1. Transportdagi ilmiy texnik inkilob nimalarda namoyon buldi?
2. Transport qanday turlarga ublinadi? Ular qanday hususiyatlarga ega?
3. 1- marta nechanchi yillari jahonda va O'zbekistonda temir yullari kurildi?
4. Avtostrada nima? Avtomobil transportining qanday afzalligi bor?
5. Suv transportining boshqa transport turlaridan afzallik va kamchilik tomonlari kaysilar?
6. Ilmiy texnika inkilobi natijasida suv transportida qanday o'zgarishlar buldi?
7. Yuk tashish buyicha (suvda) qaysi mamlakatlar oldingi o'rinda turadi?
8. Aeroport nima? Aviatsiyaning eng muhim afzalliklarini ayting
9. quvur transportida nimalar tashiladi? va u vazifasiga, texnik-iqtisodiy kursatkichlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
10. Elektron transportning tarkibiy qismlarini ayting.

ADABIYOTLAR:

1. X. Vaxobov, M. Tillaboeva «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari» Toshkent,, 2001 yil.
2. Asonov G, Nabixonov M, Safarov I «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» Toshkent 1994yil.
3. A.S.Soliev «iqtisodiy geografiya asoslari» ma'ruzalar matni

